**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

# PSIXOLOGIYA FANIDAN O'QUV – USLUBIY MAJMUA



**GULISTON-2006**

**SH.Usmonova, M.Xolnazarova, F. Babajanova.** «Psixologiya» fanidan o'quv-uslubiy majmua. Guliston. 2006 yil. 118 bet.

Ushbu o`quv-uslubiy to`plamda mavzularning nazariy asoslarini mukammal o`rganish, tahlil qilish, qiyosiy taqqoslashga mo`ljallangan vazifalar, ayrim jihatlarini chuqur egallashga qaratilgan topshiriqlar, olgan bilimlarni amalda tatbiq etish yo`l-yo`riqlari tahlili qayd etilgan.

O`quv-uslubiy to`plam Guliston Davlat universiteti O`quv-uslubiy Kengashi tomonidan
(2- bayonnoma, 26 октябр) nashrga tavsiya qilindi.

Mas`ul muharrir: professor E.O.Turdiqulov

Taqrizchilar: Prof. E.G'oziyev, dotsent X.Abdukarimov

Ш.Усмонова, М.Холназарова, Ф.Бабажанова. Психология. Учебно-методический комплекс для студентов дневного отделения. Гулистан. 2006. 118 стр.

Данный учебно-методический комплекс расскрывает научные и практические основы педагогике. В нём отражены основные компоненты педагогике, её формирование и внедрения в практическую деятельность педагогов.

Учебно-методический комплекс рекомендуется к изданию Научно-методическим Советом ГГУ, (протокол №2 от 26 октября, 2006 г.)

Ответственный редактор: проф. Э.Турдикулов

Рецезенты: Проф. Э.Газиев, доц. Х.Абдукаримов

SH.Usmonova, M.Xolnazarova, F. Babajanova.. A methodical elaborotion in "Psyxologiy". Gulistan. 2006 y. 82 pg.

This educational - and - methodical elaboration is inthended to study the theoretical bases thoroughly, analize, tasks for the comparing analysis, sel-directed works, use gained knowledges in practice.

This methodical elaboration is recommended for printing by educational-methodic committee of Gulistan state university.

Chief editor: professor E.O.Turdikulov

Reviewers: prof. E.Gaziyev, X.Abdukarimov.

GulDU ©

## So'z boshi.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Milliy universiteti psixologiya kafedrasi professorlari E.G'oziyev va V.Tokarevalar tomonidan 2004 yilda tuzilgan o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, pedagogik yo'nalishidagi barcha fakultetlarda bakalavriat darajasida ta`lim berishga mo'ljallangan. Unda mavzular modullarga bo'lingan bo'lib, asosiy savollar, barcha savollar uchun tegishli bo'lgan tayanch tushuncha va iboralar, muammoli savol, vazifa va muhokama uchun savollar belgilangan. Har bir savol uchun alohida maqsadlar tizimi ishlab chiqilgan. Dars va o'quvchi maqsadlari uyg'unlashtirilgan. Maqsadlar va asosiy savolning mazmunidan kelib chiqqan holda umumiy modul uchun xulosalar berilgan. Modul bo'yicha yakuniy mashg'ulotni ishlab chiqishda talabalarning bilimlarini o'zlashtirish darajalari ketma-ketligiga amal qilingan. O'quv-uslubiy majmua psixologiya fani mazmunini to'la aks ettirgan holda talabalarning mustaqil bilim olishlariga samarali ta`sir etadi, deb hisoblash mumkin.

## 1. Fanning maqsad va vazifalari:

**1.1. Fanning maqsadi:** Psixologiya kursining asosiy maqsadi – bo`lg`usi mutaxasislarga o`zlari tanlagan ixtisoslik bo`yicha malakalarni yanada mustaxkamlash, shaxsning individual psixologik xususiyatlarini, shaxsni shakllanitrishning psixologik tamoyillarini, qonuniyatlarini o`rgatish.

**1.2. Fanning vazifalari;** bakalavrlarni ijtimoiy faoliyatning barcha yo`nalishlarida kishilar mehnatini tashkil etish, boshqarishning psixologik omillari, mexanizmlari va shart-sharooitlari va

ijtimoiy faoliyat motivlarini mukammal o`zlashtirish, o`zlaridagi qobiliyat va iqtidorni, mustaqil tafakkurni rivojlantirish omillarini o`rgatish.
Fanni o`rganishda talabalar xalqimizning boy ma'naviy-ma'rifiy merosiga, fanning metodologik asoslariga tayangan holda ish ko`radilar

## 2. Fanning mazmuni

### 2.1. Ma'ruzalar bo`yicha ishchi dastur

| № | Mavzu nomi | Ko`riladigan masalalar | Soat |
|---|---|---|---|
| 1 | **Psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti.** | 1. Hozirgi zamon pisixologiya fanining predmeti va uning ijtimoiy tabiati. Psixologiya predmeti konkiret shaxs,uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatning o`ziga xos tomoni ekanligi.Yoshlarda fuqorolik ongini shakillantirish, milliy istiqlol g`oyasiga sadoqat,vatanparvarlik fazilatlarni ongiga singdirish.<br>2. Yangicha tafakkur va milliy mafkura shakillanishi sharoitida psixologik bilimlarning tutgan o`rni.<br>3. Hozirgi zamon psixologiyasi va uning fanlar sistemasidagi o`rni.<br>4. Tarix psixologiyaning bozor munosabatlari sharoitidagi imkoniyatlari. | 2 |
| 2. | **Psixologiyada shaxs va jamiyat muamosi.** | 1. Shaxsga ta'sir etuvchi omillar.Shaxs ma'naviyati va dunyoqarashini shakillantirish Shaxs va jamiyat o`zaro munosobatlarini o`rganishning dolzarbligi.Shaxsdagi tug`ma – biologik xususiyatlar va ularning sotsial muxitga bog`liqligi.<br>1.Psixologiyada shaxs tushunchasi.<br>2. Shaxsning tuiulishi.<br>3. Shaxsning faolligi va yo`nalganligi.<br>4. Shaxsning o`zini anglab etishi.<br>5. Shaxsning shakllanishi. | 2 |
| 3. | **Shaxsni ijtimoiy borliqni bilish** | 1. Shaxs va uning tashqi olamni bilishi imkoniyatlari Bilish qobiliyatining kasbiy faoliyatga aloqadorligi, bilish jarayonlari tasnifi..<br>2. Bilish mezonlari va uning adekvatligi.<br>3. Sezgilar va ularning qonuniyatlari.<br>4. Idrok, o`ziga xos xususiyatlari. | 4 |
| 4 | **Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari.** | 1. Ijodiy va mantiqiy fikrlash – sog`lom ma'naviyat va e'tiqodni tarbiyalashning omili sifatida. Tushinish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Fikr va fikrlash operatsiyalari. Tafakkurning umumiy xarakteristikasi.<br>2. Ijodiy va mantiqiy fikrlash.<br>3. Tafakkur turlari. | 2 |
| **5** | **Shaxsning individual xususiyatlari.** | 1. Individual tipologik xusisiyatlar tasnifi. Shaxsning iqdidori va qobiliyatlarini diagnostika qilish. Qoblyatdagi tug`ma va ortirilgan xusisiyatlar.1.Idividual xususiyatlarning psixologik asoslari.<br>2.Irodaviy sifatlarning shakillanish sharoitlari. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 3.Irodaviy sifatlarning vazifalari. | |
| 6 | **Shaxs taraqqiyoti-ning yoshga bog`liq xususiyatlari** | 1Shaxs psixologiyasi va xarakterining yoshga bog`likligiYosh davirlari klassifikatsiyasi.Yosh psixologiyasi fanining vazifasi va ahamiyati.<br>2.Yosh davrlarining chegaralash mezonlari.<br>3.Yosh psixologiyasi fanining ilmiy –tadqiqot metodlari.<br>4.Maktabgacha yosh davri xususiyatlari. | 4 |
| 7 | **O`smir va o`spirinlar psixologiyasi** | 1. O`smir va o`spirin psixolgiyasining o`ziga xosligi.O`smirlar to`g`risida umumiy tushuncha.<br>2. O`smirning biologik o`sishi.<br>3. Akseleratsiya nazariyasi.<br>4. O`smirlik yoshida shaxsning shakllanishi.<br>5. O`smirning ahloqiy kamoloti. | 2 |
| 8 | **Gurux sharoitida zamonaviy o`qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari** | 1. Zamonaviy o`qitishning o`ziga xosligi. Auditoriya bilan ishlashning o`ziga xosligi. Yangi pedagogik va didaktik texnologiyalar joriy etishning psixologik xususiyatlari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar xaqida tushuncha.<br>2. Guruh sharoitida ZPT lardan foydalanish.<br>3. Interfaol usullar va ularning pedagogik-psixologik asoslari. | 2 |
| | **Jami** | | 20 |

## 2.2. Psixologiya fanidan amaliy mashg`ulotlari ishchi dasturi

| № | Mavzu nomi | Ko`riladigan asosiy masalalar | Vaqt |
|---|---|---|---|
| **1.** | **Hozirgi zamon psixologiyasining predmeti metodi va ahvoli** | 1.Psixologiyaning metodologik negizi.<br>2.Hozirgi zamon psixologiyasi va uning fanlar sistemasidagi o`rni.<br>3.Hozirgi zamon psixologiyasining printsiplari va tuzilishi.<br>4.Hozirgi zamon psixologiyasida tadqiqot metodlari. | 1 |
| **2.** | **Shaxs insoniy munosabatlar tizimida.** | 1. Muomala haqida tushuncha.<br>2. Axborot ayirboshlash tarzidagi munosabat.<br>3.Munosabat shaxslararo birgalikda harakat qilish demakdir.<br>4.Muomala odamlarning bir-birini tushunishidir. | 1 |
| **3.** | **Guruxlarda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish.** | 1. Guruhlar va ularning tasnifi.<br>2. Jamoa shaxs rivojining eng yuksak formasidir.<br>3. Guruhlarda va jamoalarda tabaqalanish.<br>4. Guruhlar va jamoalardagi aloxida guruhlarning birga qo`shilishi<br>5. Tarbiyaviy jixatdan jamoa va jamoatchilik. | 1 |
| **4.** | **Xotira** | 1.Xotira turlari.<br>2.Xotira jarayonining jihatlari.<br>3.Esda olib qolish.<br>4.Qayta esga tushirish.<br>5.Unutish, esda saqlash.<br>6.Xotiradagi individual farqlar. | 1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **5.** | **Tafakkur** | 1.Tafakkur operatsiyalari.<br>2.Tafakkur va masala echish.<br>3.Tafakkur turlari. | 2 |
| **6.** | **Temperament** | 1.Temperament haqida tushuncha.<br>2.Oliy nerv tizimining tipi va temperament.<br>3.Mehnat va o`kuv faoliyatida temperamentning roli.<br>4.Temperament va tarbiya muammolari. | 2 |
| **7.** | **Xarakter** | 1.Xarakterlar haqida tushuncha.<br>2.Xarakter sturukturasi.<br>3.Xarakterning munosabatlarda namoyon bo`lishi. | 1 |
| 9. | **Maktabgacha va kichik maktab yoshi psixologiyasi** | 1.Ilk bolalik davridagi psixik o`sish va nutqning shakllanishi.<br>2.Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning bilish jarayonlari.<br>3.Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda ahloqiy tushunchalarning shakllanishi. | 1 |
| 10. | **O`smirlar psixologiyasi** | 1. O`smirlar to`g`risida umumiy tushuncha.<br>2. O`smirlarning biologik o`sishi.<br>3. Akseleratsiya nazariyalari.<br>4. O`smirlik yoshida shaxsning shakllanishi.<br>5. O`smirning aqliy kamoloti.<br>6. Tarbiyasi qiyin o`smirlar. | 2 |
| 11. | **O`spirin psixologiyasi.** | 1. O`spirinlar aql-idrokining xususiyatlari.<br>2. O`spirin va kasb tanlash.<br>3. O`spirinlarning turmush xaqidagi tasavvurlari. | 1 |
| 12. | **ZPTlarning pedagogik va psixologik asoslari** | 1. ZPTning xususiyatlari.<br>2. Interfaol usullar.<br>3. Mikroguruxlar tashkil etishning pedagogik va psixologik asoslari. | 2 |
| | **Jami:** | | 16 |

## 2.3. Psixologiya fanidan laboratoriya mashg`ulotlari ishchi dasturi

| | Mavzu | Ko`riladigan asosiy masalalar | Vaqt |
|---|---|---|---|
| **1** | **Diqqat** | 1. Diqqatning ko`chuvchanligini aniqlash.<br>2. Diqqatning barqarorligi ko`lamini aniqlash.<br>3. Psixologik masalalar echish. | 1 |
| **2** | **Muloqot** | 1. Muloqat treningini o`tkazish.<br>2. Attaraktsiya darajasini aniqlash.<br>3. Psixologik testlar yordamida kommunikativ imkoniyatlarni aniqlash. | 1 |
| **3** | **Shaxs** | 1. Shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash.<br>2. Psixogeometrik masalalar echish.<br>3. Sotsiometriya. | 2 |
| **4** | **Shaxslararo munosabat** | 1. Sotsiometriya.<br>2. Gurux muhitini o`rganish.<br>3. Shaxslararo aloqalarni aniqlash.<br>4. Masala echish. | 1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **5** | **Xotira, Tafakkur** | 1. Emotsional xotira ustida tadqiqot.<br>2. Ixtiyoriy xotiraga doir tadqiqot.<br>3. Ixtiyorsiz xotiraga tasir ko`rsatuvchi omillar.<br>4. Tafakkur jarayonlariga doir tadqiqot. | 3 |
| **6** | **Hayol, tasavvurlar.** | 1. Reproduktiv hayolni aniqlash.<br>2. Ijodiy hayolni aniqlash.<br>3. Psixologik mashqlar. | 1 |
| **7** | **Iroda.** | 1. Irodangiz qay darajada? Testini o`tkazish.<br>2. Psixologik mashqlar bajarish. | 1 |
| **8**. | **Temperament Hissiyot** | 1. Ayzenk metodikasi asosida temperament tipini aniqlash.<br>Hissiyotga oid topshiriqlarni bajarish.<br>2. Ijodiy insho yozish. Psixologik masala echish. | 2 |
| **9** | **Xarakter Qobiliyatlar** | 1. 1.Psixologik test.<br>2. 2.Xarakter tipini aniqlash.<br>3. Psixogeometrik mashqlar yordamida xarakter xususiyatlarini o`rganish.<br>4. Qobiliyatlarni aniqlash Ayzenk test<br>5. Psixologik masala echish. | 2 |
| | **Jami** | | 14 |

## MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

1. Faoliyat
2. Shaxslararo munosabatlar
3. Tafakkur
4. Temperament
5. Iroda
6. Qobiliyatlar

## REYTING IShLANMASI

| **T-r** | **Bajariladigan ish nomi** | ***Ish soni*** | ***Ball*** |
|---|---|---|---|
| **I. Joriy baholash (JB). 55 ball.(55 %)** | | | |
| 1. | Og'zaki so'rov | 8 x 2 | 16 ball |
| 2. | Amaliy | 12 x 2 | 24 ball |
| 3. | Laboratoriya | 9 x 1 | 8 ball |
| 4. | Yozma topshiriq | 7 x 1 | 7 ball |
| **II. Oraliq baholash. (OB). 30 ball. (30%)** | | | |
| 5. | Mustaqil ish | 2 x 5 | 10 ball |
| 6. | Yozma ish | 2 x 10 | 20 ball |
| | **III. Yakuniy baholash. (YaB). 15 ball.(15 %)** | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Fan bo`yicha barcha mavzular-ning mazmunini qamrab olgan yozma topshiriq variantlari asosida nazorat tekshiruvi o`tkazish. | 1 marta | 15 ball |
| | **JAMI:** | | **100 ball** |

**Baholash mezoni**

Maksimal ball - 100 ball

O`tish bali - 56 ball

«A'lo» - 86 dan 100 gacha (86-100%)

«Yaxshi» - 71 dan 85,9 gacha(71-85%)

«Qoniqarli» - 56 dan 70,9 gacha (56-70%)

«Qoniqarsiz» - 55,9 ball 55% dan past.

**Eslatma:** 55% dan kam to`plagan talabalar YaB ga qo`yilmaydi.

Yakuniy nazoratga kirish bali - 55 ball

## 1. Joriy baholash bo'yicha: jami 55 ball ajratiladi

1.1. Og'zaki so'rov 8 marta o'tkazilib, har bir so'rov uchun 2 balldan ajratilgan. Mavzuga ajratilgan materialning mazmunini to'liq ifodalab bergan talabaga 2 ball, ba`zi xatolarga yo'l qo'ysa 1,7-1,9 ball, boshqa hollarda 1 ballgacha beriladi.

1.2. YOzma topshiriqlar har bir mavzu yuzasidan 7 marta baholanadi. Har bir topshiriqga 1 ball beriladi. Talaba qo'shimcha adabiyotlardan, Internet ma`lumotlaridan foydalanib, yozma topshiriqni bajarsa, ma`ruzani konspektlashtirsa 1 ball qo'yiladi. Topshiriq to'liq bajarilmasa 0,5-0,9 ball oralig'ida, boshqa hollarda 0,5 ballgacha qo'yiladi.

1.3. Amaliy mashg'ulotlar 12 marta o'tkazilib, har mashg'ulotga 2 ball beriladi. Ma`ruzada tushuntirib o'tilgan nazariy ma`lumotlarni o'zlashtirib, amalda ifodalab, bajarib ko'rsata olgan talabaga 1,8-2 ball qo'yiladi. Boshqa hollarda bajarilish saviyasiga qarab 1,7 ballgacha beriladi.

1.4. Laboratoriya ishlari kafedrada ishlab chiqilgan namunalar asosida, aniq mavzulardan bajariladi. Jami 9 ta mavzudan bajarilgan 9 ta topshiriq yuzasidan baholanadi. Har bir topshiriqga 1 ball beriladi. To'la bajargan talabaga 1 ball, to'la bajarmagan talabaga bajarilgan ish hajmiga nisbatan 0,8 ballgacha qo'yiladi.

## 2. Oraliq baholash bo'yicha: jami 30 ball ajratiladi.

2.1. Mo'ljallangan muddatda, mo'ljallangan mavzular yuzasidan ikki marta yozma ish o'tkazilib, variant asosida beshta savolga javob yozishi talab qilinadi. Har bir savolga 2 balldan, bitta yozma ishga 10 ball beriladi. Jami ikkita yozma ish uchun 20 ball ajratiladi.

2.2. Mustaqil ishlar to'plamida keltirilgan ikkita mavzu yuzasidan mustaqil ish bajariladi. Jami ikkita mustaqil ish topshirig'i bajarilib, har bir topshiriq 5 ballgacha mustaqil ishlar to'plamida ko'rsatilgan bandlar bo'yicha baholanadi. Agar biror band bajarilmasa shu bandga ajratilgan ball qo'yilmaydi. Ikkita mustaqil ish topshirig'i uchun 10 ball ajratiladi.

**3. YAkuniy baholash bo'yicha: jami 15 ball beriladi.**

3.1. YAkuniy baholashda fan bo'yicha o'tilgan barcha mavzularning mazmunini qamrab olgan yozma topshiriq variantlari asosida yozma ish o'tkaziladi. Variantning har bitta savoli uchun 3 balldan, jami yakuniy nazoratga 15 ball ajratiladi. Savolning mohiyatini to'liq ochib bergan, aniq faktlar bilan dalillab bergan talabaga 3 ball, javob to'liq yoritilmagan bo'lsada, asosiy fikrlar ifodalab berilsa 2 ball, qoniqarli javob uchun 1 ball beriladi. Aks hollarda 0,8 ballgacha qo'iladi. Savolga javob berilmasa 0 ball qo'yiladi. YAkuniy baholashda yakuniy nazorat uchun ajratilgan balning 55 % ini, ya`ni 8 ball to'play olmagan talaba yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi.

**Talabaning umumiy bali hisoblanganda yaxlitlab olinadi.**

## 1-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARB VAZIFALARI VA PREDMETI

**Ajratilgan vaqt: 2 s.**

**Asosiy savollar:**

1. Hozirgi zamon pisixologiya fanining predmeti va uning ijtimoiy tabiati. Psixologiya predmeti konkiret shaxs,uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatning o`ziga xos tomoni ekanligi.Yoshlarda fuqorolik ongini shakillantirish, milliy istiqlol g`oyasiga sadoqat,vatanparvarlik fazilatlarni ongiga singdirish.
2. Yangicha tafakkur va milliy mafkura shakillanishi sharoitida psixologik bilimlarning tutgan o`rni.
3. Hozirgi zamon psixologiyasi va uning fanlar sistemasidagi o`rni.

**Tayanch iboralar:** Psixik hodisalar, psixika, psixologik qonuniyatlar, psixik faoliyatning mexanizmlari, pertseptsiya, appertseptsiya, empirizm, assotsionizm, reflektor yoyi, birinchi signal sistemasi, ikkinchi signal sistemasi, retseptorlar, markaziy nerv sistemasi, elektroentsefalogramma, funktsional assimetriya, ong.

**Mavzuga oid muammolar:**

- Faylasuflar, psixologlarning ayrimlari ruh va ta`nani birgalikda, deb qarasalar, ayrimlari ajralgan holda mavjud deb hisoblaydilar. Siz qaysi qarashni ma`qullaysiz? Ruh va tana birligi, ularning o'zaro bog'liqligi nimada?
- Turli ijtimoiy tuzumlarda ruh haqidagi ta`limotlar o'zgarib borgan.Ijtimoiy tuzum o'zgarishining ruh haqidagi ta`limotlarga qanday ta`siri bor? Fikringizni izoxlang.
- Sharq va G'arb allomalarining ruh haqidagi turli qarashlari mavjud. Sharq mutafakkirlarining ruhiyatga oid qarashlarining o'ziga xosligi nimada, moslik jihatlari-chi?

**1- savol bo'yicha dars maqsadi:**

1. Psixologiya predmetini ochib berish.
2. Psixologik ta`limotlar tarixiga asos solgan faylasuflar g'oyalarini ta`riflab berish.
3. Psixologik bilimlar taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlar ta`limotlarining mohiyatini ko'rsatish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Psixologik ta`limotlar tarixini so'zlab beradi.
2. Dastlabki psixologik ta`limotlar xarakterini ochadi.
3. Psixologik ta`limotlar mohiyatini va ularning psixologiya faniga qo'shgan hissasini izohlaydi.
4. Bixeviorizm ta`limotining mohiyatini tavsiflaydi.
5. Freydizmning psixologiya fanidagi o'rnini aniqlaydi.
6. Sharq falsafasidagi psixologik qarashlarni ajratadi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

Psixologiya o'rganadigan hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bir muncha qiyinroq. Bu hodisalarni tushunish ko'p jihatdan psixologiya fanini egallash zaruratiga duch kelgan odamlarning dunyoqarashiga bog'liqdir.

Ruhiy hodisalar "idrok", "xotira", "tafakkur", "iroda", "hissiyot" va boshqa shu kabi nomlar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda psixika, kishining psixik, ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ataladigan tushunchalarni hosil qiladi.

Psixika nima? -degan savolga javob berishdan oldin, eng avvalo, psixik hodisalarning mohiyati va xarakteri haqidagi tasavvurlar asrlar davomida qanday o'zgarib borganligiga, qisqacha bo'lsa-da, nazar tashlash shart.

**Psixologik ta`limotlar**:

Naturfaylasuflar-**Fales**(er.old. VII-VI asr), **Anaksimen** ( er.old. V asr), **Geraklit** (er.old. VI-V asr) ruhni olamning ibtidosini tashkil etuvchi narsa (suv, havo, olov)ning odamlar va hayvonlarga jon ato etuvchi shakli tarzida talqin qilishgan.

Faylasuflar orasida **Aflotun** (er.old. 427-347 y.y.) alohida ajralib turadi. U jonning qismlari to'g'risidagi tushunchani yaratdi. Shunday qismlardan a) aql-idrokni, b) jasoratni, v) orzu-istakni alohida ajratib ko'rsatadi va ularni tananing turli qismlari (bosh, ko'krak, qorin bo'shlig'i)ga joylashgan bo'ladi degan fikrni ilgari suradi.

**Arastu** (er. old.384-322 y.y.) ning ta`limoti ancha muvaffaqiyatli ilgarilab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy-ilmiy asosda qayta ko'rib, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi. Arastuning "Jon to'g'risida"gi asari psixologiyani bu davrga kelib o'ziga xos bilimlar sohasi sifatida ajralib chiqqanligidan dalolat beradi.

Eramizdan oldingi II asrda rumolik vrach **Galen** fiziologiya va tibbiyotning yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik negizi haqidagi tasavvurlarni boyitdi va ong haqidagi tushunchaga yaqinlashib keldi.

Eramizning III asrida **Ploton**, so'ngra esa IV-V asrlarda Avgustin ong haqidagi tushunchaga faqat idealistik tus berishgan edi. Barcha bilimlar ruhda mujassamlashgan, u esa o'ziga qaytish qobiliyatiga ega bo'lib, o'z xususiy faoliyatini va uning ko'z ilg'amaydigan mahsulini haddan ziyod aniqlik bilan egallaydi..

Niderlandiyalik materialist **Spinoza** ( 1632-1677) ham **Gobbs** kabi olamning bir butunligi to'g'risidagi g'oyaning astoydil himoyachisi edi. U ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira kam bo'lmagan real narsa deb hisoblardi. Uning shoh asari bo'lmish "Etika"ning teoremalaridan birida "g'oyalar tartibi va aloqasi qanday bo'lgan bo'lsa, narsalarning tartibi va aloqasi ham shunday dir" deyiladi.

Materialistlar **Gartli** (1705-1757) bosh bo'lgan ingliz, Didro (1713-1784) bosh bo'lgan fransuz, **A.Radishchev** (1748-1802) bosh bo'lgan rus materialistlari olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib olib, inson psixikasining ichki mazmuni asosida odamning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati yotadi, degan edilar.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Psixik hodisalar qanday hodisalar? Psixika nima? Nima uchun bu hodisani chuqur o'rganish taqozo etiladi?
2. Ilmiy psixologiya predmeti nimalardan iborat? Misollar bilan izohlang.

3. Psixologik qonuniyatlar nima? Psixik faoliyat mexanizmlarini qanday tushunasiz?
4. Animistik, dualistik, introspektsionistik qarashlar mohiyatini ajrating, namoyandalari kim?

**2-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi:**

1. Psixikaning reflektorlik tabiati, nerv sistemasining tuzilishi to'g'risida talabalarga tushuncha berish.
2. Miyaning ishidagi psixik va nerv-fiziologik xususiyatlar bilan tanishtirish.
3. Talabalarni mehnatsevarlik, vatanparvarlik, materialistik ruhda tarbiyalash.
4. Inson psixikasi va uning moddiy asosi bosh miyaning faoliyati mahsuli sifatida rivojlantirish.
5. Ong haqida tushuncha berish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Psixikaning reflektorlik tabiatini so'zlab beradi.
2. Miya va psixikaning bog'liqligini ko'rsatadi.
3. Nerv sistemasining tuzilishini izohlaydi.
4. Miyaning ishidagi xususiyatlarni biladi.
5. Ong tushunchasini ochib beradi.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Psixikaning reflektorlik xarakteri. I.M.Sechenov "Bosh miya reflekslari" (1863) asarida "ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir", degan xulosaga kelgan edi.

I .M.Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi g'oyasini ilgari surdi. Bu muhim nazariy qoidalar I.P.Pavlov (1849-1936) tomonidan tajriba yo'li bilan tasdiqlandi va konkretlashtirildi. U hayvonlarning, shuningdek, odamning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etgan edi. I.P.Pavlovning ushbu qonuniyatlarga nisbatan jami qarashlari odatda IKKI SIGNAL SISTEMASI HAQIDAGI TA`LIMOT deb ataladi.

Odamning psixik hayotida katta yarim sharlar qobig'i sirtining 30% ni egallaydigan peshona qismlari alohida rol o'ynaydi. Peshona qismlarining shikastlanishi xulq-atvorning oddiy formalariga emas, balki yuksak formalariga ta`sir ko'rsatadi. Ko'pgina klinik faktlar shuni ko'rsatadiki, miyaning peshona qismlari shikastlanishi aqliy qobiliyat doirasida, uning xarakterida ham qator buzilishlarga sababchi bo'ladi.

**nazorat uchun savollar:**

1. Psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi g'oyasini ilgari surgan olimlarni ayting.
2. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari nima va ularning bir-birlaridan farqini ko'rsating.
3. Nima uchun psixika miyaning xususiyati deyiladi? Fikrlaringizni asoslang. Retseptor nima? Neyronchi? U qanday xususiyatlarga ega? Sinapsning vazifasi nimadan iborat?
4. Nerv sistemasi markazlari necha qismdan iborat?
5. Hozirgi zamon fanida mavjud tasavvurlarga qaraganda orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatning asosan qanday shakllarini amalga oshiradi?
6. Elektroentsefalogramma nima? Tabiati va vazifasini ochib bering.
7. Ong haqida tushuncha bering.

**3-asosiy savol:**

Hozirgi zamon psixologiyasining ahvoli, tuzilishi va metodlari.

**Dars maqsadi.**

1. Mavzuga oid tushunchalarni shakllantirish;
2. Hozirgi zamon psixologiyasi metodlarini sharhlab berish;
3. Barkamol insonlarni tarbiyalash

**Identiv o’quv maqsadlari:**

1. Hozirgi zamon psixologiyasi va uning fanlar sistemasidagi o’rnini ochib beradi.
2. Hozirgi zamon psixologiyasining printsiplari va tuzilishini izohlaydi.
3. Hozirgi zamon psixologiyasida tadqiqot metodlarini ko’rsatadi.
4. Hozirgi zamon psixologiyasini tarmoqlarga ajratishda qaysi jihatlar asos qilib olingan, ularni birma-bir aytadi va misollar keltiradi.
5. Psixologiya va fan-texnika taraqqiyotining uzviy bog’liqligi mohiyatini ochib beradi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Psixologiya inson shaxsini va kishilar o’rtasidagi munosabatlarni bilishning faqat umumiy nazariya muammolarini emas, balki konkret masalalarini ishlab chiqishga to’g’ri falsafiy yondashuvning ahamiyatini aniq belgilab beradigan fanlar qatoriga kiradi. U bir jihati bilan tabiiy fanlar (zoopsixologiya, psixofiziologiya va b.) sohasini o’z ichiga olsa, bir jihati bilan ijtimoiy fanlar (sotsialpsixologiya, pedagogik psixologiya va b.) sohasiga kirib boradi. XX asrda psixologiya idealistik va metafizik falsafadan ajralib chiqdi. Psixologiyaning tabiatshunoslik bilan tobora mustahkamlanayotgan ittifoqi uning mustaqil fanga aylanishiga yordam berdi. Bu jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan edi. Eksperiment metodining psixologiyaga joriy etilganligi (G.Fexner), I.M.Sechenovning "Bosh miya reflekslari" kitobining chiqqanligidan keyin ayniqsa keng tus olgan edi. Sechenovning reflektorlik nazariyasi psixologik bilimlarni tabiiy-ilmiy negizini tashkil etdi.

Bixeviorizm-psixologiyada dastavval AQSHda hayvonlarda o’tkazilgan kuzatishlarning (E.Torndayk, D.Uotson va b.) natijasi sifatida paydo bo’lgan yo’nalishdir. Bixeviorizm negizida psixologik tadqiqot predmeti sifatida psixikaning va ongni inkor etish yotadi. Faqat xulq-atvorgina tadqiqot predmeti deb tan olinar, psixologiyaga esa xulq-atvor va muhitning o’zaro nisbati qonuniyatlarini tadqiq etish tavsiya qilinar edi.

XX asr G’arb psixologiyasining yana bir yo’nalishi psixoanalizdir. U ko’pincha avstriyalik psixiatr va psixolog Z.Freydning nomi bilan freydizm deb ham yuritiladi. Freydizm nuqtai nazaridan olganda, odam amalda ijtimoiy hodisa emas. Kishi xulq-atvori ikkita printsipga: "huzur-halovat printsipi"ga bo’ysundiriladi. Bu printsiplar to’qnashuvi natijasida anglanilmagan sohaga "qondirilmagan mayllar" ajralib chiqadi va ular odam xulq-atvorining shu erida ifoda qilib turadi.

Determinizm printsipi - psixikaning turmush tarzi o’zgarishiga qarab o’zgarishini anglatadi. Ong va faoliyat birligining psixologiyada qabul qilingan printsipi ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, lekin ular bir-biriga aynan o’xshash ham emas, ammo birlikni tashkil etishini bildiradi.

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi printsipi shuni anglatadiki, psixika agar faoliyat samarasi va rivojlanish mahsuli sifatida qaraladigan bo’lsagina, u to’g’ri tushunilishi va aynan bir xil tarzda izohlab berilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ta`lim psixikaning rivojlanishini yo’naltiradi degan fikrni aytib, shu bilan birga bu jarayonda ongli faoliyatning yangi, mutlaqo boshqacha shakllari yaratiladi deb ta`kidlaydi

**Nazorat uchun savollar:**

1. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishiga qaysi fanlar salmoqli hissa qo’shdi?
2. Psixologiya va pedagogika o’rtasidagi bog’liqlik va psixologiyaning fanlar sistemasidagi o’rni qanday?
3. Hozirgi zamon ilmiy psixologiyasining asosiy printsiplarini sanab bering, ularning mohiyatini ochib bering.
5.Hozirgi zamon psixologiyasining qanday asosiy metodlari bor, har birini izohlang va ularga quyiladigan talabalarni bayon qiling.
6. Bosh miyaning funktsional assimmetriyasi nima va uning inson psixikasidagi o’rni nimada, deb xisoblaysiz?
7. Hozirgi zamon psixologiyasi tuzilishi qanday?

**Mavzu bo’yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1. Olamni ibtidosini tashkil etuvchi asosni o’rganish.
2. Ruhning jismga o’zaro ta`siri va bog’liqligini dalillash.
3. Miya va ruhiyatning o’zaro bog’liqligini tadqiq etish.
4. Ruhiy xususiyatlarni o’rganish sohalarini aniqlash.

**Mavzu bo’yicha asosiy xulosalar:**

1. Psixologiya o’rganadigan hodisalarning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash bir muncha qiyinroq. Bu hodisalarni tushunish ko’p jihatdan psixologiya fanini egallash zaruratiga duch kelgan odamlarning dunyoqarashiga bog’liqdir.

2. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi printsipi shuni anglatadiki, psixika agar faoliyat samarasi va rivojlanish mahsuli sifatida qaraladigan bo’lsagina, u to’g’ri tushunilishi va aynan bir xil tarzda izohlab berilishi mumkin.

3. Psixologiya inson shaxsini va kishilar o’rtasidagi munosabatlarni bilishning faqat umumiy nazariya muammolarini emas, balki konkret masalalarini ishlab chiqishga to’g’ri falsafiy yondashuvning ahamiyatini aniq belgilab beradigan fanlar qatoriga kiradi.

## 2-mavzu. PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MASALASI.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**

1. Psixologiyada shaxs tushunchasi
2. Shaxsning tuzilishi
3. Shaxsning faolligi va yo’nalganligi
4. Shaxsning o’zini anglab etishi
5. Shaxsning shakllanishi

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Shaxs, individ, individuallik, biologik omil, ijtimoiy omil, endopsixika, ekzopsixika, interindivid, shaxsning yo’nalganligi-qiziqish, e`tiqod, dunyoqarash, yo’l-yuriqlar, "Men" siymosi, o’ziga-o’zi baho berish, psixologik muhofaza, biogenetik kontseptsiya, sotsiogenetik kontseptsiya.

**Mavzuga oid muammolar :**

-Chaqaloqni individ, deb atash mumkinmi?
-Inson jamoadan ajralgan holda shaxs bo’lishi mumkinmi?
-Dunyoqarashning shakllanishida voqe`likka bo’lgan munosabatlarning o’rni nimada?
-Shaxsning tuzilishidagi biologik va ijtimoiy omillarni farqlash mumkinmi, agar mumkin bo’lsa fikrlaringizni asoslang.
-Sizningcha shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi nima?
-Shaxs bajarayotgan amallarni e`tiqod deb atash mumkinmi?
-Shaxsning mavqe` egallashi dunyoqarashi bilan belgilanishi mumkinmi?
-Shaxs «Men» ining kashf etilishi qanday omillarga bog’liq deb o’ylaysiz?
-O’z-o’ziga baho berish mezonlari mavjudmi? O’z-o’zini anglab etish .
-Shaxsning psixologik muhofazasi deganda nimani tushunasiz?
intilishlar darajasini ko’rsatish mumkinmi?

**1-asosiy savol.** Psixologiyada shaxs tushunchasi.

**Dars maqsadi**:

1. Talabalarga individ, shaxs va individuallik tushunchalarining mohiyatini ochib berish, ularning bog'liqligi, tafovutlarini ko'rsatish
2. Talabalarda bu tushunchalarni farqlash va ularni rivojlantirishga oid tushunchalarni shakllantirish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**
1. Individ va shaxsga ta`rif beradi .
2. "Shaxs - individlararo munosabatlar sub`ektidir" jumlasining ilmiy moxiyatini aniqlaydi.
3. Shaxs va individuallik tushunchalarining birligi va tafovvutlarini ajratadi.

**1-asosiy savol bayoni:**

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ, shaxs, individuallik tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarini o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individ deb aytiladi. Biroq, bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an`ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta`sirida keyinchalik shaxsga aylanadi.Ilk bolalik chog'idayoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov, ijtimoiy guruh ichida odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har-xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Odam jamiyatda turli guruhlar faoliyatiga qatnashar ekan ,ko'-pincha ular har xil vazifani bajaradi, o'zaro hech bir o'xshamagan rollarni ijro etadi. Masalan,ota-onaning, oilaning "egovi", injiq, "zo'ravon" bola o'z tengqurlari davrasida ehtiyotkorona harakat qilib, o'zini tamoman boshqacha tutadi. Shuningdek,jiddiy, talabchan va xizmat vaqtida boshqalarga qo'shilmaydigan sayohat davrida, mehnat faoliyatida, hashar va hamkorlikda, ulfatchilikda hazilkash va qiziqchiga aylanishi mumkin. Yuqorida keltirilgan misollarda bitta odamning o'zi turli vaziyatlarda mazmun jihatdan bir-biriga qarama-qarshi rollarni bajaradi. Aksariyat hollarda odam turli-tuman vaziyatlarga, sharoitlarga mos, ularga mutanosib bo'lgan jihatlarni namoyon qiladi, uning oilada, xizmat vazifasida, jamoatchilik orasida, sport musobaqasida va shu singarilarda o'z zimmasiga olgan rollarni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o'zaro hamohang tarzda o'ynaydi. Ana shu inson fazilatlari, hislatlar, sifatlarining bir-biriga mosligi shaxsning yaxlitligini ko'rsatuvchi alomatlaridan biri bo'lib, undagi qarama-qarshilik, ziddiyat va shakllanib ulgurmagan xususiyatlarning ko'rsatkichi uning turli vaziyatlarda bajariladigan rollarni o'zaro bir-biriga zidligi yoki nomutanosibligi hisoblanadi.

**Muhokama uchun savollar:**
1. Individ va shaxsga ta`rif bering. Birligi, tafovutlarini ajrating.
2. Ob`ektiv dunyoni biluvchi, uni o'zining ehtiyoji va qiziqishlariga moslab o'zgartiruvchi odam: ongli mavjudotga ajrating(analiz), uning mohiyatini oching(tushunish).
3. Har bir tirik mavjudotning uni shu turdagi boshqa mavjudotlardan farqlantiruvchi xususiyatlari yig'indisi qanday nomlanadi? Buning sabablari nimada? Misollar bilan asoslang(baholash).
4. Muayyan ijtimoiy tuzumning a`zosi hisoblangan ongli mavjudotni ko'rsating.Quyidagi tushunchalarni taqqoslang.
5.Nima uchun barcha odamlarni shaxs deya olmaymiz, uning individdan asosiy farq qiluvchi belgisi nimada? Fikrlaringizni misollar bilan izohlang.

**2-asosiy savol: SHaxsning tuzilishi.**

**Dars maqsadi:**

- Talabalarga individuallik va shaxs tuzilishi o’rtasida bog’liqlik, shaxsning tuzilishidagi biologik va ijtimoiy omillarga oid bilimlar berish, shaxs tuzilishining 3 tarkibiy qismini ko’rsatish.

-Talabalarda berilgan ma`lumotlarni o’zlashtirish malakalarini shakllantirish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**

1. Individuallik bilan shaxsning tuzilishi o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik mohiyatini ko’rsatadi.
2. Shaxsning tuzilishidagi biologik va ijtimoiy omillarni farqlaydi.
3. Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismini tasniflaydi.

**2-asosiy savol bayoni:**

"Shaxs" va "individuallik" tushunchalari qanchalik darajada birlikdan iborat bo’lganiga qarmay, bir-biriga mos kelmasligining o’zi ham shaxsning tuzilishini kishining individual-psixologik hislatlari va fazilatlaridan tarkib topadigan allaqanday shakl sifatida tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi.

Inson shaxsi tuzilishida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning o’zaro nisbati masalasi munozaralari masalalardan biridir. Ayrim psixologlar tomonidan shaxsda ikkita omil - biologik va ijtimoiy omillar ta`siri ostida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura borligi ta`kidlanadi.

Shaxs o’zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruhlar bilan haqiqiy munosabatlar sistemasida sub`ekt bo’lib,individning organik gavdasi ichidagi allaqanday yopiq bo’shliqdagina joylashgan bo’lishi mumkin emas, balki u o’zini individlararo munosabatlar bo’shlig’ida namoyon qiladi. SHuning uchun shaxs tuzilishining ta`riflaridan birini shaxsning intraindivid kichik sistemasini tashkil etiladigan individning organik tarzdagi gavdasidan tashqaridagi «bo’shliq»dan qidirish kerak.

Intraindivid va interindivid kichik sistemalari shaxsning o’zini namoyon qilishning barcha jihatlarini aks ettira olmaydi. Shaxsni tuzilishini tarkib toptiradigan uchinchi qismni - metaindivid (individning ustki ko’rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko’rsatish mumkindir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan "shu erda va endilikda" mavjud bo’lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi.

Sub`ektning o’zligini boshqa individda davom ettirishdan, boshqa kishilarga o’tkazilgan "jamg’armalar" hisobiga o’zining shaxs sifatida boshqalar "ko’ngildagidek" o’rnashib qolishni ta`minlashdan iborat bo’lgan jarayon personalizatsiya degan nom olgan.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Organizmning hayotini ta`minlovchi zarur sharoitlarni aks ettirishdan iborat faoliyat motivini ajrating, uni tasniflang.
2. Odamning o’zini shaxs sifatida tanishi, o’zining jismoniy hamda aqliy qobiliyatlarini, xatti-harakatlari va ularning motivlarini, atrofdagi borliqqa, o’z-o’ziga bo’lgan munosabatlarini tushunish nima? Ajrating. Vujudga kelish sabablarini asoslang.
3. Psixik rivojlanishning harakatga keltiruvchi asosiy kuchni ko’rsating va asoslang (baholash).
4. Shaxsning har tomonlama (barkamol) rivojlanganligini birinchi navbatda nima belgilaydi? Ajratib ko’rsating. Fikrlar to’g’riligini isbotlang.
5. Amalga oshirilishi shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilishlar, xatti-harakatlar va dunyoqarash tizimini ko’rsating hamda inson hayotidagi ahamiyatini tushuntiring.
6. Inson shaxsining tarkib topishi quyidagi omillarning qaysilariga bog’liq va nima uchun? Asoslang.
7. Shaxs tuzilishini (struktura) sxematik ravishda ifodalang va ularning o’zaro bog’liqligini ko’rsating, analiz, sintez qiling, umumlashtiring.

**3-asosiy savol: Shaxsning faolligi va yo’naltirilganligi.**

**Dars maqsadi:**

1. Talabalarga shaxs faolligi va yo’naltirilganligiga oid bilimlar berish.

2. Ularda siyosiy-g'oyaviy yo'nalishlarni shakllantirish, fanga, tabiatga qiziqishlarini oshirish, e`tiqod va dunyoqarashlarini rivojlantirish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**
1. Shaxsning faolligi va uning hayotiy pozitsiyasini tushuntiradi.
2. Shaxsning yo'naltirilganligi va qiziqishlari farqlaydi.
3. Shaxsning e`tiqodi va dunyoqarashi, ularning inson hayotidagi roli va o'rnini tasniflaydi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Agar biz kishi nima uchun faollashib qolayotgani haqidagi masalani hal etayotib,nimagadir yoki kimgadir zarurat mavjudligi holatini ifodalaydigan ehtiyojning faollikka olib boradigan mohiyatini taxlil qilar ekanmiz, u holda bunday faollik nimalar evaziga yuz berishini aniqlash uchun uning yo'nalishi nima bilan belgilanishini,bu faollik qayoqqa va nimaga qaratilganligini tahlil qilib chiqamiz. SHaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmui kishi shaxsining yo'naltirilganligi deb ataladi.

Qiziqish - biron bir sohada to'g'ri mo'ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqe`likni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir Shaxsning yo'naltirilganligini ifodalaydigan qiziqishning qondirilishi odamda uning so'nishiga olib kelmaydi, aksincha, uni qayta ko'rgan, boyitgan va chuqurlashtirgan holda bilish faoliyatining yanada yuksak darajasiga mos keladigan yangi qiziqishlarni keltirib chiqaradi. Qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning ko'ngildagidek rivojlanishi qiziqishlar miqyosining tor emas, keng bo'lishini taqozo etadi.

Xulq-atvorning muhim motivlaridan biri-e`tiqoddir. E`tiqod-shaxsni o'z qarashlariga, printsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da`vat etadigan motivlar sistemasidir.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Shaxs faolligi, umuman faollik deganda nimani tushunasiz? Faollikka psixologik ta`rif bering va faollikka undovchi motivlarni ko'rsating. Mohiyatini ochib bering. (tushunish)

2. Shaxs faolligini Z.Freyd konseptsiyasi bo'yicha sharhlang. O'z fikrlaringizni bildiring.

3. Shaxsning yo'naltirilganligiga ta`rif bering va mohiyatini ochib bering. Anglangan va anglanilmagan motivlarga misollar keltiring. Frustratsiya nima ekanligini izohlang.

4. E`tiqod nima? Shaxsning yo'l-yo'riqlari-chi? Bu tushunchalarga psixologik xarakteristika bering, mazmun-mohiyatini ochib bering. Yo'l-yo'riqlar tuzilishing uch tarkibiy qismini bayon eting.

5. Shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqe`likni o'zgartirishga qaratilgan muhim qobiliyati nima va uning inson hayotidagi rolini ko'rsating.

6. Shaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmuini ko'rsating.

7. Shaxsning o'z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashlariga muvofiq tarzda ish ko'rishga da`vat etuvchi motivlar sistemasini ko'rsating

**4-asosiy savol: SHaxsning o'zini anglab etishi.**

**Dars maqsadi:**
1) Shaxsning o'zini anglab etishi, o'z "men"ligi va "Men"ning siymosi, o'z-o'ziga baho berish, anglash, psixologik muhofazaga oid bilimlar berish, tushunchalar hosil qilish.
2) Talabalarda o'z xatti-harakatlariga to'g'ri baho berishni tarbiyalash.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. "Men" ning kashf etilishi va "Men"ning siymosini izohlab beradi.
2. O’z-o’ziga baho berish va uning shaxsni o’zini-o’zi anglab etishning shakllanishidagi roli, intilishlar darajasini ko’rsatadi.
3.SHaxsning psixologik muhofazasini tasniflaydi.
4.SHaxsiy hayot tajribangizdan kelib chiqib,o’z-o’zini anglashni dalillaydi.

**4-Asosiy savol bayoni:**

Kishi o’z mohiyatiga ko’ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar sistemasiga kirgan, odamlar bilan o’zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo’lgan holda o’zini atrof-muhitdan alohida ajratib ko’rsatadi, o’zining jismoniy va psixik holati, harakatlari va jarayonlarning sub`ekti sifatida his etadi, o’zi uchun "boshqalarga" qarshi turgan va ayni chog’da ular bilan uzviy bog’liq bo’lgan "MEN" sifatida namoyon bo’ladi.

I.S.Kon "Men"ning kashf etilishi" deb juda o’rinli atagan shakllanish jarayonining natijasi hisoblanadi. Bu jarayon bola tug’ilganidan to o’spirinlik, yoshlik davrigacha davom etadi. O’spirinlik va yoshlik davrlarida ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatiga faol qo’shilib ketish natijasida o’ziga ijtimoiy-axloqiy jihatdan baho berishning kengaytirilgan sistemasi shakllana boshlaydi, o’zini anglab etishi tugallanadi va "Men"ning siymosi asosan tarkib topadi.

O’ziga-o’zi baho berish shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas bog’liqdir. Intilishlarning darajasi shaxs o’ziga o’zi beradigan bahoning individ o’z oldiga qo’yadigan maqsadlarning qiyinchiliklari darajasida namoyon bo’ladigan kutilgan darajasi ("Men" siymolarining darajasi) dir.

SHaxsning psixologik muxofazasi. Shaxsning o’zini anglashi o’ziga o’zi baho berishi mexanizmini qo’llagan holda xususiy intilishlar va real yutuqlari o’rtasidagi o’zaro nisbatni aniq qayd etadi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Sub`ektiv ravishda xususiy "Men"ning mavjudligini his qilish nimada ifodalanadi?
2. O’spirinlik va yoshlik davrida ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatiga faol qo’shilib ketish natijasida o’ziga ijtimoiy-ahloqiy jihatdan baxo berishning kengaytirilgan sistemasi shakllana boshlaydi, o’zini anglab etish tugullanadi degan fikrga qanday qaraysiz? Nega bu vaqtda "Men"ning siymosi asosan tarkib topadi deyiladi? Tahlil qiling.
3. "Men"ning siymosiga ta`rif bering, uning mohiyatini ochib bering.
4. "Men"ning siymosi uchta komponentni o’z ichiga oladi. Ular qaysilar? Sanab bering, farqlang.
5. O’z-o’ziga baho berish nima va u qanday paydo bo’ladi?
6. Qanday hollarda kishida tajovuzkorlik belgilari namoyon bo’ladi.

**5-Asosiy savol: Saxsning shakllanishi**

**Dars maqsadi:**

1) Talabalarga shaxsning shakllanishida psixologik va pedagogik yondoshuvlarni ochib berish, biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalar mohiyatini tushuntirish, shaxs shakllanishida tarbiyaning ahamiyatini ko’rsating.
2) Talabalarda barkamol shaxslar bo’lib shakllanishida o’z ehtiyojlarini rivojlantirish, tarbiyalash muhimligini tushunishni tarbiyalash.

**Identiv o’quv maqsadlari:**

1. SHaxsning shakllanishi tushunchasini ochib beradi.
2. SHaxsning shakllanishida psixologik va pedagogik yondoshuv mohiyatini tushuntiradi.
3. Biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalar, konvergentsiya, ziddiyatlarni shaxsning shakllanishidagi o’rnini aniqlaydi.

4. Ehtiyojlarni qondirish  ahamiyatini ochib beradi.
5. Shaxsning shakllanishida tarbiyaning rolini ko'rsatadi.

**5-Asosiy savol bayoni:**

SHaxs kishining konkret-tarixiy hayot kechirish sharoitlarida, faoliyat (mehnat qilish, o'qish va xokazolar) jarayonida shakllanadi. SHaxsning shakllanishi jarayonlarida guruhlarda va jamoalarda amalga oshiriladigan ta`lim va tarbiya etakchi rol o'ynaydi."SHaxsning shakllanishi" tushunchasi ikki xil ma`noda qo'llaniladi.

1) shaxsning shakllanishi uning rivojlanishi, ana shu rivojlanish jarayoni va uning natijasi ekanligidir. Shu ma`nodagi shaxsni shakllantirish tushunchasi psixologik tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Uning vazifasi  biror maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta`sirlar o'tkazish sharoitida rivojlanayotgan shaxsda nimalar mavjudligini (mavjud bo'lgan, tajriba yo'li bilan aniqlanadigan, namoyon bo'ladigan) va nimalar bo'lishi mumkinligini aniqlashdan iboratdir. Bu shaxsning shakllanishiga nisbatan xususan, psixologik yondoshuv hisoblanadi.

2) Shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalash sifatidagi shakllantirish (agar shunday deb aytish mumkin bo'lsa "qolipga solish","yasash","tuzash"; Makarenko buni "shaxsni loyihalash" degan.) dan iborat. Xususan bu shaxsni shakllantirish vazifalari va usullarini ajratib olishga pedagogik yondashuvdir. Pedagogik yondashuv shaxsning jamiyat unga qo'yayotgan ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan talablarga javob beradigan bo'lishi uchun unda nimalar va qanday qilib shakllantirilishi kerakligini aniqlash zarur deb hisoblaydi.

Biogenetik konseptsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan, nasliy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi.   Sotsiogenetik kontseptsiya shaxsni tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhitning bevosita ta`siri natijasi deb, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi.

**Nazorat savollari:**

1.Psixikaningreflektorligi va faoliyatning psixik jixatdan boshqarilishi  g'oyasini ilgari surgan olimni ko'rsating.
2.Birinchi va ikkinchi signal sistemalari nima va ularning bir birlaridan farqini ko'rsating, ahamiyatini ochib bering.
3. Nima uchun psixika miyaning xususiyati deyiladi? Fikringizni asoslang.
4. Retseptor nima?Neyronlarchi? U qanday xususiyatlarga ega?
5.  Sinapsning vazifasi nimadan iborat?
6.  Nerv sistemasi necha qismdan iborat?
7.  Psixik hodisalar qanday xodisalar?
8. Ilmiy psixologiya predmeti nimalardan iborat?
9. Psixologik ta`limotlar tarixini ochib bering?
10. Ong haqida tushincha bering.
11. Psixologiyaning fan sifatida tarkib topishida qaysi fanlar salmoqli hissa   qo'shdi?
12. Hozirgi zamon psixologiyasining metodologik asosini aniqlang.
13.Tropizm nima va uning turlarini aniqlang.
14.Organik materiya aks ettirish shakllarini ko'rsating
A.Mexanik, biologik, psixologik.
B.Mexanik, ximik, psixologik.
S.Fizik, biologik, ximik.
E.Mexanik,fizik, ximik.
15.Instinkt va uning nerv fiziologik asosini kim tushintirib bergan?
A. K.Frish. CH.Darvin.
V. A.V.Valler. I.P.Pavlov.
S. J.Fabr. K.Frish.
D. CHdarvin. I.P.Pavlov.

16. Seskanuvchanlik bilan sezuvchanlik o'rtasidagi umumiylik vafarqlar imada?
17. Nerv taraqqiyoti bilan psixik aks ettirishlar orasidagi bog'lanishlarni nazarda tutib sistemalashtiring va taqqoslang.
18. Evolyutsiya jarayonida nerv sistemasi,psixikasi va xulq shakllarida rivojlanish munosabatini aniqlang.
19. Hayvon va odam psixikasi o'rtasidagi asosiy farqlarni yozing va sababini tushuntiring.
20.Hayvonlarda ong bormi?Nima uchun hayvonlarga nisbatan intelekt tushunchasi ishlatiladi? Fikringizni asoslang.
21. Nima uchun ong ijtimoiy munosabatlar mahsuli ham deyiladi? Asoslang.
22. Odam yoki hayvonlarning yangi qo'zg'ovchisiga yoki atrofdagi muxitning ma`lum bir o'zgarishlariga nisbatan qaytaradigan reaktsiyasi..

A. Shartli refleks.
V. Shartsiz refleks.
S. Orientirovka refleks.
D. Tug'ma refleks.
E. Instinktiv.

**23**. Shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zgartirishga qaratilgan muhim xususiyati nima?
A.Faollik. S.Ehtiyoj.
V.Faoliyat. D.Malaka. E.Ko'nikma.
24.Organizmning hayotini ta`minlovchi zarur sharoitlarni aks ettirishdan iborat faoliyat motivini ko'rsating.
A. Ehtiyoj. S. Istedod.
V. Extiros D. Qiziqish. E. Motiv.
25.Kishining anglangan maqsadi bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligi nimaligiri ajratib ko'rsating, mohiyatini ochib asosiy belgilarini ayting
A. Faollik. S. Ehtiyoj.
V. Faoliyat. D. Malaka. E. Ko'nikma.
26 Ehtiyojlarni ta`riflang:
Predmetiga ko'ra------------
Kelib chiqishiga ko'ra----------
Sistematik tarzda ifodalang,har biriga misollar keltiring.
27. Shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zgartirishga qaratilgan muhim xususiyati nima?
A. Faollik. S. Ehtiyoj.
V. Faoliyat. D. Malaka. E. Ko'nikma.
28.Organizmning hayotini ta`minlovchi zarur sharoitlarni aks ettirishdan iborat faoliyat motivini ko'rsating.
A. Ehtiyoj. S. Istedod.
V. Ehtiros. D. Qiziqish. E. Motiv.
29.Kishining anglangan maqsadi bilan boshqarib turiladigan ichki(psixik) va tashqi (jismoniy) faolligi nimaligini ajratib ko'rsating,mohiyatini ochib,asosiy belgilarini ayting.
A.Faollik. V.Faoliyat. S.Ehtiyoj. D.Malaka. E.Ko'nikma.
30.Diqqat deb:
A. Narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.
B.Narsa va hodisalarning ongimizda yaxlit aks ettirilishiga aytiladi.
V.Ongimizni bir nuqtaga to'plab ma`lum ob`ektga yo'naltirishga aytiladi.
G. Narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlarimizning aks ettirilishiga aytiladi.
31.Diqqat turlarini tasniflang.

32.Nima uchun diqqat»ruhiyatimizning yagona eshigi» deyiladi?
34.O’quv jarayonida diqqat xususiyatlariga qo’yiladigan talablarni sharhlang.
35.Extiyojlarni kelib chiqishiga ko’ra ta`rifini keltiring.
36.Diqqatning xususiyatlarini ajrating.
37.Diqqatning nerv fiziologik asoslarini ajrating.
A.Bosh miya po’stlog’ining oldingi qismiga bog’liq.
B.Bosh miya po’stlog’idagi ayrim markazlar qo’zg’olishi bilan bog’liq.
V.Bosh miya po’stlog’ida kuchli qo’zg’olish o’chog’ining vujudga kelishi bilan bog’liq.
G.Vegetativ nerv sistemasining o’zi bilan bog’liq.
38.Diqqat nerv fiziologik asosini tushunib etishda qaysi olimlarning ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega ekanligini ayting.
A. P.K.Anoxin,I.P.Pavlov.
B. I.Pavlov, N.F.Dobrinin.
V. B.T.Teplov, N.F.Dobrinin.
G. I.P.Pavlov, A.A.Uxtomskiy.
9.Bu nima refleksini Pavlov qanday ta`riflagan.
39.Diqqat nerv fiziologik asosini markaziy nerv sistemasining qaysi qismi boshqaradi?
A.Ensa qism.
B.Chakka qism.
V.Yarim sharlar
G.Miya po’sti va miyacha.

**Mavzu bo’yicha asosiy xulosalar:**
**1.** Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ, shaxs, individuallik tushunchalari orqali aks ettiriladi.
**2.** Shaxs o’zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruhlar bilan haqiqiy munosabatlar sistemasida sub`ekt bo’lib,individning organik gavdasi ichidagi allaqanday yopiq bo’shliqdagina joylashgan bo’lishi mumkin emas, balki u o’zini individlararo munosabatlar bo’shlig’ida namoyon qiladi.
**3.** Shaxsning ko’ngildagidek rivojlanishi qiziqishlar miqyosining tor emas, keng bo’lishini taqozo etadi.

**Tavsiya qilingan adabiyotlar:**
**Asosiy adabiyotlar:**
1. A.V.Petorvskiy, Umumiy psixologiya T., 1992.
2. V. M.Gomezo, Psixologiya kursi T., 1972.
3. V.A.Karimova, Psixologiya. TDMU. T., 2000.
4. M.Rogov M. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa. Moskva-2000
5.K.Daminov.Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg’ulotlari.Toshkent. O’qituvchi.1994y.19-bet.
**Qo’shimcha adabiyotlar:**
1.S.V.Kovalyov. Podgotovka starsheklassnikov k semeynoy jizni. Moskva Prosveshenie. 1991g.
2. Sh.Umonova R.Shodieva Umumiy Psixologiya, GDU ma`ruza matnlari to’plami G-2004

## 3 – MAVZU: ShAXSNING IJTIMOIY BORLIQNI BILIShI

Ajratilgan vaqt: 4 soat.

**Asosiy savollar:**
1. Bilish mezonlari va uning adekvatligie
2. Sezgilar. Ularning qonuniyatlari
3. Idrok. Uning o`ziga xos xususiyatlari

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
Muomala, munosabat, kommunikativ, interoaktiv, pertseptiv, pedagogik munosabat, attaraktsiya, nutq mexanizmi.

**Mavzuga oid muammolar:**
-Sizningcha, muomala samaradorligini ta`minlovchi ijtimoiy-psixologik omillar nimada?
-Muomalada muloqat maromiga amal qilish zarurmi? Zarur bo'lsa, bunday maromlarni ko'rsating.
-Inson faolligi uning muomala munosabatlarida ifodalanishi mumkinmi?
-Nutqsiz muloqot bo'lishi mumkinmi? Agar bo'lsa, izohlang.
-Vo'godskiyning «Inson o'zi yolg'iz qolganda ham muloqot funktsiyasi saqlanadi» degan fikrini «individning o'z-o'zi bilan muloqoti»- deb atash mumkinmi?
-Muloqatning 1)bog'lovchilik, 2)shakllantiruvchi, 3)qo'llab-quvvatlovchi, 4) shaxslararo va 5) ichki nutq funktsiyalari bor. Bu funktsiyalarni bajarilmasligi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
-Kommunikativ bar`er nima? Izohlang.
-Munosabat shaxslarning birgalikdagi faoliyati natijasi deb atash mumkinmi?
-Shaxs bir vaqtning o'zida bir qancha ijtimoiy rollarni bajarishi mumkinmi? Fikrlaringizni asoslang.
-Sizningcha, yuqori antipatiya holati ham ijobiy munosabatni hosil qilishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, izohlang.
-Shaxslararo munosabatlarda attraktsiyalar kerakmi? Ularning o'rni nimada?
-Sizningcha, munosabat va muloqot individni shaxs sifatida shakllanishida, ijtimoiy rollarni belgilanishida ahamiyatga egami? Fikrlaringizni dalillang.

**1- savol bo'yicha darsning maqsadi**:
Muomala xususiyatlarining psixologik asosini ochib berish. Muomala madaniyatini singdirish.

**Identiv o'quv maqsadi.**
1. Muomalaning ko'p qirraligini ko'rsatadi.
2. Munosabat va faoliyatning birligini asoslaydi.
3. Muomalada muloqot ma`romini aniqlaydi.
4. Muomala vositasini izohlaydi.
5. Muomala turlarini tasniflaydi.

**1-savol bayoni:**
1.Muomala haqida tushuncha:
Muomala uchun birinchi navbatda munosabat kerakligini ulug' sharq allomalari va g'arb mutafakkirlari vaqtida aytganlar. Masalan, maktab sharoitidan olsak o'qituvchi o'quvchilarga biron-bir narsani o'rgata olishi uchun ular bilan munosabatga kirishi shart.
Munosabat nima?
Munosabatning birinchi jihati.
Munosabat-odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayondir. Odamlar munosabatga kirisharkan, munosabatning eng muhim vositalaridan biri sifatidagi tilga murojaat qiladilar va kommunikativ jarayon yaralib qoladi.
Munosabatning ikkinchi jihati:
Munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati-nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar, mimikalar olishlarini taqozo qilishidir Shunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda uchta jihatni - kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va pertseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarini alohida ko'rsatish mumkin, Ana shu uchta jihatining birligi holida o'rganilayotgan munosabat birgalikdagi faoliyati va unga jalb etilgan odamlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqdi, Munosabat qonuniyatlarini bilish hamda munosabat o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish pedagog uchun ayniqsa muhimdir Pedagogik munosabat - pedagog va ta`lim, tarbiya olayotganlarning o'zaro birgalikdagi harakati usullari sistemasidir. Pedagogik munosabat deganda pedagog va o'quvchilar kollektivi o'rtasida

o’zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborat ayirboshlashdan, o’quv-tarbiyaviy ta`sir ko’rsatish va o’zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat sistemasi,usullari va malakalari tushuniladi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Odamlar o’rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog’lanishlar rivojlanishining ko’p qirrali jarayonini ko’rsating.
2. Munosabatning quyidagi uchta jihatini ko’rsating, nomlang va ular mohiyatini ochib bering.
3. Pedagog va o’quvchilar jamoasi o’rtasida o’zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayriboshlashdan o’quv-tarbiyaviy ta`sir ko’rsatish va o’zaro hamjihatlilikni tashkil etishdan iborat sistemasi usullari va malakalari qanday nomlanadi?
4. Munosabat va faoliyatining birligi nimadan namoyon bo’ladi?
5. Muomala turlarini tasniflang. Ularning har biriga misollar keltiring. Inson hayot faoliyatidagi ahamiyatini ayting.
6. Muomala vositasi nima? Unga bog’liq ravishda xalq maqol va topishmoqlaridan namunalar keltiring.

**2-asosiy savol: Sezgilarning umumiy qonuniyatlari.**

**Dars maqsadi:**

1. Talabalarga sezgilarning xususiyatlariga oid tushunchalar berish;
2. Talabalarda sezgilarning umumiy xususiyatlarini rivojlantirish, O’quv malakalarini shakllantirish;

**Identiv o’quv maqsadlari:**

1. Sezgilarning umumiy xususiyatlarini aytadi.
2. Sezgining latent davri mohiyatini ochib beradi.
3. Syozuvchanlik chegaralarini ta`riflaydi.
4. Absolyut va farq ajratish chegarasini amalda bajaradi va natijani hisoblab xulosa chiqaradi.
5. Adaptatsiyaga ta`rif beradi, turlarga ajratadi, taqqoslaydi.

**2-asosiy savol bayoni:**

Sezgilarning umumiy xususiyatlari. Sezgilar - aynan bir xil qo’zg’atuvchilarning aks ettirish shakllaridan iboratdir. Jumladan, elektr magnitlari nurlanishini ko’rish sezgisining qo’zg’atuvchisi hisoblanadi. Bu nurlanish to’lqini uzunligi 380dan 770 mmk doirasida bo’ladi va ko’rish analizatorida nerv jarayoniga aylanadi. O’z navbatida bu jarayon ko’rish sezgisini hosil qiladi. Eshitish sezgilari - tebranish tezligi 16 dan 20000 ga qadarbo’lgan tovush to’lqinlari ta`sirining aks etish natijasidir.

Lekin sezgilarning har xil turlari faqat o’ziga xosligi bilan emas, balki ular uchun umumiy bo’lgan xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Sezgilarning sifati, jadalligi, uzoq davom etishi va ko’p joylarda yuz berishi ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.Sifat - mazkur sezgining asosiy xususiyati bo’lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o’zgarib turadi. Sezgilarning jadalligi uning miqdorini ifoda etadigan xususiyat bo’lib, ta`sir qilayotgan qo’zg’atuvchining kuchi va retseptorning funktsional holati bilan belgilanadi.

**Adaptatsiya** yoxud moslashuv - sezgi organlari sezgirligining qo’zg’atuvchi ta`siri ostida o’zgarishi demakdir. Bu hodisaning uch xil turini alohida ko’rsatish mumkin:

1) qo’zg’atuvchining uzoq muddat davomida ta`sir etishi jarayonida sezgining tamomila yukolib qolishiga o’xshaydi.
2) Adaptatsiya deb shuningdek, yukorida bayon etilgan hodisalarga yaqinroq bo’lgan, kuchli qo’zg’atuvchining ta`siri ostida sezgining zaiflashib qolishi bilan ifodalanadigan hodisaga ham ataladi.
3) kuchsiz qo’zg’atuvchining ta`siri ostida sezgirlikning ortishi ham adaptatsiya deb ataladi yoki pozitiv adaptasiya.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Sezgilarning umumiy xususiyatlarini sanab bering.
2. Taktil sezgisi va og’riq sezgisi uchun latent davrini ko’rsating va latent davri mohiyatini ochib bering.
3.Sinesteziya hodisasi fiziologik nuqtai nazardan qanday tushuntiriladi?
4. Adaptatsiya deb nimaga aytiladi?
Adaptatsiya qanday turlarga ajraladi? Adaptatsiya turlarini takkoslang.
O’xshashlik belgilari:________________________
Farq qiluvchi belgilari:_____________________
5.Absolyut sezgirlik chegarasini sekundomer va chizgichdan foydalanib, kursdoshlaringizdan birida aniqlab bering.

**Mavzu bo’yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**
1.Sezgi bilan hissiyotning farqlarini ko’rsatib bering.
2.Sezgi a`zolari qo’zg’atgich ta`siriga moslashishi mumkinmi?
3.Tug’ma ko’r odam serqatnov yo’ldan o’tib borayapti. Sizningcha, uning harakatini qanday izohlash mumkin?
4.Qattiq qo’rquv natijasida soqov bo’lib qolgan odamni yana o’z holiga qaytarish mumkinmi? Agar mumkin bo’lsa, asoslang.

**3-asosiy savol: Idrokning ta`rifi va uning xususiyatlari.**

**Dars maqsadi:** Idrokning xususiyatlarini taxlil qilish,idrok jarayonlarini boshqarishni o’rgatish.
**Identiv o’quv maqsad:**
1. Idrokni ta`riflaydi.
2. Idrokning xususiyatlarini o’rganadi.
**3.** Idrokning qonuniyatlarini ajratadi.

**1-asosiy savol bayoni:**

Ta`limiy - idrok, uning ta`rifi, xususiyatlari, fiziologik asosi, tasnifiga bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi. Idrokning ancha muhim xususiyatlari predmetlilik, yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik va anglanganlikdan iboratdir

Narsalar yoki hodisalarning sezgi a`zolariga bevosita ta`sir qilish jarayonida kishi ongida aks etishiga idrok deb aytiladi.

Idrokning predmetliligi ob`ektivlashtirish hodisasi deb atalmish hodisada,ya`ni tashqi dunyodan olinadigan axborotning o’sha dunyoga mansubligida ifoda etiladi. Idrokning predmetligida tuyish va harakat sezgilari hal qiluvchi rol o’ynaydi. Harakatlar ishtirok etmagan taqdirda bizning idrokimiz ham predmetlilik belgisiga, ya`ni tashqi dunyo ob`ektlariga mansublikka ega bo’la olmasdi. Predmetlilik idrokning belgisi sifatida xatti-harakatni boshqarishda alohida rol o’ynaydi.

**I**drok konstantlik xususiyatiga ega ekanligi - uning o’zimizni qurshab turgan narsalarni shakliga, o’lchamiga, tusiga va xokazolarga ko’ra nisbatan o’zgarmaydigan tarzda bo’lishiga deb aytiladi.

Idrokning fiziologik asoslari. Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayondir. Pavlov idrokning negizini tevarak-atrofimizda narsalar va hodisalar retseptorlarga ta`sir etishi natijasida bosh miyaning katta yarim sharlari qobig’ida hosil bo’ladigan shartli reflekslar, muvaqqat nerv boshlanishlari tashkil etishini ko’rsatib bergan edi. Tashqi olamdagi narsalar va hodisalar kompleks qo’zg’atuvchilar sifatida xizmat qiladi. Analizatorlarning qobiq bo’lmalari o’zagida ana shu kompleks qo’zg’atuvchilarning murakkab tahlili va sintezi amalga oshiriladi. Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish - umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib idrokning anglangan bo’lishi mumkin emas.

**Muhokama uchun savollar:**
1. Sezgi organlarimizga bevosita ta`sir etib turgan narsa va hodisalarning organizmda bir butun, yaxlit holda aks etishdan iborat psixik jarayon qanday nomlanishini ko'rsating.
2. Narsa va hodisalarni oldindan belgilangan muayyan maqsadsiz idrok qilish
3. Idrok xususiyatlarini birma-bir nomlang va har birining o'ziga xos tomonlarini ochib bering.
4. Idrokning fiziologik asoslarini qaysi olimlar o'rganishgan va ularning ta`rifi bo'yicha idrokning nerv-fiziologik mexanizmi qanday amalga oshadi? Izohlang.
5. Idrokni tasniflang va har bir turiga misollar keltirib asoslang.

**1-labaratoriya mashg'uloti:**
**Mavzu. Muskul sezgisini farqlash chegarasi.**

**Dars maqsadi**: Sezgi chegaralarini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish.
**Identiv o'quv maqsadi:**
1. Har xil og'irlikdagi qadoq toshlar yordamida muskul sezgisini farqlash chegarasini aniqlaydi.
1. Sezgi a`zolarining qonuniyatlarini tasniflaydi.
**Tadqiqot uchun zarur jihozlar**:1 grammdan 500 grammgacha bo'lgan har xil qadoq tosh va metal plastinkalar.
**Ishni bajarish tartibi:** tekshiriluvchi ko'zi yumuq yoki bog'lab qo'yilgan holda o'ng va chap qo'liga bittadan qadoq toshni olib, ularni vaznini chamalaydi. Har ikkala qo'lidagi toshni u qo'ldan bu qo'liga almashtirilib,chamalab,salmoqlab ko'rishi ham mumkin.Dastlab har ikkala toshni vazni baravar bo'lishi kerak .Teshiriluvchining bir qo'lidagi qadoq tosh taqqoslash uchun o'zgarmas me`yor bo'lib xizmat qilsa ikkinchi qo'lidagi qadoq tosh sekin- asta (1,2,3, va hakozo grammga ) ortib boriladi va toshlarning qay biri og'irlashganini tekshiriluvchidan dam- badam so'rab turiladi. Muayan vaqtlargacha tekshiriluvchi ikkala qo'lidagi qadoq toshlarning vaznidagi o'zgarishini sezmaydi.Nihoyat ,u bir qo'lidagi tosh ikkinchi qo'lidagiga nisbatan og'irlashganini aytadi.Tekshiriluvchi tomonidan payqab olingan qo'shimcha og'irlik miqdori undagi muskul sezgisini farqlash ,chegara ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.Har bir tekshiriluvchi bergan ko'rsatkichlar qarorda qayd etib borilishi kerak.
Tadqiqot natijalarini tahlil qilish:o'tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagicha qarorlashtirilib,tahlil qilinishi mumkin.

**Dars yakuni**. Qo'yilgan masalaning taxlilini berib ,xulosa yasaladi.
**Asosiy adabiyotlar**:
1.Q.Daminov,O'.Otavalieva,X.Ibrohimov.»Seminar va labaratoriya mashg'ulotlari»-Toshkent -1994 y.
2.Rogov E.I.»Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa ».-1-2-chast-Moskva-1999g.
3.V.M.Karimova.»Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot».-Toshkent-1999y.
**Qo'shimcha adabiyotlar**:
1.R.S.Nemov.»Prakticheskaya psixologiya»-Moskva-1998g.
2.B.TS.Badmaev.»Psixologiya:kak eyo izuchit i usvoit».- 1997g.

**Mustaqil ish topshiriqlari**.
Sezgi a`zolarining sezgirlik jixatini aniqlanang.
Sezgi qonuniyatlarini taxlil qiling.
Sezgilarning o'quv faoliyatidagi o'rnini ko'rsating.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

1. Munosabat qonuniyatlarini bilish hamda munosabat o’rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish pedagog uchun ayniqsa muhimdir Pedagogik munosabat - pedagog va ta`lim, tarbiya olayotganlarning o’zaro birgalikdagi harakati usullari sistemasidir.
2. Sezgilar - aynan bir xil qo’zg’atuvchilarning aks ettirish shakllaridan iboratdir.
3. Narsalar yoki hodisalarning sezgi a`zolariga bevosita ta`sir qilish jarayonida kishi ongida aks etishiga idrok deb aytiladi.

**Muhokama uchun savollar**:
**1**. Psixologiyada xulq -atvorning normativ jihatdan ma`qul bo’lgan muayyan ijtimoiy mavqe`ni egallab turgan har bir kishidan tevarak-atrofdagilar ko’rsatgan namunasi deb nimaga aytiladi?
2. Rollar konflikti nima va uni kelib chiqish sababini tushuntiring.
3. Kishining boshqalardan eshitishga yoki ularda ko’rishga tayyor bo’lgan narsani ulardan kutish mumkinligini bexato va aniq taxmin qilish qobiliyati va malakasi nima deyiladi ?
4. Munosabat jarayonida munosabatga kirishganlarini o’zaro birgalikdagi harakatlarining izdan chiqishiga olib keladigan va ba`zan mojaroli vaziyatlarni vujudga keltiradigan darajada buzilishi va sabablari ayting.
5. Birgalikdagi faoliyat jarayonida mojarolarning necha xil toifadagi tafovvutlari qayd qilinadi? Nomlang, misollar keltiring.
6. Munosabatga kiruvchilarning o’zaro yaqinligi bilan bir-biri bilan munosabatdan qoniqish hosil qilganligini his-tuyg’ular va afzallikning o’zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o’zaro munosabatlar va o’zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash sistemasi nimadan iborat?
7. Munosabatning quyidagi uchta jihatini ko’rsating, nomlang va ular mohiyatini ochib bering.
8. Pedagog va o’quvchilar jamoasi o’rtasida o’zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayriboshlashdan o’quv-tarbiyaviy ta`sir ko’rsatish va o’zaro hamjihatlilikni tashkil etishdan iborat sistemasi usullari va malakalari qanday nomlanadi?
9. Munosabat va faoliyatining birligi nimadan namoyon bo’ladi?
10. Muomala turlarini tasniflang. Ularning har biriga misollar keltiring. Inson hayot faoliyatidagi ahamiyatini ayting.
mala vositasi nima? Unga bog’liq ravishda xalq maqol va topishmoqlaridan namunalar keltiring.
11. SHaxsning shakllanishiga nisbatan psixologik yondashuv mohiyati.
12. SHaxsning shakllantirishda pedagogik yondashuvni izohlang.
13. Shaxs rivojlanishida harakatlantiruvchi kuchlar masalasini hal etish dagi ikkita yo’nalishni ko’rsating, tavsiflang, ularni taqqoslang.
14. Spaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari haqida tushuncha.
15. Tarbiyaning shaxs shakllanishidagi rolini ochib bering. Misollar bilan.

**Mavzu bo’yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**
1.Muomalaning ijtimoiy-psixologik asosini yaratish.
2.Inson ruhiy holati uni o’rab turgan muhitga bo’lgan munosabati bilan bog’liqligini asoslash yoki inkor etish.
3. Shaxslararo munosabatda muomala o’zaro tushunish vositasi bo’lishi mumkinligini isbot qilish.
**Mustaqil ish topshiriqlari.**
1.1. Muloqot xususiyatlarini o’rganuvchi ruxiy testlarni aniqlash va o’z tengdoshlarida sinab ko’rish.
1.2. Muloqot funktsiyalarini o’rganish.
.Muloqotning turlarini tasniflang.
1.3.Ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan muloqotlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
1.4. Rollar konflikti nima va uni kelib chiqish sababini tushuntiring
1.5. Munosabat va faoliyatining birligi nimadan namoyon bo’lishini ko’rsating.
1.6. Muomala turlarini tasniflang. Ularning har biriga misollar keltiring. Inson hayot faoliyatidagi

ahamiyatini ayting.
1.7. Muomala vositasi nima? Unga bog'liq ravishda xalq maqol va topishmoqlaridan namunalar keltiring.

**Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:**
1. Shaxs munosabatlarining asosiy ko'rinishlari umumlashtiriladi.
2. Shaxsning shakllanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta`siri ilmiy asoslanadi.
3. Ichki va tashqi «men» ning qarashlari orasidagi uyg'unlik va farq aniqlanadi.
4. Shaxsning shakllanishida faoliyatning rolini aniqlaydi.

**Laboratoriya mashg'uloti:**
Darsning maqsadi: insonni o'z-o'zini anglashining ko'p qirrali tomonlarini topish.
Identiv o'quv maqsadi: Shaxsdagi «men»ning turlarini farqlaydi.
SHaxsga xos xususiyatlarini tasniflaydi.
Zarur material: Shaxsning ayrim sifatlarini xarakterlovchi so'zlar:ta`sirchanlik, mag'rurlik, xafaxonlik, ko'rolmaslik, unutuvchanlik, qasoskorlik, ehtiyotkorlik, hozirjavoblik,beparvolik, tirishqoqlik, o'zini tuta bilishlik.
Ishning bajarilish tartibi.Sinaluvchilar berilgan so'zlardan 5 qator so'z tuzadi.So'zlarning qatorlari sinaluvchining quyidagi tasavvurlarini xarakterlab berishi kerak:
- hozirgi «men» (hozirda men o'zimni qanday deb hisoblayman)
- dinamik «men»(men o'z oldimga qo'ygan maqsad)
- ideal «men» (men o'zimni qanday bo'lishimni bilaman)

Sinaluvchi har bir holatda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini yozadi.
Bajarilgan topshiriq natijalarini ishlab chiqish. Ishga taalluqli bo'lgan natijalarni biriktirish yordamida shaxsning o'z-o'zini anglashga oid beshta chiziqni hosil qilinadi.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**
1.1. Individ va shaxsga ta`rif bering. Birligi, tafovutlarini ajrating.
1.2. SHaxs tuzilishini (struktura) sxematik ravishda ifodalang va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsating, analiz, sintez qiling, umumlashtiring.
1.3.Nima uchun barcha odamlarni shaxs deya olmaymiz, uning individdan asosiy farq qiluvchi belgisi nimada ekanligini ko'rsating.

**Kerakli adabiyotlar:**
1.Platonov K.K. Psixologiya -T.:O'qituvchi, 1982 y.        33- 37 betlar.
2. Gomezo V.M. Psixologiya kursi. - T.:O'qituvchi, 1972 y.      66-79 betlar.
3.Q.Daminov,O'.Otavalieva,X.Ibrohimov.»Seminar va labaratoriya mashg'ulotlari»-Toshkent -1994 y.
**Qo'shimcha adabiyotlar:**
4.Rogov E.I.»Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa ».-1-2-chast-Moskva-1999g.

**Modul bo'yicha yakuniy mashg'ulot.**
1. O'spirinlik va yoshlik davrida ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatiga faol qo'shilib ketish natijasida o'ziga ijtimoiy-ahloqiy jihatdan baxo berishning kengaytirilgan sistemasi shakllana boshlaydi. "Men"ning siymosi asosan tarkib topadi.
3. "Men"ning siymosiga ta`rif bering, uning mohiyatini ochib bering.
4. "Men"ning siymosi uchta komponentni o'z ichiga oladi. Ular qaysilar? Sanab bering, farqlang.
5. O'z-o'ziga baho berish nima va u qanday paydo bo'ladi?
6. Qanday hollarda kishida tajovuzkorlik belgilari namoyon bo'ladi.
7. SHaxsning shakllanishiga nisbatan psixologik yondashuv mohiyati.
8. SHaxsning shakllantirishda pedagogik yondashuvni izohlang.

9. SHaxs rivojlanishida harakatlantiruvchi kuchlar masalasini hal etish dagi ikkita yo’nalishni ko’rsating, tavsiflang, ularni taqqoslang.
10. SHaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari haqida tushuncha.
11. Tarbiyaning shaxs shakllanishidagi rolini ochib bering. Misollar bilan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. M.Vohidov. Bolalar pisxologiyasi. T.1982. 135-137 betlar. 202-213 betlar.
2. F.N.Gonobolin. Psixologiya. T.1976. 33- 36 , 99-101 betlar.
3. V.I.Ignatev va boshqalar. Psixologiya. T.1970. . 37- 39 , 200-205 betlar.
4. M.V.Gomezo. Psixologiya kursi.T.1972. 190-192 betlar
5. R.S.Nemov. Psixologiya. M.1990.176-180 betlar.
6. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya - T:O’qit, 1992 y. 205-230 betlar.
7. Platonov K.K. Psixologiya -T.:O’qituvchi, 1982 y. 33- 37 betlar.

**Qo’shimcha adabiyotlar:**

1.Q.Daminov,O’.Otavalieva,X.Ibrohimov.»Seminar va labaratoriya mashg’ulotlari»-Toshkent -1994 y.
2.Rogov E.I.»Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa ».-1-2-chast-Moskva-1999g.
3.V.M.Karimova.»Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot».-Toshkent-1999y.
4.R.S.Nemov.»Prakticheskaya psixologiya»-Moskva-1998g.
5.B.TS.Badmaev.»Psixologiya:kak eyo izuchit i usvoit».- 1997g.

**Internet ma`lumotlari:**
Webadm @ vspu var ru

## XAYOL, TASAVVURLAR.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar**:
1. Xayol va uning asosiy turlari haqida tushuncha.
2. Xayol jarayoninng analitik va sintetik harakteri.
3. Xayol jarayoning fiziologik asoslari.
4. Bolalarning o’yini va kattalarning ijodida fantaziyaning roli.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
Xayol tasavvur, fantaziya, orzu, faoliyat natijasini oldindan ko’rish, ijodiy qayta tiklovchi, xayolning anolitik va sintetik jihati, giperbolizatsiya, aglituptsiya, sxematizatsiya, tetiklashtirish.

**Mavzuga oid muammolar:**
-Xayol tasavvurlar ham voqelikning mohiyatini aks ettiradimi?
-Hissiy bilish jarayonlarisiz ham tasavvur etish mumkinmi?
-Sizningcha, miyada obrazlarning hosil bo’lishi voqelikdan ajralgan holda ro’y berishi mumkinmi?
-Turli afsonalarda ko’p qo’lli xudolar, yetti boshli ajdarlar tasvirlanadi. Bu holatni qanday izohlaysiz?
-Tipiklashtirish va sxemalashtirish jarayonining ijodiy faoliyatdagi rolini asoslab bering.
-Xayol jarayonida miyaning qaysi qismlari faollashadi?

-Periferik nerv sistemasi bilan xayol jarayonining bog'liqligi bormi?
-Xayol jarayoniga taaluqli tushunchalarni ajrating va izohlang.
-Sizningcha, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda fantaziyaning o'rni bormi? Fikringizni asoslang.
-Xayol bilan orzuning farqini ajratish mumkinmi? Mumkin bo'lsa , dalillang.
-Ijodiy faoliyatda fantaziyalardan foydalanish mumkinmi? Fikringizni asoslang.

**1-savol. Xayol, uning asosiy tushunchalari haqida ma`lumot.**

**Dars maqsadi:**
Xayolning psixik jarayoni sifatida harakterlab berish.
Xayol tasavvurlarining inson hayoti faoliyatidagi rolini ko'rsatish.

**Identiv o'quv maqsadlar.**
1. Xayolning psixologik tasnifini tushintiradi.
2. Xayol jarayonini boshqa psixik jarayonlardan farqini ajratadi.
3. Xayolda obrazlashtirish hodisasini izohlaydi.
4. Xayol turlarini farqlaydi, tavsiflaydi.

**1-savolning bayoni.**

Xayol yoki fantaziya tafakkur va xotira kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy harakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namayon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordami bilan kutilayotgan natijani tasavvur qilish inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatida tub farq qiladi. Xayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy adabiy musiqaviy va umuman ijodiy faoliyatining zarur tamoni sifatida namayon bo'ladi.

Xayol - insoniy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxirgi va oraliq maxsulotlarida o'z ifodasini topadi, problemali vaziyat noaniqlik ko'rsatgan hollarda xulq - atvor programmasini tuzishni ta`minlaydi. SHuning bilan xayol insonning aktiv faoliyatini programmalashtiruvchi emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga chiqadi. Xayolning psixik jarayon sifatidagi birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlamasdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Xayol mehnatning faqat so'ngi natijasigina emas, balki mehnatning oraliq maxsulotlarini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Xayol odamga aktiv faoliyat jarayonida mehnat maxsulotlarining oxirgi yoki oraliq psixik metodlarini hosil qilish yo'li bilan yo'l -yo'riq ko'rsatadi. Xayol tafakkur bilan mahkam bog'langandir.

**Muhokama uchun savollar:**
1. Faoliyatni boshlamasdan oldin uning natijasining tasavvurini hosil qilish qaysi psixik jarayonga mos?
2. Masala yechishda xayolning rolini ayting.
3. Vaziyat noaniqligi katta bo'lgan sharoitda yuzaga chiqadigan psixik jarayonni farqlang.
4. Xayol jarayonida obrazlashtirish hodisasini yozma izohlab bering.
5. Fantaziya, xayol, orzu jarayonlarini farqlab tahlil qilib bering.
6. Xayolning tafakkurdan farqli jihatlarini izohlab bering.

**2-savol. Xayol jarayonlarining analitik va sintetik harakatlari.**

**Dars maqsadi:** Xayol jarayoni xususiyatlarini ochib berish. Ushbu xususiyatlarning pedagogik faoliyatdagi rolini tushuntirish.

**Identiv o’quv maqsadi**.
1. Xayol jarayonida ro’y beradigan aglyutinatsiya hodisasini izohlaydi.
2. Giperobolizatsiya hodisasini ta`riflaydi.
3. Sxemalashtirish, tipiklashtirish hodisasini farqlaydi va yozma tahlil qiladi.

**2-savol bayoni.**
Xayol jarayonlarining analitik va sintetik harakteri:

Xayol jarayonlari idrok, xotira, tafakkur kabi analitik - sintetik harakterga egadir. Tahlil idrok, xotira va tafakkurdayoq ob`ektning ayrim umumiy, muhim belgilirini ajratish va saqlash hamda muhim bo’lmagan belgilardan chetlashish imkoniyatni beradi. Bu tahlil sintez bilan, ya`ni o’ziga yarasha etalon hosil qilish bilan tugallandi. Xayolning mohiyati tasavvurlarini qayta tuzish jarayonidan va o’zimizdagi mavjud obrazlar yaratishdan iboratdair. Xayol, fantaziya real voqelikni yangi, kutilmagan hamda odatdan o’zgacha qo’shilish va bog’lanishlarda aks ettirishdan iboratdir. Timsollarni sintezlashning eng sodda formasi aglyutinatsiya bo’lib, bu kundalik hayotimizda birlashtarib bo’lmaydigan turli sifatlar, xususiyatlar va qismlarni "yopishtirib" birlashtirishdan iboratdir. Aglyutinatsiya yo’l bilan ertak obrazlari yaratiladi. Aglyutinatsiyadan texnika bilan bog’liq bo’lgan ijodiyotda ham fodalaniladi.

Fantaziya timsollarini yaratish mumkin bo’lgan yo’llardan biri narsalarning qandaydir sifatlarini, belgilarini qayd qilish, ularga diqqatni jalb etishdan iboratdir.

**Muhokama uchun savollar:**
1. Kundalik hayotda birlashtirib bo’lmaydigan turli jinoyatlarni qismlarini "yopishtirib" birlashtirish, sintezlashtirish qanday xayol deb aytiladi?
2. Narsa, hodisa predmetlarning qismlarni miqdorini va ularning o’rinlarini almashtirib obrazlar hosil qilish qanday ataladi?
3. Sxematizatsiyalash hodisalarini misollar bilan psixologik tahlil qilib chiqing va farqlarini bayon eting.
4. Tipiklashtirish jarayonining ijodiy faoliyatidagi rolini asoslang.
5. Xayol jarayoniinng analitik va sintetik tavsifini taqqoslang.

**3-asosiy savol: Xayol jarayonining fiziologik jihati.**
**Dars maqsadi:**
1) Xayol jarayonining miyada kechish xususiyatlarini tushuntirib berish;
2) Pedagogik faoliyatda xayol jarayonidan aktivlashtirishga o’rgatish.

**Identiv o’quv maqsadlari**:
1. Xayol jarayonida miyaning qaysi qismlari faollashuvini farqlaydi.
2. Xayol jarayoni va organik protsesslar bog’liqligini izohlaydi.
3. Mavzuga oid tushunchalarni tushuntiradi.

**3-asosiy savol bayoni:**
Inson miyasi fantaziya(xayol) ishlab chiqargan timsollarga va organizmning periferik qismlariga boshqaruvchi ta`sir ko’rsatib, ularning ishlash jarayonini o’zgartirib yuboradi. Hali o’rta asrlardayoq kishini hayratda qoldiradigan faktlar ma`lum edi: Injildagi afsonaga ko’ra, Iso payg’ambar krestda boshidan kechirgan azob-uqubatlar haqidagi fikrlardan so’ng, qo’l va oyoqlarining kaftida qontalab ko’kargan va hatto yara paydo bo’lgan. Bunday belgilar "stigmatlar" deb nom olgan (grekcha "stigma"-chandiq, belgi ma`nosini anglatadi).

Shunday hollar ma`lumki, vrachning ehtiyotsizlik bilan aytgan so’zlaridan ta`sirlanuvchi bemorning ahvoli og’irlashgan, xayolidan o’sha kasallikning yomon oqibatlari o’tib ketgan va xuddi o’sha kasallikning alomatlari rivojlana boshlagan. Yatrogen deb ataladigan kasalliklar -

organik protsesslar yuzaga kelgan. O’qituvchining pedagogik jihatdan nojo’ya xatti-harakatlari va uning extiyotsizlik bilan aytgan so’zi ham o’quvchini jarohatlantirishi va unda fantastik qo’rquv hissini yuzaga keltirgan. Bunga psixologiyada Didaktogen deb ataladigan nerv kasalliklari deb ataladi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Vrachning extietsizlik bilan aytgan so’zlaridan keyin bemorning xayolida o’sha kasallikning alomatlari rivojlana boshlagan kasalliklar qanday aytiladi?
2. Fantaziya ishlab chiqargan timsollarga va organizmning periferik qismlariga boshqaruvchi ta`sir ko’rsatadigan organni ayting.
3. Didaktogen deb ataladigan kasalliklarni ta`riflab bering.
4. Ideometr tushunchasini izohlang.

**4-asosiy savol:**
**Bolalarning o’yini va kattalarning ijodida fantaziyaning roli.**

**Dars maqsadi:**

1) O’yinda fantaziyaning rolini tushuntirish,
2) Odam hayotida orzularning rolini ochib berish:
3) Badiiy va ilmiy ijodiyotda fantaziya tutgan o’ringa baho berish.

**Identiv o’quv maqsadlari.**

1. Fantaziya ijtimoiy tajribani o’zlashtirishning muhim sharti ekanligini tushuntiradi.
2. Orzuni ta`riflab beradi.
3. Kattalar ijodiyotida fantaziyaning rolini ochib beradi.

4-asosiy savolning bayoni:

**Fantaziya va o’yin**: Bolaning yetakchi faoliyati o’yin bo’lib qoladigan bog’cha yoshidagi davri va maktabda ta`lim olishning dastlabki yillari xayol jarayonlarining barq urib rivojlanishi davri hisoblanadi.Xayolga boy ozuqa beruvchi rolli syujetli o’yinlar bolaga shaxsning qimmatli sifatlarini chuqurlashtirish va mustaykamlash imkonini beradi dadillik, qat`iylik, uyushqoqlik, topqirlik kabi irodaviy sifatlarni rivojlantiradi. Nutqning rivojlanishi bilan bolalarda hech qachon ko’rmagan narsa va hodisalarni tasavvur qilish imkonini beradi.

**Orzu**: Ko’pincha xayol jarayonlari odam amalga oshirishni istaydigan timsollar shakliga, ya`ni alohida ichki faoliyat shakliga kirib oladi. Ana shunday kelgusida hohlaydigan timsollarni orzu deb ataladi. Orzu odamning voqelikni o’zgartirishga qaratilgan ijodiy kuchlarni hayotga tadbiq qilishning zarur shartlaridandir. Orzu hayotni ilmiy ko’ra bilish, xususan xalq xo’jaligini rivojlantirishning rejalarida katta rol o’ynaydi. Orzu kechiktirilgan faoliyatga undovchi sabab yoki motiv sifatida namoyon bo’ladi.

**Badiiy va ilmiy ijodiyotda fantaziya:** Fantaziya eng ko’p qo’llaniladigan soha bo’lmish san`at va adabiyotning ijodiy faoliyatida zaruriy element bo’lib hizmat qiladi. Rassom yoki yozuvchining ijodiy faoliyatida qatnashadigan xayolning muhim xususiyati uning emotsionalligidir. YOzuvchi, rassom va muzikachi turli tuyg’ularni boshidan kechirar va ularni badiiy obrazlarda gavdalantirar ekan, o’z navbatida, kitobxon, tomoshabinlarni, eshituvchilarni hissiy kechinmalarni kechirishga, azoblanishga va xursand bo’lishga majbur etadi. Xayol ilmiy problemani o’rganishning dastlabki bosqichlarida muhim rol o’ynaydi va ba`zan ajoyib farazlar qilishga olib keladi. Hozirgi vaqtda hozirgi zamon psixologiyasining eng istiqbolli sohalaridan biri ilmiy ijodiyot psixologiyasidir.

**Muhokama uchun savollar**

1. Sezgi a`zolariga bevosita ta`sir etib turgan narsa va hodisalarning alohida xususiyatlarini aks ettirishdan iborat jarayonni ta`riflang.
2. Tashqi va ichki muhitdan keladigan ta`sirlarni qabul qilib, fiziologik protsess bo'lgan qo'zg'alishni, ya`ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari sistemasi nima deyiladi?
3. Reflektor yoyi qismlarini ma`lum ketma-ketlikda tasniflang.
4. Organizmning ichki muhitida sodir bo'layotgan protsesslarni aks ettiruvchi sezgilarni sanab bering.
5. Retseptorlarda hosil bo'lgan impuls (qo'zgolish)ni tegishli nerv markaziga olib boradigan nervlarni ko'rsating.
6. Teri sezgilarining biror narsaning badanga tekkanini, bosilganini, tebranishini aks yettirishdan iborat turini ayting..

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar**

-Xayol tasavurlarning tafakkur jarayonidan farqi bormi?
-Miyada paydo bo'layotgan obrazlar bilan hayotiy voqelikning bog'liqligi nimada? Fikringizni asoslang.
-Bosh miya yarim sharlari markazlarining faolligi tasavvurlar bilan bog'liqmi?
-Fantaziya etib mutlaqo yangi obraz hosil qilish mumkinmi?
Amaliy mashg'ulot.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

1. Xayol yoki fantaziya tafakkur va xotira kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy harakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namayon bo'ladi.
2. Xayol jarayonlari idrok, xotira, tafakkur kabi analitik - sintetik harakterga egadir. Tahlil idrok, xotira va tafakkurdayoq ob`ektning ayrim umumiy, muhim belgilirini ajratish va saqlash hamda muhim bo'lmagan belgilardan chetlashish imkoniyatni beradi
3. Xayol ilmiy problemani o'rganishning dastlabki bosqichlarida muhim rol o'ynaydi va ba`zan ajoyib farazlar qilishga olib keladi. Hozirgi vaqtda hozirgi zamon psixologiyasining eng istiqbolli sohalaridan biri ilmiy ijodiyot psixologiyasidir.

**Laboratoriya mashg'uloti:**

**Tadqiqotning maqsadi:** har bir so'z qo'zg'ovchisi ta`sirida ongda hosil bo'ladigan obraz va fikrlarning xarakterini belgilash.

**Tadqiqot uchun zarur jihozlar**: konkret va mavhum tushunchani anglatuvchi bir qator so'zlar : jarlik, o'quvchi, kit, lola, maktab, tabiat,qahramonlik, hayvonlar,bino,g'alaba, shakl,tezlik,o'sish,taklif,sifat,kamyob,bulut, to'xtam, yo'lboshchi,taraqqiyot so'zlari yozilgan katochkalar.

**Tadqiqotning borishi**: Tadqiqotchi ikki sekund maboynida taxistaskop orqali tekshiriluvchiga so'z yozilgan kartochkalar ko'rsatadi. 3 sekund to'xtalgandan so'ng so'raydi:»Bu so'z sizning ongingizda qanday obrazni hosil qildi?» Tekshiriluvchining javobi so'zma- so'z yozib boriladi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Jami 10 ta so'zni ko'rsatish jarayonida tekshiriluvchidan olingan javob, natijalar jadvalda qayd qilib chiqiladi.

**Mashg'ulot yakuni:** Miyada mavjud obrazlar yangi obrazlar uchun assotsatsiyalar hosil qiladi.

**Asosiy adabiyotlar**:

1.Q.Daminov O'.Otavalieva X. Ibrohimov. Seminar va labaratoriya mashg'ulotlari Toshkent - 1994 y.
2.Rogov E.I.Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa
.-1-2-chast-Moskva-1999g.
3.V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent-1999y.

**Qo'shimcha adabiyotlar**:

1.R.S.Nemov. Prakticheskaya psixologiya Moskva-1998g.

2.B.TS.Badmaev. Psixologiya:kak eyo izuchit i usvoit. 1997g.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**
1.Sezgi xususiyatlarini o'rganib, farqini ajratishni amalda sinab ko'ring va xulosa chiqaring.
2. Mavzuga oid materiallarni o'zlashtirib, referat yozing
3. Illyuziyalarga oid har xil rasmlarni ilova qiling.
4. Maktabgacha yoshidagigi bolalar fantaziyasiga misol keltiring
5. Maktab yoshidagi o'quvchilar orzulariga misol keltiring

**Modul bo'yicha yakuniy mashg'ulot:**
1.Sezgining qonuniyatlari inson faoliyatida asosiy o'rin tutadi.
2.Bir sezgi a`zosi vazifasini ikkinchi sezgi a`zosi bajara oladi.
3.Inson harakatni atrofdagi narsalarga nisbatan idrok etadi.
4.Vaqtni bioritm asosida idrok etiladi.
5.Xotiraning mahsuldorligi ob`ektiv va sub`ektiv jihatlarga bog'liq.
6.Xotira markaziy nerv sistemasining faolligi natijasidir.
7.Tafakkur asosida hissiy bilish jarayonlari yotadi.
8.Xayol, fantaziyalar ijodiy faoliyatda asosiy o'rin tutadi.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Konovalov V.F. Psixika cheloveka. - M. Znanie, 1986
2. Natadze R.G. Voobrajenie kak faktor povedeniya. - Tbilisi, 1972
3. Fridman L.M. Pedagogicheskiy opыt glazami psixologa. - M.,1987.
4. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. - T.,1992.
5. Platonov K.K. Psixologiya. - T.,1982
6. Vohidov M.V. Bolalar psixologiyasi. - T.,1982.


**Qo'shimcha adabiyotlar:**

7. Ignatev va boshqalar. Psixologiya. - T.,1970
8. Gonobolin F.N. Psixologiya .- T.,1976
9. Gomezo V.M. Psixologiya kursi - T.,1972
10. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. - T.,1970


## T A F A K K U R.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar**:
1. Tafakkur psixologiyasi predmeti va metodlari
2. Tafakkur operatsiyalari
3. Tafakkur formalari (shakllari)
4. Tafakkur turlari.

**Tayanch tushuncha va iboralar**:
Ta`rif, hissiy bilish, tafakkur va nutq, tafakkurning sotsial tabiati, xukm, xulosa, tushuncha, induktsiya, deduktsiya, analogiya, analiz, sintez, taqqoslash, abstratsiykalash, ko'rgazmali- harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum tafakkur.

**Mavzuga oid muammolar.**
-Xayvonlarda ham tafakkur bo'lishi mumkinmi? Agar bo'lsa, fikringizni asoslang.

-Tasavvur qiling, oldingizda bir nechta savol tug'ildi. Ba`zilariga darhol javob berasiz, ba`zilariga esa o'ylab, taqqolab javob berasiz. Barcha holatda ham tafakkur ishga tushganmi? Qyerda ijodiy tafakkur, qaysi o'rinda reproduktiv tafakkur namoyon bo'lgan?
-Tafakkurni nutq bilan bog'liqlik jihatini misollarda asoslab bering.
-Limon, anor, atirgul, kabi predmetlarning ta`rifini bering. Hissiy bilish jarayonlari bilan tafakkurning bog'liqligi nimada?
-O'qituvchining o'qiyotgan ma`ruzasida tafakkurning qaysi operatsiyasi ko'proq namoyon bo'ladi?
-Dunyoqarash qanday shakllanadi? Tafakkur operatsiyalarining o'rnini ko'rsating.
-Sizningcha, inson oldida muammoli vaziyat tug'ilgan paytda tafakkurning vazifasi nimadan iborat?
-Tafakkur determinatsiyasi faoliyatning qaysi o'rnida namoyon bo'ladi? Fikringizni aoslang.
-Go'dak bola qo'liga biror narsa bersangiz darhol og'ziga soladi. Bu holatning sababini izohlang.
-Sizningcha, mavhum tarzda aks ettirish qanday ro'y beradi? Fikringizni asoslang.

**1-asosiy savol. Tafakkur psixologiyasi predmeti va metodlari.**

**Dars maqsadi:**

1) Ta`limiy - talabalarga tafakkur to'g'risida umumiy tushuncha berish, predmeti hamda metodlari mohiyatini ochib berish.
2) Tarbiyaviy-talabalarni keng va teran fikrli, mulohazali, hozirjavoblik ruhida tarbiyalash
3) Rivojlantiruvchi - ularda fahm-farosatni, halollikni tarkib toptirish.

**Identiv o'quv maqsadlari**:

1. Tafakkur to'g'risida umumiy tushuncha beradi.
2. Nutq va tafakkurning sotsial tabiatini ochib beradi.
3. Hissiy bilish va tafakkur jarayonlarini ta`riflaydi.

**1-asosiy savol bayoni:**

Tafakkurning umumiy harakteristikasi. Tafakkur - jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayondir, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelik bevosita va umumlashtirib aks ettiriladi. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Bizning idrokimizda o'zining xilma-xilligi va bevositaligi bilan namoyon bo'ladigan hamma o'zaro munosabatlar va aloqalar chigalini faqat birgina hissiy bilish yordamida "yechib" bo'lmaydi. Idrok qilish jarayonida sub`ekt (odam) bilan bilinayotgan ob`ekt o'rtasidagi o'zaro ta`sirning umumiy majmui natijalarinigina berilgan bo'ladi. Kishi tafakkur jarayonida sezgi, idrok va tasavvur ma`lumotlaridan foydalanarkan, shu bilan birga hissiy bilish chegarasidan chetga chiqadi, ya`ni tashqi olamdagi shunday hodisalarni bila boshlaydiki, ular sezgilarimizda bevosita mutlaqo berilmagan bo'ladi hamda ularni umuman bevosita kuzatish mumkin bo'lmaydi.

Kishining tafakkur faoliyati til bilan, nutq bilan ham o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Bunga inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o'rtasidagi printsipial farqlardan biri namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, inson tafakkuri til bilan, nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir.

Tafakkurning sotsial tabiati. Tafakkurning til bilan uzviy bog'liqligi inson tafakkurining sotsial, ijtimoiy-tarixiy mohiyatini ochiq-oydin namoyon qilib beradi. Bilish insoniyat tarixi davomida egallangan barcha bilimlarning izchilligini zaruriy tarzda taqozo qiladi. Bilimlarning bu tarixiy vorisligi ularni qayd qilish, mustaxkamlash va esda saqlashda bir kishidan boshqasiga, avloddan avlodga o'tkazish yo'li bilangina sodir bo'lishi mumkin. Bilishning bunday barcha asosiy natijalarining ana shunday qayd qilinishi til yordami bilan kitoblarda, jurnallarda va boshqa shu kabilarda amalga oshiriladi. Bularning hammasida inson tafakkurining sotsial tabiati namoyon bo'ladi.

Logika va tafakkur psixologiyasi. Tabiat va jamiyatni bilish hamda o'zgartirishning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida ilmiy bilimlar hosil qilinadi, rivojlantiriladi va sistemaga solinadi. Bilishning til yordamida qayd qilingan asosiy yutuq va natijalarining majmui sifatida tarkib topgan fan sistemasi - fizika, kimyo, biologiya, psixologiya va boshqa shu kabilar hosil bo'ladi hamda to'xtovsiz ko'payib boradi.

Psixologiya individning tafakkur jarayonini o'rganadi, ya`ni u yoki bu fikrning qanday paydo bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qiladi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Shaxsning ob`ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlari bog'lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat aqliy faoliyatga nima deb aytiladi?
2. Umumiylikdan yakkaga qarab borish yoki bir qancha ma`lum hukmlardan yangi yakka bir hukm chiqarish qanday nomlanadi?
3. Tafakkurning mantiqiy shakllarini sanab bering_______________
4. Tasdiqlash yoki inkor etish hamma narsaga taalluqli bo'lmaydi, balki ayrim bir necha narsaga taalluqli bo'ladigan hukmlar turini ayting.

**2-asosiy savol**. **Tafakkur operatsiyalari.**

**Dars maqsadi:**

1) ta`limiy - tafakkur operatsiyalari haqida tushuncha beradi, analiz va sintez, taqqoslash va abstraktsiyalash, umumlashtirish va konkretlashtirish mohiyatini ochib beradi.
2) tarbiyaviy- talabalarda tafakkur operatsiyalarini o'z o'rnida ishlatish ko'nikmalarini tarbiyalaydi
3) rivojlantiruvchi - talabalarda tafakkur operatsiyalarini bajarish malakalari rivojlantiriladi

**Identiv o'quv maqsadlari**:

1. Analiz va sintez operatsiyalarini ta`riflab beradi.
2. Taqqoslash va abstraktsiyalash jarayonlarini ochib beradi.
3. Umumlashtirish va konkretlashtirish mohiyatini aniqlaydi.

**2-asosiy savol bayoni:**

Tafakkurni jarayon sifatida psixologik jihatidan tadqiq qilish u yoki bu bilish natijalarining hosil bo'lishiga olib keladigan ichki, yashirin sabablarini o'rganish demakdir.

Analiz va sintez. Tafakkur jarayoni avvalo analiz, sintez va umumlashtirishdir. Analiz - ob`ektning u yoki bu tomonlarini, elementlarini, xossalarini , bog'lanishlarini, munosabatlarini va boshqa shu kabilarni ajratib olib, o'rganilayotgan ob`ektni har xil komponentlarga bo'lish demakdir.

Bir butun narsani analiz qilish natijasida ajratilgan komponentlarni birlashtirish sintezdir. Sintez jarayonida bilinayotgan ob`ektning ajratib olinayotgan elementlarini birlashtirish, joy-joyiga qo'yish yuzaga keladi. Analiz va sintez hamma vaqt o'zaro bog'liqdir. Ular o'rtasidagi ajralmas birlik taqqoslash bilan bog'liq bo'lgan bilish jarayonining o'zidayoq namoyon bo'ladi. Tevarak-atrofdagi olam bilan tanishishning dastlabki bosqichlarida turli ob`ektlar avvalo taqqoslash yo'li bilan bilib olinadi.

Analiz, sintez va umumlashtirish qonuniyatlari tafakkurning asosiy ichki va o'ziga xos xususiyatlaridir. Tafakkur faoliyatining barcha tashqi jihatdan namoyon bo'lishi faqat ana shular asosida tushuntirilib berilishi mumkin.

Tafakkur motivatsiyasi. Analiz, sintez, umuman tafakkur faoliyati boshqa har qanday faoliyat kabi hamma vaqt shaxsning qandaydir ehtiyojlariga asoslanadi. Agar ehtiyojlar bo'lmasa, hech qanday faoliyat ham bo'lmaydi.

Psixologiyada tadqiqot qilinayotgan tafakkur motivlari ikki turli bo'ladi: 1) o'ziga xos bilish motivlari va 2) o'ziga xos bo'lmagan motivlar. 1-holda tafakkur faoliyatiga undovchi va uni harakatga keltiruvchi kuchlar bilish ehtiyojlari namoyon bo'ladigan qiziqish va motivlar. 2-holda tafakkur sof bilish bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar ta`sirida emas, balki ozmi-ko'pmi tashqi sabablar ta`sirida boshlanadi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Tafakkur jarayonlarini tasniflang.
2. Fikr ob`ekti hisoblangan narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilarini ,bog'lanishlarni fikran bir tushunchaga birlashtirishdan iborat aqliy operatsiya qanday ataladi?
3. Narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash ba`zi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish formasini ayting.

**3-asosiy savol: Tafakkur formalari (shakllari).**

**Dars maqsadi:**

1) ta`limiy - masalaga oid tushunchalarni ochib berish
2) rivojlantiruvchi - muammoli vaziyat, muammoli masala, determinatsiya kabi tafakkur formalarini solishtira bilishni rivojlantirish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Muammoli vaziyatda tafakkur xususiyatlarini ochib beradi.
2. Tafakkur determinatsiyasini jarayon sifatida ta`riflaydi.
3. Muammoli masalani yechish va umuman tafakkur qilishni taqqoslaydi.

**3- asosiy savol bayoni:**

Muammoli vaziyat va masala. Tafakkur maqsadga yo'naltirilganlik harakteriga egadir. Qachonki hayot va amaliyot jarayonida kishi oldida yangi maqsad, yangi muammo, yangicha vaziyat va yangi faoliyat sharoitlar paydo bo'lsa, unda dastavval tafakkur qilishga zarurat tug'iladi. Bunday vaziyatlar muammoli vaziyat deb yuritiladi. Muammoli vaziyatlardan boshlanadigan aqliy faoliyat yordami bilan maqsadga erishish va ehtiyojlarni qondirishning yangi usullari hamda vositalarini yaratish, ochish, topish, kashf etish mumkin bo'ladi.

Tafakkur yangilikni izlash va ochish demakdir. Harakatning ilgaridan ma`lum bo'lgan eski usullari, eski bilimlar va malakalar bilan cheklanish mumkin bo'lgan hollarda muammoli vaziyat yuzaga kelmaydi va shuning uchun tafakkur ham mutlaqo talab qilinmaydi. Muammoli vaziyat bilan masalani farq qilish zarur. O'quvchilarda tafakkurni shakllantirishning turli yo'llarini belgilab beradi.

Ikkinchi qarama-qarshi fikr, aksincha, tafakkur jarayonida hali qo'lga kiritilmagan, namoyon qilinmagan natijani, ya`ni hali noma`lum qarorni oldindan ko'ra bilish momentini orttirib, absolyutlashtirib va ortiq baholab yuboradi.

Uchinchi nuqtai nazar tafakkurga kibernetik munosabatning taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda juda keng tarqalgandir. Uning ma`nosi quyidagidan iborat: Tafakkur jarayonida tegishli ob`ektning u bilan bog'liq bo'lgan umumiy qoidalari, teoremalari, echish variantlari va shu kabilarning hammasini, juda ko'pini yoki ayrimlarini birin-ketin qatorasiga saralab qarab chiqish lozim.

So'nggi yillarda muammoli vaziyatni va masala echishni psixologik tadqiqot qilish asosida o'quvchilarga beriladigan muammoli ta`limning metodlari ishlanmoqda. Bunday ta`lim metodlari

o'quvchilarni o'zlari hal qila oladigan ayrim muammolarni birinchi ochuvchilar, tadqiqotchilar qilib qo'yishga qaratilgandir.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Muammoli vaziyat qanday hollarda yuzaga keladi?
2. Tafakkur determinatsiyasini ta`riflab bering.
3. Tafakkur va masala echishni bir-biriga tenglashtirib bo'ladimi? Nima uchun?

**4-asosiy savol. Tafakkur turlari.**

**Dars maqsadi:**

1) ta`limiy-tafakkur turlari haqida tushuncha berish, tafakkur turlarini misollarda aks etish
2) tarbiyaviy- tafakkur turlaridan o'z o'rnida foydalana bilishni tarbiyalash;
3) rivojlantiruvchi- tafakkur turlarini farqlay olishni rivojlantirish, misol keltirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Ko'rgazmali harakat tafakkuri xususiyatlarini ochib beradi.
2. Ko'rgazmali obrazli tafakkurni ta`riflaydi.
3. Mavxum tafakkur va tafakkurning individual xususiyatlari mohiyatini tushuntiradi.

**4-asosiy savol bayoni:**

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va birmuncha shartli klassifikatsiyasi tarqalgandir: 1) ko'rgazmali-harakat; 2) ko'rgazmali-obrazli; 3) mavxum tafakkur. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida to'rgan masalalarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan echganlar, keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Masalan, bizning uzoq avlodimiz erni dastavval amaliy ravishda ulchashga o'rgangan va shundan keyingina mana shunday amaliy faoliyat davomida to'plangan bilimlar asosida, asta-sekin mahsus nazariy fan sifatida geometriya fani yuzaga kelgan va rivojlangan.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda formada ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalarda, ya`ni 4-7 yoshli bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshidagigi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi garchi saqlanib qolsa ham, lekin bu aloqa avvalgidek mustaxkam, to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bola bilayotgan ob`ektni analiz va sintez qilishi davomida qiziqtirayotgan narsasini qo'llari bilan albatta va hamma vaqt ham ushlab ko'rishi shart emas. Maktabgacha yoshidagigi bolalarda tushunchalarning yo'qligi shveytsariyalik psixolog J.Piajening eksperimentlarida juda yaqqol namoyon bo'lgan.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Tafakkur jarayonlarini ayting.
2. Fikr ob`ekti hisoblangan narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilarini ,bog'lanishlarni fikran bir tushunchaga birlashtirishdan iborat aqliy operatsiya qanday ataladi?
3. Narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash ba`zi belgilariga qarabgina xukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish formasi nima deyiladi.
4. Tafakkur turlarini tavsiflab bering.
5. Bolalar amaliy va ko'rgazmali -hissiy tajribalari asosida ularni maktab yoshidagi davrida avval ___________________tafakkur rivojlanadi.

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar**:

1. Hissiy bilish jarayonlari bilan aqliy bilish jarayonlarining bog'liqligi nimada?

2. Reproduktiv va ijodiy tafakkurning farqi nimada?
3. «Nutqsiz tafakkur» bo'lishi mumkinmi? Agar bo'lsa, fikringizni asoslang.
4.Fikran bir narsani o'ylab, boshqa narsani gapirish holatini qanday izohlaysiz?
Go'dakning tafakkuri bilan o'smir tafakkurining farqi nimada? Fikringizni asoslang.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**
1**.** . Tafakkur - jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayondir, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelik bevosita va umumlashtirib aks ettiriladi.
**2.** Tafakkurni jarayon sifatida psixologik jihatidan tadqiq qilish u yoki bu bilish natijalarining hosil bo'lishiga olib keladigan ichki, yashirin sabablarini o'rganish demakdir.
**3.** Tafakkur maqsadga yo'naltirilganlik harakteriga egadir. Qachonki hayot va amaliyot jarayonida kishi oldida yangi maqsad, yangi muammo, yangicha vaziyat va yangi faoliyat sharoitlar paydo bo'lsa, unda dastavval tafakkur qilishga zarurat tug'iladi.

## MAVZU: H I S - T U Y G' U L A R.

Ajratilgan vaqt: 2soat.

**Asosiy savollar:**
1. His-tuyg'ular va ularning fiziologik asoslari.
2. His-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllari
3. Asosiy hissiy holatlar va ularning tashqi ifodasi
4. His-tuyg'ular va shaxs
5. His-tuyg'ularning turlari va ularning shakllantirilishi

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
His-tuyg'ular, shaxs ehtiyojlari, regulyativ funktsiya, signal, emotsional holat, emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlar, stress, hissiy holatlar, ehtiros, muxabbat, ahloqiy his-tuyg'ular, aqliy his-tuyg'ular.
**Mavzuga oid muammolar**.
-Sizningcha, sezgi va hissiyot orasida farq bormi?
-Voqelikka bo'lgan munosabatlarimiz tuyg'ular bilan bog'liqmi? Fikringizni asoslang.
-Qayg'urganimiz uchun ko'zdan yosh chiqadimi yoki yosh chiqqani uchun qayg'uramizmi? Fikringizni asoslang.
-Nima uchun bir kishini sevamizu, boshqa birovni yoqtirmaymiz? Fikringizni asoslang.
-Emotsional holatlarning shakllari mavjudmi? Fikringizni asoslang.
-Kuchli hayajon holatida aytgan gaplarimizni keyinchalik eslay olmaymiz. Sababi nimada deb o'ylaysiz?
-Ba`zan o'ta tushkun, ba`zan esa ko'tarinki ruhda faoliyat ko'rsatamiz. Sababi nimada?
-Sizningcha, inson o'zi uchun mutlaqo yangi bo'lgan holatga duch kelganda qanday ruhiy holatga tushadi?
-Inson hayotida salbiy ruhiy holatlarning o'rni qanday? Fikringizni asoslang.
-Sizningcha, tuyg'ularning mazmuni mavjudmi?
-His-tuyg'ularning harakterini ochish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
-Ehtiros bilan sevgining farqi nimada? Dalillang.
-Onaning farzandga bo'lgan muhabbati bilan yigitning qizga bo'lgan muhabbati orasida farq bormi? Fikringizni asoslang.
-Sizningcha, ma`naviy his tuyg'ular qanday munosabatlarda namoyon bo'ladi?
-Intellektual tuyg'ularning inson aqliy kamolotida o'rni bormi?
-Munosabatlar bilan tuyg'ularning bog'liqlik jihatini ajratish mumkinmi?

**1-asosiy savol:**
**His-tuyg'ular va ularning fiziologik asoslari.**

**Dars maqsadi.**
His-tuyg'ular haqida tushuncha berish, his-tuyg'ular va kishining ehtiyojlarini izohlab berish, his-tuyg'ular fiziologik asoslarini tushuntirish, his-tuyg'ular ijobiy yoki salbiy bo'lishining shaxsning holatiga bog'liqligini ko'rsatish.

**Identiv o'quv maqsadlar**.
1. His-tuyg'ular haqida tushunchaga ega bo'ladi.
2. His-tuyg'ular shaxs ehtiyojlariga javob beradigan narsalarni aniqlab olishga yordam berishini tushunadi.
3. Ijobiy va salbiy hissiy kechinmalarni izohlaydi.
4. His-tuyg'ularning fiziologik asoslarini aniqlaydi.

**1-asosiy savolning bayoni:**
Odam idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga hayotdagi u yoki bu narsalarga, qanday bo'lmasin, munosabat bildiradi, unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda tuyg'u paydo bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan keyin, hayotiy yo'limizni ko'p jihatdan belgilab beradigan vatanni sevmoqni ham his-tuyg'u deb atashimiz kerak. SHunday qilib, his-tuyg'ular - kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'ziga turli xil shaklda bildiriladigan ichki munosabatidir.

His-tuyg'uni boshdan kechirishning turli formalari - emotsiya, affekt, kayfiyat, stress, ehtiros, muxabbat va nihoyat tor ma`nodagi so'z bilan aytganda, his-tuyg'ular -shaxsning emotsional sohasini tashkil etadiki, ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi,bilishning jonli manba, odamlar o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarining ifodasi bo'lib hisoblanadi.

His-tuyg'ular va kishining ehtiyojlari: His-tuyg'ular shaxs ehtiyojlariga javob beradigan narsalarni aniqlab olishga yordam beradi. Ehtiyoj namoyon bo'lishining alohida shakli sifatidagi qiziqish doimo erkin hissiy tusga ega bo'ladi.Kishi uchun sub`ektiv hisoblangan his-tuyg'ular uning ehtiyojlari qondirilish jarayoni qanday kechayotganligining belgisi sifatida namoyon bo'ladi.
His-tuyg'ularning fiziologik asoslari: His-tuyg'ular kechinishiga xos fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar bilan bog'liqdir. His-tuyg'ularning kechirilishi miya qobig'i va qobiq osti markazlarning birgalikdagi faoliyati natijasi hisoblanadi. His-tuyg'ular kishining katta yarim sharlar qobig'i bo'ylab tarqalgan holda qobiq osti markazlariga ta`sir qiladigan qo'zg'alish jarayonlarini yuzaga keltiradi. **Muhokama uchun savollar:**
1. Kishining o'z hayotida yuz berayotgan, bilib olayotgan, mashg'ul bo'layotgan voqea-hodisalarga bildiradigan ichki munosabatiga nima deb aytiladi?
2. Ehtiyojlarni qondirish jarayoni xush keladigan tarzda________________________paydo bo'ladi, ehtiyojlarning qondirilmasdan qolishi ________________________ga olib keladi.
3. His-tuyg'ularning fiziologik asoslarini ta`riflab bering.
4. His-tuyg'ular boshdan kechirilayotganda nimalar kuzatiladi?

**2-asosiy savol. His-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllari**

**Dars maqsadi.**
His-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllarini tushuntirish, stenik va astenik emotsiyalar haqida tushuncha berish, affektlarni ta`riflash, kayfiyatlarni izohlash, stress holatlari haqida tushuncha berish.

**Identiv o'quv maqsadlari.**
1. Emotsiya shakllarini taqqoslaydi.
2. Affektlar mohiyatini tushuntiradi.
3. Kayfiyat tushunchasini ochib beradi.
4. Stress holatlarini ta`riflaydi.

**2-savol bayoni:**

Emotsiyalar:"Hissiyot" ("emotsiya") va "his-tuyg'u" degan so'zlar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. "Emotsiya" so'zini o'zbek tiliga aniq tarjima qilganda, u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma`noni anglatadi. Hissiyot deb musiqaviy asarga nisbatan yaxshi musiqaviy asarni eshitayotib, zavqlanish, lazzatlanish holatiga aytiladi.

Affektlar (yoki hisiy portlashlar): kishini tez chulg'ab oladigan, shiddat va momaqaldiroqka o'xshab, o'tib ketadigan jarayonlar affektlar (hissiy portlashlar) deb ataladi. Ular ongning anchagina darajada o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini-o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi.

Kayfiyatlar: kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatni ifoda etadi. Kayfiyat shodu xurramlik yoki qayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, xayajonli yoki ma`yuslik, jiddiy yoki engiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik va hokazolar tarzda bo'ladi. Kayfiyatlar ko'proq kishi salomatligining umumiy holatiga, ayniqsa nerv sistemasi va modda almashinuvini to'g'rilab turuvchi ichki sekretsiya bezlarining holatiga bog'liqdir. Kayfiyatning yaxshi bo'lishi uchun yaqin odamlarning va kollektivning ma`naviy madadi alohida ahamiyatga egadir.

Kuchli hayajonlanish (stress) holatlari: Psixologik ta`rifga ko'ra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomliligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli - kuchli hayajonlanish (stress inglizcha – tazyiq ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan) holatidan, yoki hissiy zo'riqishdan iboratdir. Hissiy zo'riqish havf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, taxlika ostida qolib ketgan va shu kabi vaziyatlarda ro'y beradi.

**Muhokama uchun savollar:**
1. His-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllarini sanab o'ting.
2. Stenik emotsiyalar bu ____________________________
Astenik emotsiyalar bu____________________________
3. Kishini tez chulg'ab oladigan, shiddat va momaqaldiroqka o'xshab o'tib ketadigan jarayonlar, hissiy portlashlar nima deyiladi?
4. Kayfiyat qanday hissiy holatni ifoda etishini aytib bering.

**3-asosiy savol: Asosiy hissiy holatlar va ularning tashqi ifodasi**

**Dars maqsadi**
Hissiy holatlarni ta`riflab berish, ularning tashqi ifodasini ochib berish, hissiy holatlar ijobiy yoki salbiy ekanligini tushuntirish. Talabalarga kundalik turmushda ijobiy hissiy holat va salbiy hissiy holatlarning namoyon bo'lishidan misollar keltirish.

**Identiv o'quv maqsadlari**
1. Qiziqish, quvonch kabi ijobiy hissiy holatlarni ta`riflaydi.

2. Xayratlanish holatini izohlaydi.
3. Salbiy hissiy holatlarga baxo beradi.
4. Hissiy holatlarni ifodalaydigan misollar keltira oladi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Asosiy hissiy holatlar va ularning tashqi ifodasi: Har biri o'zining psixologik ta`riflari va tashqi ko'rinishlariga ega bo'lgan quyidagicha hissiy holatlar mavjuddir (K.Izardning fikricha - Emotsiya cheloveka.-M.,MGU,1980):

**QIZIQISH** - (emotsiya tarzida) - malaka va ko'nikmalarning rivojlanishiga, ta`lim olishga moyillik tugdiradigan bilimlarni egallashga yordam beradigan ijobiy hissiy holatdir.

**QUVONCH** - hali-veri qondirilishi mumkin bo'lmagan yoki har holda qondirilishi noaniq bo'lgan dolzarb ehtiyojning etarli darajada to'la qondirilgan bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq ijobiy hissiy holatdir.

**XAYRATLANISH** - tusatdan ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta`sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan belgisidir. Xayratlanishda barcha oldingi hissiyotlarning tormozlanishi mumkin.

**IZTIROB CHEKISH** - hozirga qadar qondirilish extimoli ozmi-ko'pmi darajada mavjud deb tasavvur qilib kelingan hayotiy muhim ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi haqida aniq yoki shunday tuyulgan axborot olinishi bilan bog'liq bo'lgan salbiy hissiy holatdir.

**G'AZABLANISH** - u stenik tarzda bo'ladi, odam oldida jiddiy tusiq bo'lganda namoyon bo'ladi, salbiy tarzdagi hissiy holatdir.

**QO'RQUV** - sub`ekt o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon etishi mumkinligi haqida, unga real tarzda taxdid solaetgan yoki taxdid solishi mumkin bo'lgan xavf-xatar haqidagi xabarni olishi bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. "Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi" va "qo'rqqanidan oyoqlari qaltirardi", "qo'rqqan ko'zga chang tushadi" va hokazolar. SHunday odamlar tushkunlikka tushishi, xavotirlanishi va affektiv holatga tushishi mumkin.

**UYALISH** - o'zining niyat-maqsadlari, xatti-harakatlari va tashqi qiyofasi faqat tevarak-atrofdagilar tomonidan kutilganicha mos kelmaganligini emas, balki o'ziga loyiq xulq-atvor va tashqi qiyofa haqidagi shaxsiy tasavvurlarga ham mos kelmayotganini anglab etishida ifodalanadigan salbiy hissiy holatdir.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Ijobiy hissiy holatlarni va ularning tashqi ifodasini ayting
2. To'satdan ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta`sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan hissiy holatni ta`riflang.
3. Hissiy holatlar ifodasini tasniflang.
- G'azablanish
- Jirkanish
- Qo'rquvni ifodalang.
4. Asosiy hissiy holatlar ifoda etilgan misollar keltiring.

**4-asosiy savol: His-tuyg'ular va shaxs**

**Dars maqsadi**

His -tuyg'ularning shaxs faoliyatida namoyon bo'lishini tushuntirish, ehtiroslar haqida tushuncha berish, muxabbat tuyg'usini ta`riflash, talabalarga muxabbat tuyg'usiga xurmat munosabatida bo'lishni o'rgatish.

**Identiv o'quv maqsadlari**:

1. His-tuyg'ular mazmuni nima ekanligini biladi.

2. His-tuyg’ular harakterini biladi.
3. Ehtiroslarni baholaydi.
4. Muxabbat tushunchasini tushuntiradi.

**4-asosiy savol bayoni**:

His-tuyg’ular kishi shaxsining ancha erkin ko’rinishlaridan biri bo’lib, u bilish jarayonlari va xulq-atvor hamda faoliyatni irodaviy boshqarish bilan birgalikda namoyon bo’ladi. SHaxs o’zi bilan birga olayotgan va bajarayotgan narsaga uning barqaror munosabati his-tuyg’ularning mazmunini tashkil etadi. His-tuyg’ular konkret harakterga ega bo’ladi. Ular sub`ektning barqaror ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishiga sabab bo’lgan faktlar, voqealar, odamlar va holatlar tufayli ro’y beradi.

Ehtiroslar kishidagi barqaror his-tuyg’ularning alohida turini tashkil etadi, kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo’nalishini belgilaydigan barqaror,chuqur va kuchli tuyg’u ehtiros deb ataladi. Jumladan, milliy-ozodlik uchun ko’rashchida vatanga muxabbat tuyg’usi bir qancha ezgu ziddiyatlar bilan bog’langan bo’lib, uni o’z hayotini xavf ostida qoldirib, pirovardida g’alabaga olib borishi mumkin bo’lgan yo’lni qat`iyat bilan izlashga majbur etadigan engilmas kuchga aylanadi. Ehtiroslar insoniy va hayvoniy bo’lishi mumkin. Vatanga muxabbat, texnika ijodkorligi, halqqa xizmat qilish, fanga mehr-muxabbat umuminsoniy ehtiroslarga, ijobiy ehtiroslarga aylanishi mumkin. SHaxvat hislarini qondirishlar, ma`naviy bo’zuqliklar, ahloqiy jihatdan o’zgarishlarni hayvoniy ehtiroslar deb aytishimiz mumkin.

Muxabbat insonga xos eng muhim barqaror his-tuyg’udir. "Muxabbat" tushunchasi psixologiyada ikki xil ma`noda ishlatiladi. Keng ma`nodagi muxabbat hissiy-ijobiy munosabatning ob`ektini boshqalarga qaraganda ajratib ko’rsatadigan, hamda uni sub`ektning barqaror hayotiy ehtiyojlari va qiziqishlari markaziga qo’yadigan yuksak darajasi demakdir. Vatanga bo’lgan muxabbat, onaga, bolalarga, otaga, musiqaga, adabiyotga, san`atga va hokazolarga bo’lgan muxabbat ana shunday his-tuyg’ulardir.

**Muhokama uchun savollar:**
1. His-tuyg’ular mazmunini nima tashkil etishini ochib bering.
2. Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo’nalishini
Belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli tuyg’u nima deb atalishini aytib bering.
3. Keng ma`nodagi muxabbatni ta`riflab bering.
4. Tor ma`nodagi muxabbat deganda nimani tushunmoq kerakligini izohlang.
5. Maktab o’quvchilarida muxabbat ko’rinishlariga misol keltiring va o’z fikringiz hamda munosabatingizni bildiring.

**5-asosiy savol: His-tuyg’ularning turlari va ularning shakllantirilishi**

**Dars maqsadi**
His-tuyg’ular turlari tasnifi to’g’risida tushuncha berish, his-tuyg’ular turlarini ochib berish, ularni shakllantirish yo’llarini ta`riflash.
**Identiv o’quv maqsadlari:**
1. His-tuyg’ular turlarini biladi.
2. His-tuyg’ular turlarini tavsiflaydi.
3. His-tuyg’ular turlari nimani ifodalashini tushunadi.

**5-asosiy savol bayoni:**

Psixologiyada his-tuyg'ular turlarining hamma uchun ma`qul bo'ladigan tasnifi yo'k. Lekin psixolog olimlar tomonidan quyidagi turlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: 1) ma`naviy; 2) intellektual (aqliy); 3) estetik (nafosat) his-tuyg'ular.

1) MA`NAVIY (ahloqiy) his-tuyg'ular o'z mazmuniga ko'ra kishining kishiga va kengroq ma`noda olganda jamiyatga, halqqa munosabatini bildiradi. Ma`naviy his-tuyg'ularga muxabbat (keng va tor ma`noda), hamdardlik, hayrihohlik, insonparvarlik, sodiqlik va hokazolar kiradi.

2) INTELLEKTUAL (aqliy) his-tuyg'ular shaxsning bilish jarayoniga, uning muvaffaqiyatliligi yoki muvaffaqiyatsizligiga munosabatini ifodalaydi va aks ettiradi.

3) ESTETIK (nafosat) his-tuyg'ular sub`ektning hayotida yuz beradigan turli xildagi narsalarga va ularning san`atda aks ettirilishiga nisbatan allaqanday ajoyib yoki bema`ni, fojiaviy yoki kulgili, olijanob yoki jirkanchli, nafosatli yoki xunuk narsa sifatida munosabatini aks ettiradi va ifodalaydi.

**Muhokama uchun savollar:** 1.
His-tuyg'ular turlarini ayting.
2. Ma`naviy his-tuyg'ular mazmunini tushuntiring.
3. SHaxsning bilish jarayoniga, uning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligiga munosabatni ifodalaydigan va aks ettiradigan his-tuyg'ular ______________________deb ataladi.
4.Estetik his-tuyg'ular mazmunini ochib bering.

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar.**

1.Uyalganda qizarib ketasiz, sababi nimada deb o'ylaysiz?
2.His-tuyg'ularimiz turli shakllarda ifodalanadi. Nima sababdan?
3.His-tuyg'ular va mimikalarning bog'liqligi bormi? Bor bo'lsa, asoslang.
4.Hissiyotning inson hayotidagi boshqaruvchilik o'rnini ko'rsatish mumkinmi?

**Kerakli adabiyotlar:**

1.Q.Daminov O'.Otavalieva X.Ibrohimov. Seminar va labaratoriya mashg'ulotlari. Toshkent -1994 y.
2.Rogov E.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa. 1-2-chast-Moskva-1999g.
3.V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent-1999y.

**Qo'shimcha adabiyotlar**:

1.R.S.Nemov. Prakticheskaya psixologiya Moskva-1998g.
2.B.TS.Badmaev. Psixologiya:kak eyo izuchit i usvoit.1997g.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish jarayonlarining o'ziga xosligini ko'rsatib bering.
2.Tafakkur operatsiyalarining o'quv faoliyatidagi o'rnini ko'rsating.
3.Ko'rgazmali xarakat, ko'rgazmali obrazli va mavxum tafakkur turlarini farqini ajrating. Misollar keltiring.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

**1.** Odam idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga hayotdagi u yoki bu narsalarga, qanday bo'lmasin, munosabat bildiradi, unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda tuyg'u paydo bo'ladi

2. Emotsiyalar:"Hissiyot" ("emotsiya") va "his-tuyg'u" degan so'zlar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. "Emotsiya" so'zini o'zbek tiliga aniq tarjima qilganda, u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma`noni anglatadi. Hissiyot deb musiqaviy asarga nisbatan yaxshi musiqaviy asarni eshitayotib, zavqlanish, lazzatlanish holatiga aytiladi.

3. His-tuyg'ular kishi shaxsining ancha erkin ko'rinishlaridan biri bo'lib, u bilish jarayonlari va xulq-atvor hamda faoliyatni irodaviy boshqarish bilan birgalikda namoyon bo'ladi.
4. Psixologiyada his-tuyg'ular turlarining hamma uchun ma`qul bo'ladigan tasnifi yo'k. Lekin psixolog olimlar tomonidan quyidagi turlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: 1) ma`naviy; 2) intellektual (aqliy); 3) estetik (nafosat) his-tuyg'ular.

**LABORATORIYA MASHG'ULOTI.**
**MAVZU: HISSIYOT.**
**Dars maqsadi: H**is- tuyg'ularning farqini ajratish va boshqarishni o'rganish.
Tadqiqot usulini ajratadi.
His tuyg'ular turini aniqlaydi.
His tuyg'ularning individual xususiyatlarini tasniflaydi.

**Ishni bajarish tartibi:**
Quyidagi tekstlarni o'qing va hissiyotni qanday individual xususiyatlari (kuchi ,chuqurligi, barqarorligi)namoyon bo'layotganligini aniqlang va izohlang.
A.Kamol i. –8-sinf o'quvchisi. O'qituvchi uni bir partadan ikkinchi partaga o'tkazgani uchun qattiq xafa bo'ldi ,uzoq mushohada qildi,butun darslar davomida asabiy parishonxotir ,xomush o'tirdi. Keyin ham uzoq vaqt o'ziga kela olmadi.
B.Salim B.—7-sinf o'quvchisi. Darsda ikki baho olganiga yig'lab yuborayozdi va o'zini tutib oldi. Ammo 1-2 soat o'tar o'tmas, yomon bahosini tamoman unutdi, tanaffusda boyagiday quvnoq xotirjam edi.
V. Aziza M. 8—sinf o'quvchisi. Uni –quvontirish ham, kayfiyatini buzish ham ,achchiqlantirish ham qiyin. Sinfda o'quvchilar qah-qah urib kulsalar ham u indamay o'tiradi. U bir yil sinfdan qolishi haqidagi xabarni eshitdi. Ammo bemalol ishlab o'tiraverdi.
G. Sinfdagi o'qo'vchilardan biri qattiq gunoh ish qilib qo'ydi. Sinf majlisi chaqirildi. Bolalar o'rtoqlarini qattiq tanqid qildilar. Ba`zi so'zga chiqqanlar ,hatto « sen kollektivimizni uyatga qo'yding,nomussiz »,–deya asabiylashdilar. So'ngra YUnusning o'ziga so'z berildi.Uning oqargan ,qattiq iztirobda,doska oldiga chiqib,bir qancha vaqt indamay turdi-da ,portfeli,bosh kiyimini qoldirib,chopgancha ,sinfdan chiqib ketdi.Kechga tomon o'qituvchisi YUnusning uyiga borgan edi,u krovatda ,boshini yostiqqa burkab yig'lab yotganini ko'rdi.
**Dars yakuni:** His tuyg'ular inson faoliyatida boshqaruvchilik rolini bajaradi.

**Asosiy adabiyotlar**:
1.Q.Daminov, O'.Otavalieva, X.Ibrohimov. Seminar va labaratoriya mashg'ulotlari. Toshkent -1994 y.
2.Rogov E.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa .1-2-chast-Moskva-1999g.
3. V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent-1999y.

**Qo'shimcha adabiyotlar**:
1. R.S.Nemov. Prakticheskaya psixologiya. Moskva-1998g.
2. B.TS.Badmaev. Psixologiya: kak eyo izuchit i usvoit. 1997g.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**
**1.Hissiyot turlarini tahlil qilish.**
1.1. Emotsiyalarni ta`riflab bering va misollar keltiring.
1.2. Asosiy hissiy holatlarni ta`riflab, misollar keltiring.
1.3.Stress tushunchasini ta`riflang va misollar keltiring.

1.4 To'satdan ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta`sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan hissiy holatga misollar keltiring.
1.5 His-tuyg'ular turlariga misollar keltiring.
Masalan, maktab o'quvchisi o'zi uchun biron yangilik ochish yoki biror narsani bilib olish ishtiyoqida emas, balki kattalarning talablarini bajarish majburiyati orqasida yoki o'rtoqlaridan orqada qolib ketishdan qo'rqqani uchun dars tayyorlay boshlaydi va h.k.

**Modul bo'yicha yakuniy mashg'ulot.**

1. Tafakkur oliy darajada bilish jarayonidir
2. Tafakkur mohiyatni aks ettirish demakdir.
3. His tuyg'ular atrof muhitga bo'lgan munosabatlar yig'indisidir.
4. His tuyg'ular inson faoliyatini boshqaradi.
5. Emotsional holatlar psihogen faktorlarni tashkil etadi.
6. Affekt holatida ongning nazorati yo'qoladi.
7. His tuyg'ular manaviy axloqiy sifatlarga ta`sir ko'rsatadi.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. VilyunasV.K.Psixologiya emotsionalnix otnoshtnit.- M., 1976
2. Simonov V.P. Emotsionalno'y mozg. - M., 1981
3. YAkobson P.M. Emotsionalnaya jizn shkolnika. - M.:Prosvehenie, 1966
4. Izard K.E. Emotsiya cheloveka - M.:MGU, 1980
Umumiy psixologiya ( A.V.Petrovskiy taxr.ostida) - T.,1993

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. -T. O'qituvchi, 1990.
2.Gonobolin F.N. Psixologiya. - T., 1978.

## IRODA

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar**

1. Iroda haqida tushuncha.
2. Irodaviy aks strukturasi.
3. Kishining irodaviy fazilatlari va ularni shakllantirish.

**Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar va iboralar:**
Ihtiyoriy va ihtiyorsiz harakatlar, o'z-o'zini boshqarish, istak va motivlar kurashi, abuliya, apraktsiya, yalqovlik, tashabbuskorlik, dadillik, qat`iyatlik.
**Mavzuga oid muammolar:**
-Qaror qabul qilish tezligi individual psixologik jihatlar bilan bog'liqligi nimada? Fikringizni aoslang.
-Irodani shaxs faolligining shakli deb qarashimiz mumkinmi?
-Irodasi sust bo'lgan kishilar o'z xatti-harakatlarida dadillik, qaysarlik kabi jihatlarni namoyon qila oladimi? Fikringizni asoslang.
-Qaror qabul qilishda irodaviy sifatlarning ahamiyati bormi? Dalillang.

**1-asosiy savol.** Iroda xaqida tushuncha.

**Dars maqsadi:**
Talabalarga iroda haqida tushuncha berish. Irodaviy xususiyatlarni singdirish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**

1. Oldindan mo’ljallangan, maqsadga muvofiq harakatlarni izohlaydi.
2. Iroda shaxs faolligining shaklidir-tushunchasining mohiyatini ochadi.
3. Irodani undovchi va tormozlash vazifasini ajratadi.

**1-savol bayoni:**

Iroda shaxs faolligining shaklidir: Iroda - bu kishining oldiga qo’yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o”tishga qaratilgan faoliyati va xulq atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o’z o’zini boshqarish demakdir. Iroda - bu shaxs faolligining aloxida shakli, uning xulq atvorini tashkil etishning u tomonidan qo”yilgan maqsad bilan belgilanadigan aloxida turidir. Iroda o’zaro bog’liqligi bilan ikkita vazifaning - undovchi va tormozlash vazifasini bajaradi. Undovchi vazifa kishining faolligi bilan taminlaydi. Irodaning undovchi vazifasi bilan uning tormozlash vazifasi faollikning yoqimsiz ko’rinishlarni jilovlashda namoyon bo’ladi.

Determinizm va iroda erkinligi filosofiya va psixologiyada idealizm nazariyasiga binoan kishi irodasini xech narsa bilan belgilamaydigan va xech narsa bilan bog’liq bo’lmagan u yoki bu harakatni tanlash va amalga oshirish imkonini beradigan kuch deb qaraydi. Bunda butun psixik faoliyat xech narsa bilan belgilanmaydigan; ongsiz ravishda bo’ladigan dastlabki faollikka bo”ysungan bo’ladi

Iroda va tavakkal :kishining tavakkalchilik sharoitidagi xati harakati irodaning xarakterli ko’rinishlaridan biri sifatida namoyon bo’ladi.

Tavakkalchilik- bu subekt uchun uning cheki no`malum va muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda mumkin bo’ladigan noqulay oqibatlar haqidagi taxminlar mavjudligi sharoitidagi faoliyatning harakteristikasidir.

**2-savol. Irodaviy akt strukturasi.**

**Dars maqsadi:**

Talabalarga motivlar va ehtiyojlar haqida tushuncha berish. Irodaviy zo’r berish holatlarining mohiyatini ochib berish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**

1. Motivlar va ehtiyojlar xususiyatlarini izohlaydi
2. SHaxsning irodaviy sifatlarining mohiyatini to’la ochib beradi.
3. Irodani mustaqil tarbiyalash shartlarini ko’rsatib beradi.

**2-savol bayoni:**

Irodada motivlar va extiyojlar asosiy rol o”ynaydi.

Intilish-xali diferentsiyalashmagan, yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan iborat faoliyat motividir.

Istak- faoliyatning motivi sifatida ehtiyojning yetarli darajada tushunib yetilganligi bilan xarakt yerlanadi .Bunda faqat ehtiyoj obekti emas balki uni qondirishning mumkin bo’lgan yo’llari ham tushunib etiladi. Bunda har bir harakatlar hisobga olinadi va qayta ko’rib chiqiladi va xakozolar...

Irodaviy zo’r berish. Irodaviy aktning eng muxim bo”g’inlari -qaror qabul qilish va uni ijro etish ko’pincha aloxida hissiy holatning irodaviy zo’r berish sifatida tavsiflanadigan holatni kelib chiqishiga sabab bo’ladi.

Kishining irodaviy fazilatlari va ularning shakllantirish:

Irodaning individual xususiyatlarida uning kuchi va kuchsizligi individual xususiyatlarining spektrini qayd qiladi. Kuchli irodaga ega bo’lgan kishilar qo’yilgan maqsadlarga erishish yo’llarida

uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf eta oladilar. Ayni chog'da qat`iylik mardlik ,jasurlik chidamlilik kabi irodaviy fazitlatlarni namoyon qiladi.
Irodani tarbiyalash va uning o'zini-o'zi tarbiyalashi:

Irodaning ahloqiy tarbiyalanganligi, agar xal qiluvchi bo'lmasa ham muxim ahamiyatga egadir. Irodani mustaqil tarbiyalash usullari juda ham har xil bo'lishi mumkin ekan, lekin ularning hammasi quyidagi shartlarga amal qilishni o'z ichiga oladi:

1. Irodani tarbilashni nisbatan arzimas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Oldingi unchalik katta bo'lmagan qiyinchilikni, vaqt o"tishi bilan ancha katta qiyinchiliklarni muntazam ravishda yengib borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi.
2. Qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma`lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi
3. Kabul qilingan qaror bajarilishi shart: Qabul qilingan qarorning bajarilishi yana va yana kechiktirilaversa kishining irodasi izdan chiqadi. Qabul qilingan qarorlarning muntazam ravishda baajarilmasligi kishi irodasini intizomsiz qilib qo'yadi.
4. Agar kishi uzoqqa mo'ljallangan maqsadni oldiga qo"ygan oqibatda uzoq istiqbolni nazarda tutishi lozim. Irodasi bo'sh odamlar o'z ishlarini tashkil qila olmaydilar.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Irodani inson faoliyatidagi o'rni nimada? Fikringizni asoslang.
2. Irodani undovchilik jixatlarini aniqlang va misollar keltiring.
3. Irodani tormozlovshilik jihatini tushuntiring.
4. Irodaviy sifatlar qanday vaziyatlarda namoyon bo'ladi?

**Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1. Irodaviy sifatlarni tarbilash texnalogiyasini yaratish.
2. Irodaning o'quv faoliyatidagi o'rnini kuchaytirish.
3. Irodaviy sifatlarning ijtimoiy tabiatini o'rganish.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

1. Iroda - bu kishining oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib otishga qaratilgan faoliyati va xulq atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z o'zini boshqarish demakdir.
2. Irodada motivlar va extiyojlar asosiy rol o"ynaydi.

## MAVZU: TEMPERAMENT

**Ajratilgan** vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**

1. Temperament haqida tushuncha.
2. Temperamentning fiziologik asosi.
3. Temperamenttiplari.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

shaxsning individual tipologik jihati, temperament, markaziy nerv sistemasining tiplari, ekstrovertiv, iktrovertiv jihat, stabillik, sustkashlik, aktivlik, reaktivlik, songvinik, xolerik, flegmatik, Krechmer tipologiyasi.

**Mavzuga oid muammolar:**

-Sizningcha, Gippokratning psixologiya faniga qo'shgan xissasi nimada?
-Melanxolik tipidagi shaxs dadillik jihatini o'zlashtira oladimi?

-Xoleriklarda irodaviy sifat ko'rinishlaridan bo'lgan-o'zini tuta olish jihatini singdirish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
-Xarakatchanlik bilan mehnatsevarlik orasidagi farq nimada? Sustkashlik bilan dangasalik orasidagichi?
-Xoleriklar bilan flegmatiklarning o'xshashlik va farq qiladigan jihatlari nimada?
-Xarakatlari sust, intravert shaxs mehnatsevar, dilkash bo'lishi mumkinmi?
-Maxsus psixologik testlar yordamida shaxsning asl tipologik jihatini aniqlash mumkinmi?
-SHartli reflekslarning xosil bo'lish tezligi miyaning tipologik jihatlari bilan bog'liqmi? Fikringizni asoslang.
-Organizmdagi suyuqliklar nisbatini temperament tiplariga ta`iri bormi?

**1- savol. Temperament haqida tushuncha.**

**Dars maqsadi:**
Temperament va uning tiplari haqida ma`lumot berish. Talabalarga temperament tiplarining faoliyat jarayonidagi ta`sirini ochib berish va ularni faol bo'lishga odatlantirish.
**Identiv o'quv maqsadi:**
1. Temperament ta`rifini izohlab beradi.
2. "Temperament" tushunchasiga psixologiya faniga olib kirgan olim haqida ma`lumot.
3. Temperament turiga bog'liq bo'lgan psixik faoliyat ko'rinishlarini ajratib chiqadi
4. Temperamentning asosiy xususiyatlarini xarakter sifatlari bilan taqqoslaydi.

**1-savoli bayoni:**
Temperament va xarakter odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladigan individual xususiyatlardir.Kishining temperament va xarakter xususiyatlari bir-biriga shunday yaqindan bog'lanib ketgandirki, ularning qaysi biri temperamentga va qaysi biri xarakter xususiyatlariga taaluqli ekanligini odatda xayot sharoitida ajratish qiyin bo'ladi.

Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma`nosi aralashma demakdir.

Temperament termini antik fanning indevidual psixologiya farqlari tabiatiga bo'lgan qarashlariga borib taqaladi. Kadimgi yunon meditsinasi uning yirik vakili Gipokrat (er.old. V-asr) siymosida organizmning holati asosan "sharbat"larning ya`ni, organizmda mavjud suyuqliklarning (qon, limfa, ut) miqdoriy nisbatiga bog'liqdir deb hisobladi. Fanda "temperament" termini muxim o'rin oldi va hozirgi kunga qadar kishilarni teperamentiga muvofiq to'rt gruppaga ajratish o'z ahamiytini saqlab koldi.

Temperament deganda biz, odatda, kishining tabiiy tug'ma xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan individual haqida umumiy tushuncha xususiyatlarini tushunamiz.

Temperament, psixologik jihatdan alohida, kishidagi hissiyotning kuzatilishida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko'rinadigan ideal xususiyatdir.

Har qaysi kishidagi hissiyotning qo'zg'alish tezligi kuchi va barqarorligi har xil bo'ladi. Bir xil odamlarning hissiyoti tez, kuchli qo'zgaladi va barqaror bo'ladi.

**Muhokama uchun savollar:**
1. "Temperament" tushinchasini birinchi bo'lib kiritgan mutafakkir olim kim?
2. Psixik faoliyatning qaysi ko'rsatmalari temperament turlariga bog'liq.
3. Temperament ta`rifni yozing, tavsif bering va misollar keltiring.
4. Quyida berilgan xususiyatlardan temperament turlariga xos bo'lganlarni ajrating.
Tezkorlik printsipiallik
Dalillik ozodalik

Reaktivlik mehnat sevarlik
Ko"ngilchanlik mehribonlik
Sustkashlik

**2-savol. Temperament tiplari.**

**Dars maqsadi:**
Temperament tiplarini xarakterlab berish. Ularning talaba faoliyatidagi o'rnini ochib berish: Ahloqiy sifatlarni temperament tiplariga bog'liqligini ko'rsatish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**
1. Temperamentni ma`lum turlarga ajratishi asosini argumentlaydi.
2. Teperamentni tiplari buyicha tavsiflaydi.
3. Tayyor metodika orqali, tadqiq qilib, temperament tiplarini aniqlaydi.
4. Mahsus psixologik test bilan xarakter xususiyati tekshirib ko'radi.
5. Temperament jihatlari va xarakter xususiyatlarini taqqoslaydi.

**2-savol bayoni:** Temperament tiplari.

Barcha temperamentlarni qadimdan 1. Xolerik, 2. Sangvinik, 3. Melanxolik, 4. Flegmatik temperamentga ajratish rasm bo'lgan.

Xolerik temperament -hissiyotning tez va kuchli qo'zg"aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko'rinib turadi. Xoleriklar qizg'inlik va tejamkorlikka moil bo'ladilar. Bu xil temperamentli bolalar serg"ayrat bo'ladilar. Ular bir ishga tez kirishadigan va boshlagan ishni oxiriga etkazadigan bo'ladi.

Sangvinik temperament -hissiyotning tez, kuchli qo'zgaluvchanligi, lekin barqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez -tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog"i mumkin. Sangviniklardagi jihat prinsplar, xoleriklardagi singari, tez bo'ladi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serg'ayrat. Bir zayldagi ishlarni uzoq, davomli suratda boshqarishga moil bo'lmaydilar.

Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat ildam va chaqqon bo'ladilar.

Melanxolik temperament--hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg"aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Melaixmaliklar barqaror, davomli bir kayfiyatda moil bo'ladilar, lekin hissiyotlaring tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. melaixmaik temperamentli kishilar ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishini oxiriga etkazmay qo'ymaydi.

Flegmatik temperament -hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan xarakterlanadi.
Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarning tashqi kiyofasi quchsiz bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlarni xursand, xafa qilish yoki gazablantirish ancha qiyin. Flegmatiklarning psixik prinsplari sust bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlar nixoyat og"ir, yuvosh, bosiq, harakatlari salmoqli bo'ladi. agar bir faoliyatga kirishsalar, uni qat`iyan davom ettiradi.

Har qaysi odam temperamentini batamom bir hil doirasigagina "sigdirib bo'lmaydi". Tip tushunchasining o'zi faqat bir-biriga o'xshash bir guruh odamlarnigina o'z ichiga oladi.

**Muhokama uchun savollar:**
1. Temperamentni ma`lum turlarga ajratish asosini izohlab bering.
2. Temperamentning turlari buyicha ajratib chiqish.
3. G. Ayzenk test usuli orqali temperament turini aniqlang.
4. "Uzingizni bilasizmi" test usuli orqali harakat jihatlarini tekshiring.

5. Temperament turi jihati va xarakter xususiyatini solishtiring.
6. Muvozanatli, kuchli va ildam tip. Kaysi temperament tipiga mansub ekanligini ayting.

**3-savol. Temperamentning fiziologik asosi.**

**Dars maqsadi:**
Talabalarga markaziy nerv sisteiasining tipologik xususiyatlarini ochib berish va aqliy faoliyatdagi o'rganishni ko'rsatish.

**Identiv o'quv maqsadlari.**
1. Temperament tiplari asosida markaziy nerv sistemasining tipologik xususiyati yoritishini tushuntirib beradi.
2. Temperament asosida turuvchi nerv sistemasi xususiyatlari izohlaydi.
3. Markaziy nerv sistemasi tipologiyasi asosida temperament tiplari tavsiflanadi.
4. Temperament jihatlarini bog'laydi.

**3-savol bayoni: Temperament nerv fiziologik asosi.**

I.P. Pavlov itlar ustida ko'p tajribalar o'tkazib, reflekslarni tekshirishi natijasida, xayvonlar nerv sistemasining: a) qo'zg'alish va tormozlanishning kuchiga, b) bu printsplprning muvozanati va v) ularnnig ildamlik darajasiga karab bir -biridan farq qilishini aniqlagan.

I.P.Pavlov ajratishicha, nerv sistemasining kuchi xususiatlardagi fiziologik moddalarning zapas miqdori bilan belgilanadi.Kuchli tipdagi nerv sistemasida bunday zapas ko'p miqdorda bo'lib, kuchsiz tipda ozdir.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilariga karab, nerv sistemasining kuidagi turt asosiy tiplari ajratiladiki, bular, I.P. Pavlov fikricha, Gipokratning turtta temperament tipiga to'g'ri keladi:

A). Kuchli, muvozanatli va epchil tip. Serharakat tip. Bu tip sangvinik temperament asosini tashkil etadi.

B). Kuchli, muvozanatli inert, sustkash tip. Ogir vazmin tip. Flegmatik temperamantning asosini tashkil etadi.

V). Kuchli, lekin muvozanatsiz, ya`ni qo'zg'alish tormozlanishdan ustun chiqadigan, qizg'in, jo'shqin tip. Bu xolerik temperamentning asosini tashkil etadi.

G). Kuchsiz tip. Malaxolik temperamentning asosini tashkil etadi. I.P. Pavlov nerv faoliyatining bunday tiplari odamlarga ham xos deb hisoblaydi. "Xayvonlar nerv sistema tiplarini klassifikatsiyalashning elementar fiziologik asoslariga suyanib turibdi deydi I.P. Pavlov, -ana shu tiplarni ko'pchilik odamlarga nibatan ham kabul qilish lozim".

Nerv faoliyatining o'zi qandaydir o'zgarmaydigan bir narsa emasligini I.P. Pavlov takror - takror uqtirib o'tgan. Nerv sistemasining faoliyati "turmush beradigan tarbiya ta`siri bilan" o'zgarishi mumkin va bir shaklga kirgan nerv faoliyat tug'ma nerv deyiladi.

**Muhokama uchun savollar:**
1. Temperament tipi asosida markaziy nerv sistemasining tipologik jihati turishini aniqlagan tadqiqot nomini ayting.
2. Temperament asosida turuvchi nerv sistemasi xususiyatlarini sanab bering.
3. Nerv sistemasi jihati asosida paydo bo'ladigan temperament tiplarini tavsiflang.
4. Temperament jihatlarini baholang.

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**
1. Ta`lim jarayonida temperament tiplari xususiyatlarini o'zlashtirishning ahamiyati.
2. M.N.S. jihatlarining aqliy faoliyat dinamikasiga ta`siri.

**Laboratoriya mashg'uloti:Temperament.**

**Dars maqsadi:**Teperament tiplarini aniqlash. Temperament jihatlarini boshqarishni o'rgatish.

**Identiv o'quv maqsadi:**

1. Temperament ta`rifini beradi.
2. Temperament turlarini aniqlaydi.
3. Temperament tipini aniqlash usulini belgilaydi.
4. Temperament tiplarini psixologik tasnifini beradi.

**Ishni bajarish tartibi**. SHaxsning emotsional qo'zg'olishi va barqarorligini tekshirish,shu bilan birga uning temperament tiplarini aniqlash.

Zarur vositalar: sekundomer ,qator so'zlar,gilam,stolstul,quti,gazeta,tartibsizlik,devor,vaza,maysazor,plita,mavsum,polotno,qo'l,berahm ,panja,tugma,rahbar,kuzov,antena,sandiq,chaqimchi,shubha,daraxt.

Topshiriqning bajarilishi.Eksperimentator sekin-asta so'zlarni aytadi(bir minutda beshta so'z). Sinaluvchi har bir eshitgan so'ziga birinchi bo'lib fikrida paydo bo'lgan so'z bilan tezda javob berishi kerak.Qo'zg'ovchi berilgan paytdan to sinaluvchining javobi boshlangunga qadar o'tgan vaqtni,ya`ni reaktsiya vaqti protokolga qayd etib boriladi.

Bajarilgan topshiriqning natijalarini ishlab chiqish.Ish natijalari quyidagi jadvalda qayd etiladi:

| Qo'zg'otuvchi so'z | sinaluvchining javobi | reaktsiyaning latent vaqti(sek.) |
|---|---|---|

So'ng grafik tuziladi,uning abtsissa o'qida reaktsiya vaqti belgilab beriladi,ordinata o'qida esa-qo'zg'ovchi so'zning tartib nomeriga mos tushgan nomer belgilab qo'yiladi.

25 ta qo'zg'ovchi so'zdan 5 tasi emotsianal ahamiyatli,20 tasi esa neytral. Reaktsiyaning latent vaqti emotsional ahamiyatli va neytral so'zlarga bo'lgan nisbati emotsional qo'zg'olish va emotsional barqarorlikning ko'rsatkichi bo'ladi. Agar bu ikki vaqt ko'rsatkichi teng yoki salkam teng bo'lib ,grafik chiziqlari tutashsa yoki bir-biriga yaqin bo'lsa,sinaluvchi bu holda emotsional barqaror deb hisoblanadi.Agarda bu ikki vaqt ko'rsatkichi tubdan farq qilib,grafik chiziqlari yiroqlashgan bo'lsa , sinaluvchi emotsional qo'zg'olgan bo'ladi.Olingan natijalar asosida yana bitta jadval tuziladi:

| Sinaluvchining ismi, familiyasi | Sinaluvchining emotsional xususiyati | Temperamentning tahminiy tipi |
|---|---|---|
| 1. | | |
| 2. | | |
| 3. | | |

**Mashg'ulot yakuni:**

-Temperament tiplari tug'ma xususiyat bo'lib hayot davomida deyarli o'zgarmaydi.

-Temperament tiplari o'quv faoliyatida muhim o'rin tutadi.

**Kerakli adabiyotlar:**

1.B.Mamajonov,M.Muzaffarov.Umumiy psixologiyadan amaliy ishlar.Toshkent.1978.

2. Gonobolin F.N. Psixologiya. - T., 1978.

**Qo’shimcha adabiyotlar**:
1.R.S.Nemov.»Prakticheskaya psixologiya»-Moskva-1998g.
2.B.TS.Badmaev.»Psixologiya:kak eyo izuchit i usvoit».- 1997g.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**
Aloxida olingan bir shaxsning temperament tipini aniqlash va psixologik xarakteristika berish.
-Markaziy nerv sistemasining tiplari qanday omillarga asoslanib farqlanadi? Nima sababdan? Misollar keltiring.
-M.N.S. kuchi, muvozanati, faolligi darajasi temperament tiplari xususiyatlarida o’z ifodasini topadimi? Misollar keltiring.

**Mavzu bo’yicha asosiy xulosalar:**
**1.** Temperament va xarakter odamning ijtimoiy munosabatlarida yakkol namoyon bo’ladigan individual xususiyatlardir.Kishining temperament va xarakter xususiyatlari bir-biriga shunday yaqindan bog’lanib ketgandirki, ularning qaysi biri temperamentga va qaysi biri xarakter xususiyatlariga taluqli ekanligini odatda xayot sharoitida ajratish qiyin bo’ladi.
**2.** Barcha temperamentlarni qadimdan 1. Xolerik, 2. Sangvinik, 3. Melanxolik, 4. Flegmatik temperamentga ajratish rasm bo’lgan.
**3.** I.P. Pavlov itlar ustida ko’p tajribalar o’tkazib, reflekslarni tekshirishi natijasida, xayvonlar nerv sistemasining: a) qo’zg’alish va tormozlanishning kuchiga, b) bu printsplprning muvozanati va v) ularnnig ildamlik darajasiga karab bir -biridan farq qilishini aniqlagan.

## X A R A K T E R

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**
1. Xarakter haqida tushuncha
2. Xarakter strukturasi
3. Xarakterning tabiati va namoyon bo’lishi

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
Xarakter, xarakterning irodaviy, emotsional, intellektual sifatlari, individual yondashuv, barqaror, ziddiyatli xarakter, vijdonlilik, xarakter xususiyatlari, shaxsning yo’nalganligi, xarakter aktsentuatsiyasi, psixopatiya, introvert, ekstravert, boshqarib bo’lmaydigan, senzitiv, namoyishkorona tip. Nerv sistemasi tipi, integral xarakteristika, qarshilik ko’rsatish, fiziologik sistema, frenologiya, fiziognomika.

**Mavzuga oid muammolar:**
-Xarakter tug’ma xususiyatmi yoki hayot davomida shakillanadimi?
-Ison xarakterining tashkil etuvchi omillari nimalardan iborat? Fikringizni asoslang.
-O’qituvchi o’quvchi xarakteridagi individual farqlarni e`tiborga olishi kerakmi? Dalillang.
-Xarakter xususiyatlari o’rtasida qonuniy bog’liqlik mavjudmi?
-Insoniy munosabatlarda xarakter xususiyatlarini ko’rish mumkinmi?

**1-asosiy savol.**
Xarakter haqida tushuncha.

**Dars maqsadi:**
1. Ta`limiy - xarakterning ta`rifi va tarkibiga oid tushunchalar berish;

2. Tarbiyaviy - talabalarda inson xarakteriga xos ijobiy hislatlarni tarbiyalash;
3. Rivojlantiruvchi - pedagogik o'quv malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish.

**Identiv uquv maqsadlari:**

1. Xarakterning ta`rifi va uning mohiyatini ochib bering.
2. kishi xarakterini tashkil etuvchi individual xususiyatlarni ko'rsating.
3. Pedagog o'quvchi xarakteridagi individual xususiyatlarni hisobga olishi lozimligini asoslang.

**1-asosiy savolning bayoni:**

Grekchadan tarjima qilganda, "xarakter" - bu "zarb qilish", "belgi" demakdir. Xakikatan ham, xarakter - kishining jamiyatda yashab egallaydigan aloxida belgilaridir. SHaxsning individualligi psixik jarayonlarning utish xususiyatlarida (yaxshi xotira, xael, zexni utkirlik va boshqalar) va temperament xususiyatlarida namoyon bo'lishiga o'xshab, xarakterning hislatlarida ham ko'rinadi.

Xarakter-shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Kishining shaxsi u nima qilayotgani bilan emas, balki uni qanday bajaraetgani bilan xarakterlanadi.

Kishining xarakterini tashkil etuvchi bu individual xususiyatlar birinchi navbatda **IRODAGA** va HIS-TUYG'ULARGA taallukli bo'ladi, lekin ma`lum darajada aqlga ham taalluklidir. Kolaversa, xarakterning namoyon bo'lishi kompleks yaratilgan narsa hisoblanadi va bir kator xollarda amalda irodaviy, emotsional yoki intellektual jarayonlar qatoriga (masalan, shubxalilik, oliyximmatlilik, saxovatlilik, kek saqlash va boshqalar) kiritishga yo'l kuymaydi. Xarakter kishi shaxsining yo'nalishini belgilaydigan ijtimoiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Xarakterning lugaviy ma`nosini ochib bering.
2. SHaxsda muhit va tarbiya ta`siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy aktivligida, tevarak-atrofdagi olamga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatga nima deyiladi? Va nima uchun individual xususiyat deyiladi?
5. Parchani o'qing. SHaxs xarakteri berilgan o'rinlarni motiv va yo'nalishlarini belgilab chiqing,javoblaringizni asoslang.B.Mamajonov.Psixologiyadan amaliy mashgulot. 2 tema, 86 b
6. Xarakterning irodaviy sifatlarini ajrating.

**2-asosiy savol. Xarakterning strukturasi.**

**Dars maqsadi:**

Talabalarga xarakter xususiyatlarining bog'liqligi, shaxsning munosabatlari, xarakter kishi xulq-atvori boshqaruvchisi ekanligi va aktsentuatsiyasiga oid tushunchalar berish; talabalarda xarakterning salbiy tomonlarini (qo'rqoqlik, itoatgo'ylik, xushomadgo'ylik, qizganchiqlik va xk) bartaraf etish va tashabbuskorlik,qat`iylik, mustaqillik, fidokorlik, oliyximmatlilik singari ijobiy xarakter xususiyatlarini tarbiyalash va rivojlantirish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Xarakterning strukturaliligi va uning ayrim xususiyatlari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikni ochib bering. Misollar keltirib, dalillang.
2. Xarakterning xususiyatlari va shaxsning munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlik va uning ahamiyati, mohiyatini ochib bering.
3. Xarakter xususiyatlari aktsentuatsiyasi mohiyatini ochib bering.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Inson shaxsining xarakteri ko'p qirralidir. Unda aloxida xususiyatlar yoki tomonlar ajratib ko'rsatilishi mumkin, lekin ular bir-birlaridan ajratilgan, aloxida holda mavjud bo'lmaydi, balki ma`lum darajada xarakterning barqaror tuzilishini tashkil etgan holda o'zaro bog'liq bo'ladi.

Xarakterning strukturaliligi uning ayrim xususiyatlari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Agar kishi qo'rqoq bo'lsa u tashabbuskorlik, kat`iylik, mustaqillik, javobgarlik, fidokorlik, oliyximmatlilik fazilatlariga ega bo'lmaydi.

Introvert tipi: uning uchun odamovilik, muomalada va atrofdagilar bilan aloqa o'rnatishda qiynalish, o'zi bilan o'zi bo'lib qolish xos;

Ekstravert tipi: bunga his-xayajonga tamomila berilganlik, ba`zan muomala va faoliyatning zarurligi va kimmatidan kat`iy nazar unga intilish, ko'p gapirish, kizikishlarning doimiy emasligi, konformlilik xos;

Boshqarib bo'lmaydigan tip: bunga g'ayritabiiylik, munozaralilik, e`tirozlarga murosasizlik, ba`zan esa shubxalanib qarash xosdir.

Senzitiv tip: uchun qo'rkoklik, odamovilik, tortinchoklik xosdir. Senzitiv O'smirlar katta va buning ustiga yangi ulfatlarga qo'shilishdan kochishadi, tengqurlarining shuxliklarida va kaltis ishlarida katnashmaydilar,yosh bolalar bilan o'ynashni afzal ko'radilar, nazorat ishlardan ko'rkishadi, ayrim vaktlarda xato qilib, sinfdoshlarining kulgisiga sabab bo'ladilar, sinf oldida javob berishdan tortinadi. SHunday bolalarni ijtimoiy ishga jalb etish, faollar safiga taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Parchani o'qing. Mirzakarimboyning xarakteriga xos hislatlarni aniqlang. ( B.Mamajonov. 2 tema, 87 bet).
2. Nima uchun kishi qo'rqoq bo'lsa, u tashabbuskorlik, kat`iylik, mustaqillik, fidokorlik va oliyximmatlilik fazilatlariga ega bo'lmaydi deb aytish mumkin? Fikrlaringizni xayotiy misollar bilan asoslang.
3. Kishining xarakteri uning boshqa odamlarga, o'ziga, ishiga, narsalarga munosabatlarida namoyon bo'ladi deyiladi. Misollar keltirib dalillang.
4. Xarakterga urg'u berishning (aktsentuatsiya) eng muxim turlarini aloxida ajratib ko'rsating:

   Intravert, appertseptsiya, ekstravert, agglyutinatsiya, boshqarib bo'lmaydigan tip, illyuziya, sinesteziya, senzitiv, adaptatsiya, namoyishkorona, affekt.
5. His-xayajonga tamomila berilganlik, ba`zan muomala va faoliyatning zarurligi va kimmatidan qat`iy nazar unga intilish, ko'p gapirish, qiziqishlarning doimiy emasligi, ba`zan maqtanchoqlik, yuzakichilik, konformlilik xos tip bu nima?

**3-asosiy savol:**

Xarakterning tabiati va namoyish bo'lishi.

**Dars maqsadi:**

A) ta`limiy-talabalarga xarakter va temperament, kishi tashqi ko'rinishi, xarakterning shakllanishiga oid bilimlar berish.
B) Tarbiyaviy - darsda talabalarni ijobiy xarakter hislatlarini temperamentlar asosida tarbiyalash;
V) rivojlantiruvchi - xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotish va ijobiy tomonlarini rivojlantirish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Xarakter va temperamentning bog'liqligini asoslash.

2. Xarakterning tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlari bog'liqligi va o'ziga xos tomonlarini ochib berish.
3. Xarakter va kishining tashqi ko'rinishi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash.
4. Xatti-harakat va xarakterning shakllanishini izohlash.
5. Xarakter va holat bog'liqligini dalillash.

**3-asosiy savol bayoni:**

Xuddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga va avvalo, nerv sistemasi tipiga bog'liqdir. Temperamentning xususiyatlari xarakterning ko'rinishlariga o'z ta`sirini ko'rsatadi, ularning paydo bo'lishi va kechishining dinamik xususiyatlarini belgilab beradi.

Xarakter ko'p jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash natijasidir. Xarakterda kishining odatlari jamlanadi. Xarakter odamlar faoliyatida namoyon bo'ladi va shu faoliyatda shakllanadi.

Xarakterlar ta`limotlari tarixidan:

Kadimgi Gretsiyada Arastu (Aristotel), Sukrot (Sokrat), Aflotun (Platon) kishi xarakterini basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar

Frenologiya ta`limotiga binoan (nemis vrachi Gallning nomi bilan bog'langandir) xarakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat`iy ixtisoslashgan markazlariga egadir deb tasdiqlaydi. Bu fazilatlarning rivojlanish darajasi miyaning tegishli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir deb yozgan ekan Frants Gall.

Xatti-harakat va xarakterning shakllanishi: Xarakter kishining tashqi ko'rinishiga ta`sir qilarkan, uning xatti-harakatlarida, xulq-atvorida, faoliyatida yorkin ifodasini topadi. Xarakter to'g'risida avvalo odamlarning xatti-harakatlari asosida xukm chiqarish kerak. Ularning mohiyati ana shu xatti-harakatlarda ancha to'laroq aks etadi

**Muhokama uchun savollar:**

1. Temperament xususiyatlari xarakterning muayyan tomonlari rivojlanishiga qarshilik ko'rsatish yoki yordam berishi mumkin. Temperament tiplari asosida misollar bilan dalillang
2. Xarakterning tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarini sanab bering va misollar keltiring.
3. Oliy nerv faoliyat tiplari buyicha qaysi temperamentlar kelib chiqadi va ular xarakteridagi ustunlik qiluvchi belgilar nimalarda namoyon bo'ladi? Aniklang va ayting.
4. Xarakter so'ziga izoh bering.

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1. Xarakterning ijtimoiy tabiatini o'rganish.
2. Ma`anviy –axloqiy sifatlarni tarbiyalash texnalogiyasini yaratish.

**Laboratoriya topshiriqlari.**

**Mavzu. Xarakter.**

Dars maqsadi. **Xarakter xususiyatlarini aniqlash. O'z sifatlarini taxlil qilishni o'rgatish**.

**Identiv o'quv maqsadi.**

1. Xarakterni ta`riflaydi.
2. Xarakter sifatlarini o'rganish usulini aniqlaydi.
3. Ayrim shaxslarning xarakteriga hos xislatlarini taxlil qiladi.

**Ishni bajarish tartibi.** Parchani o'qing, buyuk tabiatshunos olim I.V.Michurin xarakteriga xos xislatlarni aniqlang ularni tahlil qiling.

Mening yosh do'stlarim, biz shunday zamonda yashamoqdamizki,bu zamonda odamning eng oliy maqsadi dunyoni tushuntirib berishdan iboratgina emas,balki uni o'zgartirish va yaxshilashdan

ham iboratdir… men o'simlik navlarini yaxshilash ustida 60 yildan beri ishlab kelmoqdaman. Odamlar meni juda ko'p ish qildi deydilar. Men shuni aytardimki,bu qilingan ishlar hali qilinishi mumkin va zarur bo'lgan ishlarga qaraganda unchalik ko'p emas.Kelgusi avlodga jumladan, mening yosh do'stlarim,sizlarga ko'p ish qilishga to'g'ri keladi. (I.V.Michurindan.)

**Dars yakuni:**

Xarakter  ijtimoiy omillar asosida shakllanadigan xususiyatdir.

Harakter jixatlarini tormozlovchi va qo'zg'atuvchi psixologik usullar yordamida shakillantiriladi.

**Kerakli adabiyotlar:**

1.B.Mamajonov,M.Muzaffarov. Umumiy psixologiyadan amaliy ishlar.Toshkent.1978.

2. Gonobolin F.N. Psixologiya. - T., 1978.

**Qo'shimcha adabiyotlar**:

1.R.S.Nemov.»Prakticheskaya psixologiya»-Moskva-1998g.

2.B.TS.Badmaev.»Psixologiya:kak eyo izuchit i usvoit».- 1997g.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Quyidagi parchani o'qing. Undagi ikki bola xarakteriga xos hislatlarni topib yozing. Ularni o'zaro taqqoslang va xulosa chiqaring. (B.Mamajonov. Umumiy psixologiyadan amaliy ishlar.- T.:O'qituvchi,1978.- 84-bet.)

2.Ushbu parchadan so'zlovchi bolaga xos xarakter hislatlarini topib yozing. (B.Mamajonov. Psixologiyadan  amaliy mashgulotlar. - 2 tema, 83 bet).

3. Kuyidagi parchani o'king. Undagi ikki bola xarakteriga xos hislatlarni topib yozing. Ularni o'zaro taqqoslang.  (B.Mamajonov. Psixologiyadan amaliy mashgulotlar.  2 tema, 84 bet).

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

**1.** Xarakter-shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

2. Xarakterning strukturaliligi uning ayrim xususiyatlari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

3. Xuddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga va avvalo, nerv sistemasi tipiga bog'liqdir. Temperamentning xususiyatlari xarakterning ko'rinishlariga o'z ta`sirini ko'rsatadi, ularning paydo bo'lishi va kechishining dinamik xususiyatlarini belgilab beradi.

## MAVZU:  QOBILIYATLAR.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**

1. Qobiliyatlar haqida tushuncha
2. Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi, strukturasi.
3. Iste`dod va uning paydo bo'lishi, qobiliyatlar va iste`dodning tabiiy  shart - sharoitlari.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Miqdor va sifat xarakteristikasi, kopensatsiya qilish, aqliy istedod testlari, yaqin kelajak zonasini aniqlash, qobiliyatlar strukturalari, pedagogik qobiliyatlar, umumiy va mahsus qobiliyatlar, odamlar tipologiyasi, badiiy iste`dod, iste`dod strukturalari, maxrat, ilxomlanish, iste`dod nishonlari, sezgi organlar mikrosistemalari, nerv diferentsial xususiyatlari, nerv sistemasining partsial xususiyatlari, qobiliyat va irsiyat, sotsial shart-sharoitlar, ta`lim metodikasi, barqaror mahsus qiziqishlar.

**Mavzuga oid muammolar:**

-Sizningcha, bilim, ko’nikma va malakalar bilan qobiliyatlarning tafovuti nimada? Fikringizni asoslang.
-Qobiliyatlar tug’ma jihatmi yoki xayot davomida orttiriladimi? Fikringizni asoslang.
-Bilim, ko’nikma va malakalarning shakllanishi qobiliyatlarda o’z ifodasini topadimi?
-Qobiliyatlarning miqdor va sifat jihatlarini ajratish mumkinmi?
-Ayzenkning «aqliy qobiliyatlarni aniqlash testi»ga asoslanib xulosalar chiqarish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
-SHaxs tiplari bilan qobiliyatlar orasidagi bog’liqlik bormi?
-Qobiliyat bilan iste`dodning farqi nimada? Fikringizni asoslang.
-Iste`dod mehnatdan ozod qiladimi?
-Iste`dod va layoqatlarning tabiiy asosi nimada? Dalillang.

**1 -asosiy savol:** Qobiliyat haqida tushuncha.

**Dars maqsadi:**
Talabalarga qobiliyatlar haqida tushuncha berish, ularda bilim va ko’nikmalarning qobiliyatlaridan farqli tomonlarini farqlashga o’rganish, ta`rifni keltirish mohiyatni ochish, fanga bo’lgan qiziqish .
**Identiv o’quv maqsadlari:**
1. Qobiliyatlarni bilim ko’nikmalar bilan tafovvuti ko’rsatiladi, dalillanadi.
2. Qobiliyatlarga ta`rif beriladi va mazmun mohiyatini ochib beriladi.
3. Qobiliyatlar bilim ko’nikmalarning birligini ko’rsatiladi.
4. O’zlashtirish darajalari: Anglab olish, tushunish, repraduktiv asosiy savolning mazmunining bayoni anglab olish tushinish, reproduktiv .

**1-savolning bayoni:**
Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko’nikma, malakalar ortirishi shu xususiyatlarga bog’liq bo’ladi, lekin shu xususiyatlarning o’zlari mazkur bilim, ko’nikma va malakalarga taaluqli bo’lmaydi.Qobiliyatlar bilim, ko’nikma va malakalarni tez o’zlashtirib olishda namoyon bo’lsa ham, bilmlarni va ko’nikmalarni egalash bilan bog’lanib qolmaydi. Qobiliyatlar va bilimlar, qobiliyatlar va malakalar, qobiliyatlar va ko’nikmalar ayni bir - biriga o’xshash emas. Malakalar, ko’nikma va bilimlarga nisbatan kishining qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namayon bo’ladi. Kishining qobiliyatlari rivojlanishi uchun tevarak atrofdagi odamlar inson faoliyatining tashkil etilishi asosiy rol o’ynaydi. Bolaning musikiy qobiliyatining rivojlanishi uchun unga mahsus ta`lim berilishi, pedagog va bola namoyish qilgan kat`iylik, salomatlikning yaxshi bo’lishi, musika aspobi, notalar va boshqa ko’plar shart -sharoitlar bo’lishi zarur. Bularsiz qobiliyatlar rivojlanmay turibok so’nib ketishi mumkin. Qobilatlar faqat faoliyatda, shunda ham ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo’lmagan faoliyatdagina namayon bo’ladi.

**Muhokama uchun savollar:**
1. SHaxsning mazkur faoliyatini muvoffakiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko’nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namayon bo’ladigan individual-psixologik xususiyat nima deyiladi.
2. Nima uchun malaka ko’nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlarini qandaydir imkoniyat deyishadi? gaplaringizni misollar bilan asoslang?
3. Ikki bola institutga kirayapti deylik ulardan biri imtixonlarni topshirdi, ikkinchisi o’taolmadi.
Xush bundan ularning qaysi biri qobiliyatli ekanligiga baxo bera olamizmi? Dallilar bilan isbotlang.
4. qobiliyatning namayon bo’lishi uchun nimalar kerak? Nega uni urugga o’xshatiladi? Dalillar bilan isbotlang.

5. qobiliyatlar diagnostikasida eng yaxshi natija beradigan yo’l qaysi biri ekanligini ayting.

**2-asosiy savol. Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi, strukturasi.**

**Dars maqsadi.**
a) Ta`limot-talabalarga qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasiga oid tushunchalari.
b) Tarbiyaviy- talabalarda ijobiy qobiliyatlarni tarbiyalash.
v) Rivojlantiruvchi - talabalarda qobiliyatlarning sifat va miqdori tomonlarni ijobiy tomonga rivojlantirish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**
1. Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasini farqlanadi va ajratadi.
2. Qobiliyatlar va faoliyatda umumiy va mahsus qobiliyatlarni izohlash tushuntiradi.
3. Qobiliyatlar va odamlarning tipologiyasi ajratadi.

**2- asosiy savol bayoni**
Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi. qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi deganida biz bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida bilamiz.Uz-o’zidan ma`lumki, bu jihatidan kishilar teng emas.Ana shuning uchun ham qobiliyatlar haqida gap ketganda,bu farqlarni xarakterlab o’tmok kerak.Ular sifatli va miqdoriy bo’lishlari mumkin.Pedagog O’quvchining qobiliyatlari nimaga nisbatan namayon bo’lishini,O’quvchi shaxsning qanday individual-psixologik xususiyatlari faoliyat jarayonniga muvaffakiyatning majburiy sharti sifatida kiritilishini hamda O’quvchi faoliyat tomonidan qo’yilgan talablarni qay darajada bajarish qobiliyatiga egallaganligini,boshqalarga nisbatan malaka,ko’nikma va bilimlarni kanchalik tez,oson va mustaxkam egallay olishini bilish ham muximdir.

Psixologiyada qobiliyatlarni miqdor jihatidan o’lchash muammosi katta tarixga egadir. X1X asrning oxiri va XX asrning boshlarida qator burjua psixologlari (Kettel,Termon,Spirmen ...) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan bog’liq bo’lgan talablar ta`siri ostida ta`lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlash taklif qilib chiqadilar. Bu bilan shaxsning martabalik darajasida tutgan o’rnini va uning u yoki bu mehnat faoliyatida,oliy o’quv yurtlarida ta`lim olishda,ishlab chiqarishda,armiyada va ijtimoiy xayotda raxbarlik lovazimlarini olishga layokatlarni aniqlash taxmin qilingan edi.Usha paytlarda qobiliyatlarni o’lchash usuli sifatida aqliy iste`dod testlaridan foydalaniladi.Ular yordamida qator mamlakatlarda (AQSH, Buyuk Biritaniya, YAponiya va boshqalarda) qobiliyatlarini aniqlash va maktablarda O’quvchilarni saralash,armiyada ofitserlik vazifasini, sanoatda raxbarlik lavozimini egallash va boshqalar amalga oshirilgan va oshirilayapti.

**Muhokama uchun savollar:**
1. Hamma qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat nima?
2. Obrazli fikrlashning aloxida rivojlangan bo’lishini,utkir emotsional ta`sirchanlik va reaktivlikni talab qiladigan qobiliyat turini ayting.
3. Praktik aqlning yuksak darajasida rivojlanganligini, faxm-farosatni, kuchli iroda va etuk kirishuvchanlikni o’z ichiga oladigan qobiliyat turini aniqlang.
4. Eng avval qaysi qobiliyatlar namayon bo’ladi?

**3-asosiy savol. Iste`dod va uning paydo bo’lishi tabiy shart-sharoitlari**.

**Dars maqsadi:**

- Ta`limot - iste`dodning tabiy shart-sharoitlari,uning strukturasi va ijtimoiy tarixiy tabiatiga oid bilimlar berish
- Tarbiyaviy- iste`dod tarbiyasi berish.
- Rivojlantiruvchi qobiliyatlarni yukori bosqichlargacha rivojlantirish.

**Identiv o'quv maqsadlari.**

1. Iste`dodning ijtimoiy tarxiy tabiatni ko'rsatadi.
2. Iste`dodning strukturasini izohlaydi.
3. Iste`dod va maxorat, fatometik qarashlarning xatolari tushuntiradi.
4. Layoqatlar qobiliyat tabiy shart sharoiti va irsiy bilan bog'liq tomonlari ochib beradi.

**3-savol bayoni:**

Qobiliyatlar taraqqiyotning yuksak bosqichi iste`dod deb ataladi.Iste`dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffakiyatli,mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasdir.Qobiliyatlar kabi iste`dod ham faqat ijodiyotda yuksak maxoratga va anchagina muvaffakiyatlarga erishish imkoniyatidan iboratdir.Iste`dodlarning uygonishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqdir.

Iste`dod bu qobiliyatlar yig'indisidan,ularning majmuidan iboratdir. Aloxida olingan yakka qobiliyat,garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorkin ifodalangan bo'lsa ham,iste`dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Iste`dod strukturasi oqibat natijada mazkur faoliyat shaxs oldiga qo'ygan talablar (siesiy, ilmiy, badiiy, ishlab chiqarish, sport, harbiy va shu kabilar) harekteri bilan belgilanadi

Istedod o'zining umumiy va mahsus fazilatlari bilan, ijodiy yutuqlar imkoniyatidan bo'lak narsa emas,u maxoratning dastlabki shariti bo'lib,ammo maxoratning ham aslo o'zi emasdir.
Psixologiya qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olamas ekan,bu bilim miyaning tuzilishiga bog'liq bo'lgan differentsial xususiyayatlari tug'maligini inkor qilmaydi. Bu qobiliyat rivojlanishning dastlabki tabiy shart-sharoitlari sifatidap namayon bo'ladigan miya tuzilishining,sezgi organlari va harakatlarning morfologik va funktsional xususiyatlari bo'lib,ular iste`dod nishonlari deb ataladi.

Iste`dod nishonlari ko'p qirralidir.Faoliyat tomonidan quyilgan talablarning xarakteriga bog'liq ravishda aynan bir xil iste`dod nishonlari asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mukin.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Boqiylikni obrazlar orqali aks ettiruvchi birinchi signal sistemasi ustun bo'lgan kishilar qaysi tipka mansub?
2. Vokiylikning obrazli -emotsional aks etishini ta`minlovchi, birinchi signal sistemasi ustunligi miyaning qaysi qismi bilan bog'liq?
3. Muvoffakiyatli ravishda bilim olishni ta`minlaydigan shaxsning yuksak intetektual taraqqiyoti nima?
4. Muvoffakiyatsiz bajarilgan ishlarga karab odam qobiliyati to'g'risida qatiy xulosa chiqarib bo'ladimi? Javoblaringizni misollar bilan asoslang.

**Mavzuga bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1. Ijodiy faoliyatda qobiliyatlarning o'rnini aniqlash.
2. Iste`dod va qobiliyatlarning tabiiy shart-sharoitlarining yaratilishi.
3. Qobiliyatlarni tarkib toptirish mumkinmi?

**Mustaqil ish topshiriklari.**

1. Kuyida o’qituvchi va sinovchi uchuvchi shaxsiga oid psixologik xususiyatlar berilgan.
A. Keltirilgan xususiyatlardan qaysi biri mazkur kasblar uchun eng zaruriysi ekanini aniqlang.
B. Ulardan qaysi birlari eng ahamiyatli sanaladi, ajratib yozing.
SHaxs xususiyatlari: Xayol va nutkning yorkinligi, kuzatuvchanlik, obrazli -tasirchan tafakkur, harakat xotirasi harakat tezligi, o’zini tuta bilish, o’zini idora qila bilish, qiyinchilikka duch kelganda o’zini yo’qatmaslik tezda xukm chiqara bilishlik, xotirada mustaxkam olib qolish texnik kuzatuvchanlik, hozirjavoblik, tashkilotchilik qobiliyati, emotsionallik.

**Nazorat savollari:**

**1-mavzu.**

1. "Temperament" tushinchasini birinchi bo’lib kiritgan mutafakkir olim kim?
A) I.P.Pavlov. B) Arastu. V) I.M. Sechenov. G) Gipokrat. D) Platon.
2. Psixik faoliyatning qaysi ko’rsatmalari temperament turlariga bog’liq.
A) Psixik harakatning ro’y berish tezligi; B) Davomiyligi;
V) Psixik tempi va ritmi; G) Psixik jarayonlarning intensivligi;
D) Psixik jarayonning yo’nalishi;
3. Temperament ta`rifni yozing, tavsif bering va misollar keltiring.
4. Kuyida berilgan xususiyatlardan temperament turlariga xos bo’lganlarni ajrating.
Tezkorlik printsipiallik
Dalillik ozodalik
Reaktivlik mehnat sevarlik
Kungilchanlik mexribonlik
Sustkashlik
5. Temperamentni ma`lum turlarga ajratish asosini izohlab bering.
6. Temperamentning turlari buyicha ajratib chiqish.
7. G. Ayzenk test usuli orqali temperament turini aniqlang.
8. "Uzingizni bilasizmi" test usuli orqali harakat jihatlarini tekshiring.
9. Temperament turi jihati va xarakter xususiyatini solishtiring.
10. Muvozanatli, kuchli va ildam tip. Kaysi temperament tipiga mansub.aniqlang.
A. Xolerik. V. Sangvinik S. Melanxolik. D.Flegmatik. E. Eydetik.
11. Temperament tipi asosida markaziy nerv sistemasining tipologik jihati turishini aniqlagan tadqiqot nomini ayting.
A) Krechmir. B) Vvedenskiy. V) SHelton. G) Uxtomskiy. D) Pavlov.
12. Temperament asosida turuvchi nerv sistemasi xususiyatlarini sanab utadi.
13. Nerv sistemasi jihati asosida paydo bo’ladigan temperament tiplarini tavsiflang.
14. Temperament jihatlarini baxolang.
A) SHumoral jihatga asoslangan. B) Kontitutsion jihatga asoslangan.
V) Markaziy nerv sistemasi tiplariga asoslangan.
15. His-xayajonga tamomila berilganlik, ba`zan muomala va faoliyatning zarurligi va kimmatidan qat`iy nazar unga intilish, ko’p gapirish, qiziqishlarning doimiy emasligi, ba`zan maqtanchoqlik, yuzakichilik, konformlilik xos tip bu nima? Ko’rsating.
A. Introvert V. boshqarib bo’lmaydigan S. Senzitiv
D. Ekstrovert E. Namoyishkorona
16. Temperament xususiyatlari xarakterning muayyan tomonlari rivojlanishiga qarshilik ko’rsatish yoki yordam berishi mumkin. Temperament tiplari asosida misollar bilan dalillang

**2-mavzu.**

1. Xarakterning lug’aviy ma`nosini ochib bering.

2. SHaxsda muhit va tarbiya ta`siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy aktivligida, tevarak-atrofdagi olamga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatga nima deyiladi? Va nima uchun individual xususiyat deyiladi?

A. Iroda V. faoliyat S. Idrok. D. Hissiyot. E. Xarakter

3. Ushbu parchadan so'zlovchi bolaga xos xarakter hislatlarini topib yozing. (B.Mamajonov. Psixologiyadan amaliy mashgulotlar. - 2 tema, 83 bet).

4. Kuyidagi parchani o'king. Undagi ikki bola xarakteriga xos hislatlarni topib yozing. Ularni o'zaro taqqoslang. (B.Mamajonov. Psixologiyadan amaliy mashgulotlar. 2 tema, 84 bet).

5. Parchani o'qing. SHaxs xarakteri berilgan o'rinlarni motiv va yo'nalishlarini belgilab chiqing,javoblaringizni asoslang.B.Mamajonov.Psixologiyadan amaliy mashgulot. 2 tema, 86 b

6. Xarakterning irodaviy sifatlarini ajrating.

A. Mehnatsevarlik. V.Rostgo'ylik. S.Mexribonlik.

D. Matonatlik. E.Kamtarlik

7. Parchani o'qing. Mirzakarimboyning xarakteriga xos hislatlarni aniqlang. ( B.Mamajonov. 2 tema, 87 bet).

8. Nima uchun kishi qo'rqoq bo'lsa, u tashabbuskorlik, kat`iylik, mustaqillik, fidokorlik va oliyximmatlilik fazilatlariga ega bo'lmaydi deb aytish mumkin? Fikrlaringizni xayotiy misollar bilan asoslang.

9. Kishining xarakteri uning boshqa odamlarga, o'ziga, ishiga, narsalarga munosabatlarida namoyon bo'ladi deyiladi. Misollar keltirib dalillang.

10. Xarakterga urg'u berishning (aktsentuatsiya) eng muxim turlarini aloxida ajratib ko'rsating:

Intravert, appertseptsiya, ekstravert, agglyutinatsiya, boshqarib bo'lmaydigan tip, illyuziya, sinesteziya, senzitiv, adaptatsiya, namoyishkorona, affekt.

11. Xarakterning tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarini sanab bering va misollar keltiring.

12. Kuyidagi oliy nerv faoliyat tiplari buyicha qaysi temperamentlar kelib chiqadi va ular xarakteridagi ustunlik qiluvchi belgilar nimalarda namoyon bo'ladi? Aniklang va ayting.

A) kuchli, muvozanatli, ildam________________________

V)kuchli muvozanatli inert ________________________

S) kuchli muvozanatsiz, ildam________________________

D) kuchsiz, muvozanatsiz, inert________________________

13. To'gri javobni ajrating, izohlang.

Xarakter:

A. Xarakter tug'ma o'zgarmas

V. tug'ma o'zgaruvchan

S. orttirilgan o'zgaruvchan

D. Orttirilgan o'zgarmas

E. Instinktiv ravishda

**3-mavzu.**

1. SHaxsning mazkur faoliyatini muvoffakiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namayon bo'ladigan individual-psixologik xususiyat nima deyiladi.

a) temperament. v) xarakter. s) qobiliyat. d) faoliyat. e) iroda.

2. Nima uchun malaka ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlarini qandaydir imkoniyat deyishadi? gaplaringizni misollar bilan asoslang?

3. Ikki bola institutga kirayapti deylik ulardan biri imtixonlarni topshirdi, ikkinchisi o'taolmadi.
Xush bundan ularning qaysi biri qobiliyatli ekanligiga baxo bera olamizmi? Dallilar bilan isbotlang.

4. qobiliyatning namayon bo'lishi uchun nimalar kerak? Nega uni urugga o'xshatiladi? Dalillar bilan isbotlang.

5. qobiliyatlar diagnostikasida eng yaxshi natija beradigan yo'l qaysi,ko'rsating.

a) test (sinov) v) biografik usul. s) labarotoriya ekslfimensi

d) kuzatish usuli.    e) anketa
6. Hamma qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat nima. (ko'rsating)
a) Emotsionallik.    v) Esga tushishi.    s) Tipiklashtirish.
d) Kuzatuvchanlik.    e) Abstraktsiyalash.
7. Obrazli fikrlashning aloxida rivojlangan bo'lishini,utkir emotsional ta`sirchanlik va reaktivlikni talab qiladigan qobiliyat turini ajrating.
a) Mantiklik k.    b) Texnik k.   s) Amaliy k.  d) Ilmiy k    e) Badiy k.
8. Praktik aqlning yuksak darajasida rivojlanganligini, faxm-farosatni, kuchli iroda va etuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladigan qobiliyat turini ko'rsating.
A) Amaliy k.  V) Matematik k.    S) Texnik.    D) Ilmiy.    E) Badiy k.
9. Eng avval qaysi qobiliyatlar namayon bo'ladi? Ko'rsating.
a) Rassomlik.  v) Musikaviy.  s) Adabiy.    d) Ilmiy.    e) Tashkilotchilik.
10. Boqiylikni obrazlar orqali aks ettiruvchi birinchi signal sistemasi ustun bo'lgan kishilar qaysi tipka mansub, ko'rsating.
A. Badiiy.    B. Fikrlovchi. S. Urta.    D. Senzitiv.    E. Ekstrovert.
12. Voqeylikning obrazli -emotsional aks etishini ta`minlovchi, birinchi signal sistemasi ustunligi miyaning qaysi qismi bilan bog'liq, ajrating.
A. Miyacha.    B. CHap yarim sharlar.    S. Ung yarim sharlar.
D. Orka miya.    E. Oralik miya.
13. Muvoffakiyatli ravishda bilim olishni ta`minlaydigan shaxsning yuksak intetektual taraqqiyoti nima, ko'rsating.
A. Mahsus qobiliyat    B. Texnik qobiliyat    S. Matematik qobiliyat
D. Umumiy qobiliyat    E. Badiiy qobiliyat
14. Muvoffakiyatsiz bajarilgan ishlarga karab odam qobiliyati to'g'risida qatiy xulosa chiqarib bo'ladimi? Javoblaringizni misollar bilan asoslang.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

1. Qobilatlar faqat faoliyatda, shunda ham ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatdagina namayon bo'ladi.
2. Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi. qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi deganida biz bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida bilamiz.
3. Qobiliyatlar taraqqiyotning yuksak bosqichi iste`dod deb ataladi.Iste`dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffakiyatli,mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasdir

**Asosiy adabiyotlar.**

1. M. Voxidov. Bolalar psixologiyasi T -82, 209 -213 b.
2. F. N. Gonobolin. "Psixologiya" T -76, 158 -164 b.
3. V. A. Petrovskiy. "Umumiy psixologiya" T -87, 249 -280 b.
4.Vo'gotskiy L.G.    Problema voli i ego razvitie v detskom vozraste.
5. Platonov K.K. Psixologiyayu -T.:O'qituvchi, 1982.
6. Voxidov M.V. Bolalar psixologiyasi. - T.:O'qituvchi, 1982.
7. A.Toporkov, V.Sokadeeva Predskazaniya sudbu.T.:Kamalak, 1991.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. -T. O'qituvchi, 1990.
2.Gonobolin F.N. Psixologiya. - T., 1978.

## MAVZU: YOSH PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**
1. YOsh psixologiyasi fanining vazifalari va ahamiyati
2. YOsh psixologiyasi fanining tamoyillari
3. YOsh psixologiyasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
YOsh davrlari psixogiyasi, psixik jarayonlar, yosh psixologiyasi fanining predmeti, tamoyillari, asosiy vazifalar, metodlari, tashkiliy, empirik, statistik, sharx.

**Mavzuga oid muammolar:**
- Sizningcha inson umrini davrlarga ajratish qanday omillarga asoslangan?
- YOsh davrlarining xususiyatlarini o'rganish zarurmi? Fikringizni asoslang.
- Ta`limni tashkil etishda yosh davrlarining xususiyatini ahamiyati nimada?

-Sizningcha ongni faoliyatdan ajratgan xolda o'rganish mumkinmi?
-Xoxish-istaklar bilan ijtimoiy talablar xar doim ham mos keladimi? Fikringizni asoslang.
-Inson ongining rivojlanish darajasini bilishimiz mumkinmi?
-inson shaxsini rivojlanishining omillari mavjudmi? Dalillang.
-Faqat kuzatish orqali inson shaxsi xaqida to'la ma`lumot olish mumkinmi?
-Ta`lim jarayonida tormozlovchi va rivojlantiruvchi usullardan foydalanish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
-Rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda usullarni tanlash qanday omillarga asoslanadi.

**1-asosiy savol. YOsh psixologiyasi fanining vazifalari va ahamiyati.**

**Dars maqsadi:**
YOsh psixologiyasi fani haqida tushuncha berish, uning o'rganish maqsadi, vazifalari va ahamiyatini ochib berish, talabalarda fanga kizikishni tarbiyalash.

**Identiv o'quv maqsadlari:**
1. YOsh psixologiyasi fanining predmetini biladi.
2. YOsh psixologiyasining ahamiyatini ochib beradi.
3. YOsh davrlari psixologiyasi asosiy vazifasini ko'rsatadi.
4. YOsh psixologiyasi fanida tadqiqotlar olib borish asosiy omillarini biladi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

YOsh davrlari psixologiyasi fanining mavzu baxsi (predmeti) turli YOshidagigi odamlarning (bolalar,kattalar, erkaklar,ayollarning (ontogenezda) tugilganidan umrining oxirigacha ) psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. YOsh psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol va xk) rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning har xil faoliyatini (o'yin, o'qish, mehnat kabilar), er va ayolning jinsiy tafovutlarini, shuningdek, inson shaxsining tarkib topishini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

Inson zotining turli jihatlarini o'rganish bilan bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiena, pedagogika, etnografiya kabi fanlar shug'ullangani kabi, bolaning

kamol topishidagi qonuniyatlarini, uning psixikasini, ongining usishini belgilovchi ijtimoiy omillar hamda psixologik mexanizmlarni, umuman, inson zotining tugilganidan voyaga etguncha psixik rivojlanishini psixologiya fanlari sistemasining aloxida soxasi - bolalar psixologiyasi fani o'rgatadi va tadqiq qiladi.
YOsh davrlari psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarning o'zaro ta`siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. YOshlar psixologiyasi ana shu vazifani xal qilish bilan amaliy maqsadlarni ruyobga chiqaradi: ta`lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi, moddiy ne`matlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo mulokotni to'g'ri yo'naltirishga, jamoada ijobiy psixologik iklim yaratishga, uzoq umr ko'rish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustaxkamlashga, ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Kamolotning turli davrlardagi insonning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, yukoridagi vazifalarni xal qilib bo'lmaydi.

**Muhokama uchun savollar:**
1. YOsh davrlari psixologiyasi fanining mavzu baxsini (predmetini) ochib bering.
2. YOsh psixologiyasi ______________________________haqidagi fandir.
3. YOsh davrlari psixologiyasining vazifasi va maqsadlarini ta`riflab bering.
4. Psixologiya olamida tarkalgan qarashlar va nazariyalarni to'g'ri ta`riflang.
5. YOsh psixologiyasi fanini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini asoslang.

**2- asosiy savol: YOsh psixologiyasi fanining tamoyillari.**

**Dars maqsadi:**
YOsh psixologiyasi fanining asosiy tamoyillarini tushuntirish, psixikani tadqiq etishda bu tamoyillarning ahamiyatini ochib berish.
**Identiv o'quv maqadlari:**
1. YOsh psixologiyasi rioya etadigan tamoyillarni biladi.
2. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati etishi tamoyilini izohlaydi.
3. Inson ongining rivojlanishi nimada namoyon bo'lishini ochib beradi.
4. Rivojlanish inson shaxsining tarkib topishi jarayoni ekanligini asoslab beradi.

**2-asosiy savol bayoni:**

Mazkur fan soxasi o'zining predmeti hamda vazifasini umumiy psixologiyaning asosiy tamoyillari va qoidalariga tayangan holda belgilaydi. YOsh psixologiyasi quyidagi tamoyillarga rioya qiladi:
1) Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati etadi. Tashki dunyodan kirib keladigan qo'zg'atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaktsiyasini bildiradi
2) Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini - uning ham nazariy, ham amaliy xayot faoliyatini o'rganishdir.
4) Inson bilish faoliyati rivojlanishi unga o'zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurrok, to'g'rirok, to'laroq va aniqrok aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini turli yo'sindagi o'zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlar va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi.
5) Inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo'ladi. Tarixiy materializm ta`limotiga, insonning moddiy turmushi, u xayot kechirayotgan tuzumning moddiy asosigina emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, e`tikodlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy vokelikka munosabatlari, intilishlari, faoliyatlari, ijod maxsullari va xatti-harakatlarining majmuasidir.

6) Insonning borlikni (vokelikni) aks ettirishi - faol jarayondir. Ma`lumki, inson zotining rivojlanishi ob`ektiv borlikka (vokelikka) va o'ziga faol ta`sir ko'rsatishda sodir bo'ladi. Bolaning katta yoshidagigi kishilar tashkil qiladigan amaliy faoliyati, masalan, uyini, kuzatishi, mehnati, ukishi, adabiy asarni mutolaa qilishi hamda qiziqishining barqarorlashuvi, iktidorning takomillashishi va boshqalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Dialektik materializm ta`limotiga binoan psixika bu -...
A. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash vazifasi
V. aqliy va jismoniy imkoniyatlarni kidirish
S. yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati yoki miyaning maxsuli
D. Katta yarim sharlarda vujudga keladigan muvvakkat nerv bog'lanishlari
E. Odamning idrok, tasavvur, harakat, diqqat, sezgi kabi hislatlari
2. Bosh miya pustlogida vujudga keladigan mvakkat nerv bog'lanishlari ____________________________qonunlari zamirida ro'y beradi.
3. Inson bilish faoliyatining va ongining rivojlanishi ahamiyatini ochib bering.
1. Insonning borlikni aks ettirishi faol jarayon ekanligini asoslab bering.

**3-asosiy savol. YOsh psixologiyasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.**

**Dars maqsadi:**

B.G.Ananevning psixikani o'rganish metodlari klassifikatsiyasini tushuntirish, tadqiqot metodlarining har birini tavsiflab berish va o'zaro bog'lanishlarini ko'rsatish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. B.G.Ananev klassifikatsiyasini sharxlay biladi.
2. Tadqiqot metodlari guruhlarining o'ziga xos turlariga ajratadi.
3. Har bir metod va metod turini tavsiflaydi.
4. Tadqiqot metodlari va ularning turlarini o'z o'rnida qo'llay bilish ko'nikmalarga ega bo'ladi.

**3-asosiy savol bayoni:**

YOsh davri va differentsial psixologiya fani ham psixologiyaning boshqa soxalari singari o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlariga ega.

YOsh psixologiyasida esa **kiyoslash metodi** turli yoshidagigi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, saloxiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligi kabilarni o'rganishda qo'llaniladiYOsh psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir davrda **longityud**
( uzluksiz) **metodi** ham qo'llaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, xatto o'n yillab tekshirilishidir. Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Xasan-Xusan, Fotima-Zuxra) yoki aralash jinsli (Xasan-Zuxra, Fotima-Xusan) egizaklar kuzatilgan. SHuning uchun kator tadqiqotlar "ona kundaligi" deb nomlangan.

**Kompleks metod**i yordamida o'rganilayotgan ob`ektdagi o'zgarishlar turli nuqtai nazardan taxlil qilinadi yoki ularga har xil yondoshiladi.

Endi tajribada eng ko'p qo'llaniladigan empirik metodlar haqida kengrok ma`lumot beramiz.

**Kuzatish metodi**. YOsh psixologiyasida bu metodning ob`ektiv (tashqi) va sub`ektiv (o'zini-o'zi) kuzatish turlari bor. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi.: 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) ko'zatiladigan ob`ekt tanlanadi; 3) sinaluvchining YOshi, jinsi aniqlanadi; 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi; 5) kuzatish kancha davom etishi kat`iylashtiriladi; 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (uyin, ukish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi; 7) kuzatishning shakli (yakka guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi;

8) ko'zatilganlarni qayd qilib borish vositalari ( kundalik, suxbat daftari, kuzatish varakasi, magnitofon, videomagnitofon va xk) taxt qilinadi.

**Suxbat metodi**. Bu metod inson psixikasini o'rganishda suxbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob`ekti va sub`ekti tanlanadi, mavzusi , o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi. O'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suxbatning bosh maqsadi-muayyan bir vaziyat yoki muammoni xal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir

**Test metodi**. Test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish demakdir. SHaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan kiska standart masala, topshirik, misol, jumboklar test deb ataladi. Test ayniksa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yarokligi yoki yaroksizligini, iste`dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llanadi.

**Tajriba metodi**. Turli yoshidagigi odamlar (chakalok, bola, uspirin, balogatga etgan va kariyalar)ning psixikasini chuqurroq, aniqrok tadqiq qilish metodlari ichida eng muximi hisoblanadi.

Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi.

**Laboratoriya metodi** ko'pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, mahsus psixologik asboblar, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Laboratoriya metodi yordamida diqqatning sifatlari sezgi, idrok, xotira,tafakkurning xususiyatlari, emotsional hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi.

**Biografiya (tarjimai xol) metodi**. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning xayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi ogzaki va yozma ma`lumotlar muxim ahamiyatga ega.

**Anketa metodi** yordamida turli yoshidagigi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi.

Anketa odatda uch xil tuziladi.

**Sotsiometrik metod** kichik guruh a`zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Morenko asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagit har bir a`zoning o'zaro munosabatini anqilash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashishi so'raladi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. YOsh davrlari psixologiyasi ilmiy-tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi kim tomonidan yaratilgan va nechta guruhga bo'linganini ayting.
2. Tadqiqot metodlarining quyidagi guruhlari qaysi turlarga bo'linishini ko'rsating.
1) tashkiliy
2) natijalarni qayta ishlash
3) sharxlash
3. Tajribada eng ko'p qo'llaniladigan metodlarni ko'rsating.
4. Empirik metodlarini sanab bering.
5. Test metodini ta`riflab bering.

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar.**

-YOsh davrlari psixologiyasida inson omili.
-YOsh davrlarini bosqichlarga ajratishda e`tiborga olinadigan jihatlar.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

**1.** YOsh davrlari psixologiyasi fanining mavzu baxsi (predmeti) turli YOshidagigi odamlarning (bolalar,kattalar, erkaklar,ayollarning (ontogenezda) tugilganidan umrining oxirigacha ) psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir.

2. Mazkur fan soxasi o'zining predmeti hamda vazifasini umumiy psixologiyaning asosiy tamoyillari va qoidalariga tayangan holda belgilaydi. YOsh psixologiyasi quyidagi tamoyillarga rioya qiladi:
3. YOsh davri va differentsial psixologiya fani ham psixologiyaning boshqa soxalari singari o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlariga ega.

## MAVZU: KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixikasi.
2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish jarayonlari, ularda ahloqiy tushunchalarning shakllanishi..

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Kichik maktab yoshi davri, ta`limga psixologik tayyorlik,bola diqqati, bola faolligi,psixik o'sish darajasi, boshlangich sinf O'quvchisi, o'kish faoliyati, idrok,pertseptiv faoliyat kichik yosh maktab O'quvchilarining diqqati, xotirasi va tafakkuri, axloqiy tushunchalar.

**Mavzuga oid muammolar:**

-6 yoshli bolani maktabda ta`lim olishga tayyor, deb aytish mumkinmi?
-Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishidagi etaklovchi kuch biologik asosmi yoki ijtimoiy asos?
-Nima uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari ota-onadan ko'ra o'qituvchining ko'rsatmalariga amal qiladi?
-Nima sababdan bolalikdagi xotirotlar mustaxkam bo'ladi? Fikringizni asoslang.
-Boshlang'ich sinf o'quvchisi mavxum tarzda fikrlay oladimi?
-Nima sababdan boshlang'ich sinf o'quvchisi o'qituvchiga, katalarga taqlid qiladilar?

**1-asosiy savol:**

Kichik maktab yoshidagi O'quvchilar psixikasi.

**Dars maqsadi:**

1) Kichik maktab yoshidagi O'quvchilarning biologik va psixologik jihatdan ta`lim olishga tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirish;
2) Kichik maktab yoshidagi O'quvchilarga ta`lim-tarbiya berishni tashkil etish ko'nikmalarini xosil qilish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Ta`limga psixologik tayyorlik mazmunini ochib beradi.
2. Boshlangich sinf o'quvchilarining biologik jihatdan usishini ta`riflaydi.
3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini tavsiflaydi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlangich (1-1U) sinflarning O'quvchilari kiradi. Bola maktab ta`limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

Ta`limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning ob`ektiv va sub`ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta`limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga etarli darajada rivojlanadi. SHu yoshidagigi bola idrokining o'tkirligi,

ravshanligi, sofligi, aniqligi, o’zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixoxligi, ishonuvchanligi, xayolining yorkinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqolligi bilan boshqa yoshidagigi bolalardan ajralib turadi.

Birinchi sinf O’quvchisi ko’pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha ta`lim so’z-mantiq xotirasini taqozo etadi.

Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi to’g’risida gapirilganida ko’pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko’p qirrali maqsadga yo’naltirilgan, o’zaro mantiqiy bog’liq boshlangich ta`limga zamin vazifasini o’tovchi psixik o’sish darajasini nazarda tutamiz.

Bola maktab ta`limiga psixologik tayyorgarligining sub`ektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda ukish xoxishi, intilishi, katta yoshidagigi odamlar bilan mulokotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog’liqdir. Bolada shu davrga kelib o’kish, bilim olish haqida to’g’ri tasavvur shakllanadi.

Maktabda ta`lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlari, jismoniy kamolot darajasini hisobga olish muvaffakiyat garovidir.

Boshlangich sinf o’quvchisi biologik jihatdan nisbatan uygun o’sadi, uning bo’yi va og’irligi, o’pkasining xajmi mutanosib rivojlanadi.

Maktab ta`limi o’quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavkeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolini o’zgartiradi, uning asosiy vazifasi ukishdan, bilim olish, ko’nikma va malakalarni egallash, tabiat va jamiyat to’g’risidagi qonuniyatlarni o’zlashtirishdan iborat bo’lib qoladi. Ta`lim muayyan darajada uyushkoklik, intilish, irodaviy zur berish, faollik va maqsadga muvofik faoliyatni talab qiladi. Ixtiersiz xatti-harakat o’rnini anglashilgan, rejali, aqliy mehnat egallay boshlaydi. O’qishning dastlabki kunidanoq kichik maktab yoshidagi bolaning o’sishini harakatga keltiradigan turli ziddiyat, qarama-qarshilik, ichki ixtiloflar vujudga keladi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar faoliyatini baxolash unda o’qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda muxim ahamiyatga egadir.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning muxim xususiyatlaridan biri ulardagi o’qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak extiromdir.

Ta`lim jarayonida o’qituvchi o’zining obro’sidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanib, O’quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o’qishga ijobiy munosabat, o’z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o’zini tuta bilish, qiyinchiliklarni engish kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Kichik maktab yoshi davriga necha yoshidagigi bolalar kiradi?
2. Ta`limga psixologik tayyorlik deganda nima tushuniladi?
3. Ta`limga psixologik tayyorlanishning ob`ektiv va sub`ektiv tomonini ochib bering, ularni taqqoslang.
4. Kichik maktab yoshidagi bolaning biologik jihatdan o’sishini izohlang.
2. Kichik maktab yoshidagi O’quvchilar faoliyatini boshqarishda o’qituvchi rolini ochib bering.

**2-asosiy savol:**

Kichik maktab yoshidagi O’quvchilarning bilish jarayonlari, ularda ahloqiy tushunchalarning shakllanishi.

Dars maqsadi:

1. Kichik mazkur yoshidagi O’quvchilarning bilish jarayonlarining xususiyatlari va rivojlanishini ochib berish;
2. Kichik maktab yoshidagi O’quvchilarda axloqiy tushunchalarning shakllanishini ko’rsatish;

3.O’qituvchi tomonidan o’tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar muximligini ochib berish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**
1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari rivojiga baxo beradi.
2. Idrok, xotira, diqqat, xayol, tafakkur takomillashuvini ochib beradi.
3. Kichik maktab yoshidagi bolalar tomonidan ahloqiy tushunchalarni o’zlashtirilishini izohlaydi.,

**2-asosiy savol bayoni:**
Maqsadga muvofiq o’qish faoliyati kichik maktab yoshidagi O’quvchilarning aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi,uquvliligi, esda olib qolish, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muxim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o’qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi.

Mazkur yoshdagi bolalar o’z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi, o’tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi.

Mazkur yoshdagi o’quvchining idroki o’zining xatti-harakati, uyin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog’liqdir.

Ta`lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o’quvchining idroki maqsadga muvofik boshqaraladigan pertseptiv faoliyat darajasiga kutariladi. Idrokning takomillashuvi o’kituvchining bevosita raxbarligida amalga oshadi.

Boshlangich sinf o’quvchilarida diqqatni irodaviy zo’r berish bilan boshqarish va favqulotda vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo’lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va bekrorligidir.

1 va 2 sinf o’quvchilari diqqatining o’ziga xos xususiyatlaridan biri uning etarlicha barqaror emasligidir.

Ta`lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustaxkam, kuchli, tuplanuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, misol va masalalar echish, mashklar bajarish, takrorlash, irodaviy zo’r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar xotirasining eng muxim xususiyatlaridan biri - so’z mantiq xotirasi va ma`nosiga tushunib eslab qolish salmogining ortishidir. O’quvchi o’z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini faoliyatning maqsadiga muvofiklashtirish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Buning sabablari: 1) ularning mexaniq xotirasi boshqa xotira turlariga karaganda durustrok rivojlangani, ma`lumotlarni o’zgarishsiz eslab qolish imkonini yaratadi; 2) O’quvchilar o’qituvchi qo’ygan vazifani anglab etmaydilar, natijada uni "to’g’ri tushuntirib ber" degan talabini so’zma-so’z takrorlash deb biladilar; 3) ularning nutk boyligi etishmasligi materialni ijodiy tuldirish, unga qo’shimcha qilish imkoniyati yo’qligi uni so’zma-so’z qaytarishni osonlashtiradi; 4) O’quvchilar matnni to’g’ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar. A.Smirnov eslab qolishning to’g’ri usuli sifatida matndagi ma`nodosh so’zlarni guruhlarga ajratish, tayanch nuqtani topish, so’zlab berish uchun reja tuzish va o’tilgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya qiladi.

Ta`lim jarayonida o’quv materiallarining ma`nosini, mohiyatini, turli muloxazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali O’quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi.Bolalarga izohli o’qish, masalaning shartini sharxlash, muammoli vaziyatni yaratish va xal qilishni urgatish muxim ahamiyatga ega.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Kichik maktab yoshidagi bilish jarayonlarining o’ziga xosligi nima bilan bog’liq?

2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idroki xususiyatlarini ochib bering.
3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushuncha bering.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasi takomillashuvini tushuntiring.
5. Kichik maktab yoshidagi bolalar xayolini baxolang.
6. Mazkur yoshdagi bolalar tafakkurining xususiyatlarini ochib bering
7. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ahloqiy tushunchalarning shakllanishida o'qituvchi rolini ochib bering.

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**
1.Bolaning maktabga psixologik tayyorligi darajasini aniqlash.
2.Ta`lim jarayoniga psixologik moslashish darajasini belgilash.
3.Mexanik xotira tiplarini aniqlash.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**
1. Bola maktab ta`limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.
2. Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi O'quvchilarning aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi,uquvliligi, esda olib qolish, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muxim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi.

## MAVZU: O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**
1. O'smirlar to'g'risida umumiy tushuncha.
2. O'smirning biologik o'sishi.
3. Akseleratsiya nazariyalari.
4. O'smirlik yoshida shaxsning shakllanishi.
1. O'smirning aqliy kamoloti.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
O'smir, o'z -o'zini boshqarish, nazorat qilish,o'qish davri,etaklovchi faoliyat, aktseliratsiya, O'smir ehtiyojlari va qarama-qarshiliklar, o'smirlik davrida jinsiy etilish, ichki sekretsiya bezlari, o'smirlik davridagi kechirmalar.O'smir shaxsning xususiyalari, tarbiyasi qiyin o'smir toifalari.

**Mavzuga oid muammolar:**
-Nima uchun o'smirlik davri «portlash» davri, deb ataladi?
-O'smirlarda o'qish faoliyati etaklovchilik rolini yo'qotadi, sababi nimada?
-Nima sababdan o'smirlik yosh davrida ota-onaning referentlik darajasi susayadi? Fikringizni asoslang.
O'smirlik davrida gavda nomutannosib rivojlanadi. Sababi nimada deb o'ylaysiz?
-O'smirlikda qarama-qarshi jinsga qiziqishni ortishining sababi nimada?Fikringizni asoslang.
-O'smirlik davrida turli salbiy xarakterdagi guruhlarga a`zo bo'lish ehtimoli kuchli. Sababi nimada?
- Nima sababdan o'smirlik davrida balog'atga etish tezlashadi. Fikringizni asoslang.
- Balog'atga etishning tezlashishiga quyosh nurining ta`siri bo'lishi mumkinmi, urbanizatsiyaningchi?
- O'smirni qayta tarbiyalash mumkinmi?
- Tarbiyasi og'ir o'smirni tarbiyalashda qanday ijtimoiy kuchlarni ko'rsatish mumkin?
- Har doim ham o'smir ichki hohish istaklari bilan tashqi talab mos tushadimi?
-O'smir aqliy kamolati xususiyatlari qanday omillarga bog'liq deb o'ylaysiz?

- O’smir intelektini mukammallashtirish mumkinmi?
- O’smir mavhum tarzda ijodiy fikrlash imkoniyatiga egami? Fikringizni asoslang.

**1-savol. O’smirlar to’g’risida umumiy tushuncha.**

Dars maqsadi:
Talabalarga o’smirlik yosh davri xususiyatlarini ochib berish. O’smir o’quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jihatlarini ko’rsatish.

**Identiv o’quv maqsadi.**
1. O’smirlik yosh davrining boshqa yosh davrlaridan farqini va e`tiborga moyilligini tushuntiradi.
2. O’smir yosh davrini ontogenezdagi o’rnini ajratib ko’rsatadi.
3.O’smir psixikasi o’sishini harakatga keltiruvchi kuchlarni izohlaydi.
4. Z. Freydning O’smirlik yosh davri haqidagi ta`limotlarini takkoslab farqlaydi.

**1-savol bayoni.**
Davridagi o’sishning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixologlarning fikricha,o’smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatini maxsuli deb qarash mumkin emas, chunki o’sishninig biologik va psixolog qonuniyatlarini inkor qilishga xaqqimiz yo’q. SHuninigdek, o’smirlik davrining muayyan xech o’zgarmas xususiyatlari va xarakteristikasi mavjud emas. O’smirlar o’rtasidagi o’ziga xos tipologik fikrlarni ijtimoiy omillarning ta`siri bilan, ta`lim -tarbiya shakllarini izohlash mumkin.

SHu bilan birga, o’smirning jismoniy o’sishini xususiyatlari, jinsiy etilishning iqlim va milliy - etnografik omillari ham bor.
**Muhokama uchun savollar:**

1. O’smirlik yoshi qaysi davrlarni o’z ichiga oladi?
2. O’smirlik yosh davriga e`tiborini kuchaytirish zarurligining asosiy sabablarini sanab o’ting va tushuntiring.
3. O’smir psixikasini harakatga keltiruvchi kuchlarni ayting.
4. O’smir psixikasini harakatga keltiruvchi kuchlarni farqlang va izohlab bering.
5. Z.Freydning o’smirlik yosh davri haqidagi ta`limotlarni taqqoslang va baxo bering.

**2.O’smirning biologik o’sishi.**

**Dars maksadi:**
O’smirlik yosh davrida ro’y beradigan jismoniy va fiziologik o’zgarishlar haqida ma`lumot berish. SHu yosh davridagi o’quvchilar bilan muomala munosabatlarda e`tibor berish zarur bo’lgan jihatlarni hisobga olishga o’rgatish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**
1. O’smirlik yosh davridagi biologik usish xususiyatlarini tushuntirib beradi.
2. O’smirlarning o’pkasini, tiriklik sigimini aytib beradi va ajratadi.
3. O’smirlik yosh davrida paydo bo’ladigan kechirmalarning sabablarini taxlil qiladi.
4.O’smir xayotida salbiy odatlarni keltirib chiqarish extimoli bo’lgan holatlarning manbalarini isbotlaydi.

**2-savol bayoni.**

O’simirlik insoning balogatga etish davri bo’lib, o’ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pagonalaridan keskin farqlanadi. O’smirda ro’y beradigan biologik o’zgarishlar natijasida uning psixik dunyosiga tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balogat davriga 11 (12 -15) yoshli qizlar va o’g’il bolalar kiradilar. Kamoloning mazkur pallasida jismoniy o’sish va jinsiy etilish amalga oladi.

Bolaning bo’yi 11 -12 yoshida 6 -7 sm, xatto 10 sm gacha o’sish mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o’g’il bolalarga qaraganda tezrok o’sadilar. O’smir 13-14 yoshiga tulganda har ikkala jins o’rtasida buyning usishi kariyb baravarlashadi. 15 yoshga kadam kuyganda ugil bolalar kizlarni ortda qoldiradi. SHundan keyin to umrining oxirigacha bolalar ustunlik qiladi.

O’smirlik davrida bo’y bilan tana nomunosib ravishda usadi, natijada bolalar ariq, nimjon va uzun bo’yli bo’lib ko’rinishadi.

O’smirlarda yurakning xajmi va tirik sigimi har yili 25 foiz kattalashib boradi. Bo’yning jadal o’sishi va tana ogirligining ortishi bilan qon hamda kislorodga ehtiyoj ham ortadi. Mazkur davrda tananing umumiy xajmidan 7 -8 foizni qon tashkil qiladi, qon bosimi bir muncha oshadi, simob ustunining 110 -115 mm darajasida bo’ladi. YUrak qisqarishining chastotasi bir qadar sekinlashadi, masalan, 11 yoshidagi daqiqada 85 -90 marta urgan bo’lsa, 14 -15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi. Uchinchidan, ta`limda biologik o’sish to’g’risida etarli bilimlar berilmasligi; turtinchidan, vrachlarning bu soxada keng ko’lamda ish olib bormasligi; beshinchidan ota -onalarda fiziologik va psixologik bilimlar etishmasligi; oltinchidan o’smir bolalar va kizlarga mo’ljallangan materiallarning kamligi va xakozolar.

**Muhokama uchun savollar:**

1. O’smir o’pkasining tiriklik sigimini ayting.
   (o’g’il bola) (kiz bola)
2. O’smir organizmining bio-fiziologik usish xususiyatlarin tushuntirib bering.
3. O’smirlik davrida paydo bo’ladigan yangi kechinmalarining fiziologik sabablarini yozma ravishda taxlil qiling.
4. O’smir xayotida nato’g’ri odatlarini keltirib chiqarishi extimoli bo’lgan ijtimoiy xayotdagi manbalarni kuzatib, xulosalar chiqaradi.
5. O’smir organizmida paydo bo’ladigan o’zgarish qaysi organ funktsiyasi bilan ko’proq bog’liq?

**3.Aktseliratsiya nazariyalari.**

**Dars maksadi:**

1. O’smirlik yosh davri aktseliratsiyasi haqida ma`lumot berish. SHu masalaga taluqli bo’lgan nazariyalar bilan tanishtirish, ularning mohiyatini tushintirib berish.
2. Ta`lim -tarbiya jarayonida aktseliratsiya xususiyatlarini e`tiborga olishga o’rgatish.

**Identiv o’quv maqsadi (vazifalar).**

1. Aktseliratsiya haqida ma`lumot beradi.
2. Aktseliratsiya haqidagi turli ta`limotlarni argumentlaydi.
3. Aktseliratsiya haqidagi nazariyalarni taqqoslaydi va yozma xulosa chiqaradi.
4. Aktseliratsiya nazariyalarini ajratib chiqadi, taxlil qiladi.

**3-savol bayoni**

O’smirning inson shaxsining kamol topishida aloxida o’rin egallaydi. O’smirlik davrida g’oyat katta ahamiyatga ega bo’lgan psixologik o’zgarishlar ro’y beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur ta`lim -tarbiya ta`sirida barqaror , mustaxkam iz qoldiruvchi ijobiy hislatlar namayon bo’ladi. Tarkibiy ravishda izchil vujudga kelayotgan psixik o’zgarishlar, shakllanayotgan fazilatlar va shaxsning usishi, avvalo mazkur yoshidagigi o’g’il -kizlar

faoliyatlarining (etakchi va yordamchi faoliyat turlari ukish, mehnat va uyin kabilar nazarida tutiladi) xususiyatiga bevosita bog'liqdir. O'smirning boshqa yosh davrlaridan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular his -tuyg'u va irodaviy sifatlarida o'z ifodasini topadi. O'smir kichik maktab yoshidagi o'quvchidan farqli ravishda xayotni ilk bor shaxs sifatida faol ilmiy bilishida ishtirok eta boshlaydi.

SHaxsning har tamonlama, uygun rivojlanishiga mehnat faoliyatini salmoqli tasir ko'rsatadi. O'smirlarning sinf va maktab er uchastkasidagi mehnat faoliyati o'z mohiyati bilan zarur axborot va ma`lumotlar, murakkablashib, ularning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, mehnat samarasidan, maxsulidan lazzatlanish his-tuyogularini shakllantira boshlaydi. Jamoa bo'lib amalga oshiriladigan o'yinlar va ularning keng ko'lamda o'tkazilishi o'tish davrida vujudga keladigan qiyinchiliklarni engillashtirishga xizmat qiladi.O'yin faoliyatida o'smirda yuksak ahloqiy his tuyg'ularni vujudga keltiradi, matonatlik, jasurlik kabi fazilatlar shaklanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Mazkur faoliyat o'smirning aqliy jihatidan fikr yuritishiga, o'z his tuyg'usini boshqarishiga, jismoniy kamol topishiga turtki vazifasini o'taydi. O'yinning har -xili bilan mashg'ul bo'lish o'smirni faximlashga, eslab qolishga, biror ishni amalga oshirishdan oldin uni rejalashtirishga va diqqatni bir necha ob`ektga taxsimlashga odatlantiradi. Ziyraklik, tezkorlik, farosatlik kabi muxim xususiyatlar, hislatlar ham uyin va sport mashgulotlarida tarkib topadi.

Ijtimoiy aktsileriya nazariyasi. Bu ilmiy nazariyaning asoschilaridan biri, yirik fizolik olim A.A. Markosyandir. Uning ta`riflashicha hozirgi kishidagi bilimlar xajmini XX asr yarmidagi kishilarning bilimlari xajmiga taqqoslash orqali bolalardagi o'sishi jarayonini aniqlash ijtimoiy aktseleriya deyiladi. Bolalardagi aktseleriyaning sababi: birinchidan ota -onalarning umumiy saviyasi yuksalgani, umumiy o'rta ta`limning amalga oshgani; ikkinchidan ijtimoiy turmushda axborot vositalari tarmog'ining kengaygani, ya`ni radio, televizor, teatr, kino, kontsert zallari, madaniyat markazlari, o'quvchilar saroylari va uylari, yosh texniklar va tabiatshunoslar stantsiyalarining, ulardagi ishtirokchilarning ko'paygani; uchinchidan kitob, jurnal, maxaliy matbuot qo'llami va sifatining o'zgarishi va xokazolardir.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Balog'atga erishish, jinsiy etilishdagi va o'sishdagi tezlashish qanday nomlanadi?
2. " Aktseliratsiya odamlarning ovkatlanishi, iste`mol qilinayotgan ozuqalarda darmon -dorilar miqdorining kuchayishi sababli vujudga keladi". Ushbu ta`limot qaysi nazariya oqimiga ta`luqli?
3. Aktseliratsiya haqidagi turli ta`limotlarning mohiyatini ayting, farqlang.
4. Aktseliratsiya nazariyalarini taxlil qilib chiqing, taqqoslang.
5. Aktseliratsiya nazariyalarini umumlashtirib, yozma xulosa chiqaring.

**4-savol. O'smirlik yoshida shaxsning shakllanishi.**

**Dars maqsadi:**
O'smir shaxsining o'ziga xos jihatlari haqidagi ma`lumotlarni
berish: O'smirlar bilan muomala -munosabatlarning mohiyatini anglashga o'rgatish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. O'smirlik davrida shaklanadigan ma`naviy ahloqiy sifatlarni sanab boradi, aytadi.
2. O'smir shaxsiga yondashishning o'ziga xos xususiyatlvrini aniqlaydi;
3. O'smir shaxsini tadqiq etgan psixolog -pedagoglarning qarashlarni takkoslaydi.

**4- savol bayoni**

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e`tikod, nutaiy nazar, printsip, o'zligini anglash, baxolash va xokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari

yoki o’zining tasoddifiy, ixtiyorsiz orzu -istaqlari bilan harakat qilsa, O’smir o’z faoliyatini muayyan printsip, e`tikod va shaxsiy nuqtaiy nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

O’smir shaxsining tarkib topishida ahloq, o’ziga xos ong aloxida ahamiyat kasb etadi. Bunda o’quvchilarning ahloqiy tushunchalarni o’zlashtirish va ularni turmushga tadbik etishi muxim rol o’ynaydi. Umum -insoniy hislatlarni shaklantirish jarayoni o’quvchidagi ishonch haqida, nuqtayi nazarning qarama -qarshiliklariga duch keladi. O’smir shaxsini tarkib topishida uning atrof -muhitga, ijtemoiy hodisalariga, kishilarning munosabatini hisobga olish lozim. CHunki o’smirda yuksak insoniy tuyg’ularning shakllanish sur`ati, barqarorligi ugil bolalar bilan kizlarga birmuncha fikrlanishini ta`kidlaydi.

O’smirnnig sinf jamoasi xayotida qatnashish uchun intilish g’oyat katta ahamiyatga ega. Sinf jamoasi a`zolarning o’zaro yordam, birdamlik, hamdardlik, bo’ysunish odati, shaxsiy va ijtimoiy kizikish odatlari, rivojlari.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Quyida berilgan sifatlardan qaysilari o’smirlik davrida shakllanadi va anglaniladi? Mexribonlik nuqtai nazar, Printsiplilik yo’nalish,

Dunyoqarash o’zligini anglash
E`tiqod tartiblilik
Qat`iyatlilik samiymilik
dilkashlik.

2. O’smir shaxsini ragbatlantirish va jazolash usularini aniqlang.
3. O’smir shaxsi xususiyatlarini tadqiq etgan ishlarini taxlil qiling.
4. Kattalik xususiyatlarini tarkib topishi jihatlarini aniqlab, topish jihatlarini aniqlab, yozma bayon qiling.

**5. O’smirning aqliy kamoloti.**

**Dars maqsadi:**

O’smir aqliy kamolatini xususiyatlarini ochib berish.
Akliy kamolot xususiyatlarini tarbiya jarayonida e`tiborga olish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**

1. O’smir aqliy kamoloti xususiyatlarini aytib beradi.
2. O’smir aqliy kamolotini to’g’ri rivojlantirish uchun zarur bo’lgan imkoniyatni izohlaydi.
3. O’smir aqliy kamoloti xususiyatlarini tekshirib ko’radi.
4. O’smir tafakkuri xususiyatlarini o’zga yosh davri tafakkuri jihatlari bilan solishtiradi.

**5-savol bayoni:**

O’smirnnig jismoniy o’sish va jinsiy etilishi ularning psixikasida keskin o’zgarishlarni vujudga keltiradi. Kichik maktabdagi bolalarda endigina rivojlanish bosqichiga kutarilgan intelekt o’smirlik davrida yanada takominlashadi. Tafakkurning rivojlanishi intelektni qo’shimcha ma`lumotlar bilan boitadi.

Usmir o’quvchilar o’rganayotgan fan asoslari, avvalo ularning mavxum tafakkurini o’stirishga qaratiladi. Uning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri -mavxum tafakkurining rivojlantirishidir.

Maktab ta`lim va mustaqil bilim olish faoliyati ta`siri ostida o’smirda analitik -sintetik faoliyat jadal sur`at bilan rivojlana boshlaydi. SHuning uchun unda sabab va natijani izohlash o’quvi mustaxkamlanib boradi. O’quvchi materialining muxim belgilarini ajratishga, keng ma`noli umumlashtirishni malga oshirishga harakat qiladi. Ta`lim jarayonida anchagina mavxum tushunchalar, masalan, matematika -nuqta, chizik, tenglik.., fizikada -kuch, solishtirma ogirlik, tezlik, amper, volt...,

geografiyada -ekvator, kutb, kenglik, uzunlik, zona, plato..., tarixda -qul, davr, shaxsiy mulk, boylik, eksplatatsiya va xokazolar vujudga keladi.

O’smirlik davrida o’quvchilarga analitik -sintetik faoliyat etarlicha rivojlanmagani, fikr yuritish usullari to’liq emasligi uchrab turadi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. O’smirlik yosh davri tafakkuri xususiyatini ayting.
2. O’smir aqliy kamoloti xususiyatlarini izohlab bering.
3. O’smir aqliy zakovatini to’g’ri rivojlantirish uchun zarur bo’lgan imkoniyatlarni yozma izohlab bering;
4. O’smir tafakkuri xususiyatlarini boshqa yosh davr tafakkuri jihatlari bilan solishtiradi va xulosa chiqaradi .
5. O’smirlik yosh davri psixologik jihatlariga baxo bering.

**Mavzu bo’yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1.Aktseliratsiyaga tasir etuvchi omillarni aniqlash.
2.O’smirning bo’sh vaqtini tashkil etish usullarini ishlab chiqish.
3.O’smir qiziqishlarini yo’nalishini belgilash.

**Mustaqil ish topshiriklari:**

1. O’smirlik yosh davri psixologik jihatlarni kuzatib xulosalar yozing.
2. O’smirlik yosh davri shaxsini shakllanishidagi psixologik qonuniyatlarni aniqlab, baho bering.

**Mavzu bo’yicha asosiy xulosalar:**

1. Psixologlarning fikricha,o’smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatini maxsuli deb qarash mumkin emas, chunki o’sishninig biologik va psixolog qonuniyatlarini inkor qilishga xaqqimiz yo’q.
2. O’simirlik insoning balogatga etish davri bo’lib, o’ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pagonalaridan keskin farqlanadi.
3. SHaxsning har tamonlama, uygun rivojlanishiga mehnat faoliyatini salmoqli tasir ko’rsatadi.
4. O’smirlik yoshi dunyoqarash, e`tikod, nutaiy nazar, printsip, o’zligini anglash, baxolash va xokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi.
5. Maktab ta`lim va mustaqil bilim olish faoliyati ta`siri ostida o’smirda analitik -sintetik faoliyat jadal sur`at bilan rivojlana boshlaydi.

## MAVZU: KATTA MAKTAB YOSHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Ajratilgan vaqt: 2 soat.

**Asosiy savollar:**

1. Katta maktab (o’spirin) yoshining umumiy xarakteristikasi
2. Katta maktab (o’spirin) yoshida shaxsning rivojlanishi
3. O’quv faoliyati va aqliy rivojlanish, mehnat faoliyati va kasb tanlash masalalari.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

SHaxs, tafakkur,o’smirlik, o’spirinlik, kasb tanlash, miya mikrostrukturasi, o’z-o’zini anglash, o’z-o’zini tarbiyalash.

**Mavzuga oid muammolar:**

- O’spirinni shaxs sifatida to’la shakllangan deb ayta olamizmi?
- O’spirin psixikasini harakatga keltiruvchi kuchlar nimada deb o’ylaysiz?

- O’spirinni oila qurishga moddiy va ma`naviy jihatdan tayyor deb olishimiz mumkinmi?
- O’spirin davrida ahloqiy sifatlar to’la shakllanib bo’ladi deb aytishimiz mumkinmi?
- O’spirin o’z hatti-harakatlarining mohiyatini to’la anglay oladimi?
- O’spirin o’z-o’zini tashkil eta oladimi? Fikringizni **asoslang.**
-Nima sababdan o’spirin predmetlarga tanlab munosabatida bo’ladi?
-O’spirinning qiziqishlari konkretlashadi deb aytishimiz mumkinmi?
-O’spirinning kasb tanlashi o’quv faoliyatiga tasir ko’rsatadimi?

**1-asosiy savol:**
**Katta maktab yoshining umumiy xarakteristikasi**

**Dars maqsadi:**
Talabalarga mavzuga oid bilim va tushunchalarni berish, katta maktab yoshi o’quvchilarining o’ziga xos xususiyatlarini ochib berish,psixik rivojlanishi haqida ma`lumot berish.

**Identiv o’quv maqsadlari:**
1. O’spirinlik yoshining o’ziga xos tomonlarini ochib beradi.
2. O’spirin psixikasini harakatga keltiruvchi kuchlarni ko’rsatadi.
3. O’spirinlarning jismoniy va jinsiy etilishini taxlil qiladi.

**1-asosiy savol bayoni:**
Katta maktab yoshi yoki ilk o’spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshidan 18 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu yoshdagi bolalar maktabning 1X-X1 sinflariga to’g’ri keladi. SHu davrning oxiriga kelib, o’quvchi maktabni bitirib, keyin mustaqil xayotga qadam qo’ya boshlaydi va turli xil xunar, kasb egasi bo’lish, oliy o’quv yurtda o’qishga etarli darajada ma`naviy va g’oyaviy etuklikka erishadi. O’spirinlar 17 yoshida pasport oladi. Maktabni bitirgandan keyin ko’p utmay, ular saylovlarda ovoz berish huquqini oladi. Bularning barchasi fukarolik etukligidir.

Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishi aloxida kasb etadi. Turmush va faoliyatning yangi sharoitlari, katta maktab yoshidagi kishilarning maktabda tutgan mavqei, jiddiy ijtimoiy faoliyat soxasida tajribalarini orttirish, katta yoshidagigi o’quvchiga mutloq yangi va nixoyatda katta talablarni qo’yadi. SHaxs shu talablar asosida tarkib topadi.

Katta maktab yoshida psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch kechagina o’smir bo’lgan 1X sinf o’quvchisiga jamiyat, maktab kollektivi va o’quv faoliyati tomonidan qo’yiladigan talablar uning shaxsiga, ijodiy imkoniyatlariga, mustaqil tafakkur qilishga nisbatan quyiladigan talablar darajasini keskin oshishi bilan, u erishgan psixik rivojlanishi darajasi o’rtasida qarama-qarshilik mavjud. Katta maktab yoshidagi o’quvchining bu qarama-qarshiliklari axloqiy, aqliy va ijodiy kuchlari intensiv taraqqiyoti yo’li bilan xal etiladi. O’zining jismoniy kuchini, jozibadorligini, soglomligi va mukammalligini his etish yigit va kizlarda o’ziga ishonch, dadillik, tetiklik va xushchakchaqlik singari sifatlarning tarkib topishi uchun ta`sir ko’rsatadi.

Yigit va kizlar katta maktab yoshiga etganda, jismoniy voyaga etadilar va rivojlanish katta yoshdagi insonlardan kam va unchalik farq qilmaydi. O’smirlik yoshiga xos bo’lgan bo’yning va organizmning juda tez hamda notekis o’sishi va rivojlanishi davri tugallanadi hamda jismoniy rivojlanishining nisbatan birmuncha osoyishta davri boshlanadi.

Katta maktab yoshida nerv sistemasining va xususan miyaning rivojlanishida o’zgarishlar ham ma`lum bo’lib qoladi.

Katta yoshning boshlanishida odatda jinsiy etilishi tugallanadi va ikkilamchi jinsiy belgilari rivojlanadi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. X sinf o'quvchisi bo'lgan kiz shunday bir fikrni aytgan:"Katta ishda faqat birovning buyrug'ini bajaruvchi kishi bo'lgandan ko'ra, kichik bir ishda ijodkor bo'lgan yaxshiroq".

1) Ushbu fikr xaligi qizning shaxsiga xos qanday xususiyatdan dalolat beradi?

2) Mana shu xususiyatlar o'smirning yoshi uchun xos bo'lgan xususiyatlarmi? Fikringizni isbotlang.

2. O'z-o'zini tarbiyalashga e`tibor qaysi yoshdan ko'chaya boshlaydi?

3. Ilk o'spirinlik yoshi bola taraqqiyotining qaysi davriga to'g'ri keladi?

**2-asosiy savol :**

**Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishi**

**Dars maqsadi:**

Savolga oid tushunchalarni talabalar ongiga singdirish, katta maktab yoshi o'quvchilarining faoliyatini ta`riflab berish, o'z-o'zini anglash xususiyatini ochib berish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. O'spirinning ma`naviy qiyofasini ta`riflaydi.
2. O'spirinlik yoshida o'z-o'zini anglash xususiyatini izoxlaydi.
3. Katta maktab yoshida o'z-o'zini tarbiyalash va uning psixologik tomonlarini tasniflaydi.

**2-asosiy savol bayoni:**

Katta maktab yoshidagi shaxsning ma`naviy qiyofasi xarakter hislatlari , dunyoviy qarashlari ancha shakllanadi. SHaxsning rivojlanishiga uning maktabda,oilada,ijtimoiy munosabatlar tizimida tutayotgan mavqeining o'zgarishi xal qiluvchi ta`sir ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlarga maktab o'quvchisi kattaroq, aqilliroq bo'lib qoladi. YOsh faktori belgilovchi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bunda o'quvchi faoliyatining xarakteri o'zgaradi. O'smirning faoliyati asosan o'qish faoliyatidan iborat bo'lib, u maktab doirasi bilan cheklangandir. Ijtimoiy faoliyati ham odatda maktab ichida ro'y beradi. Katta maktab yoshidagigi o'quvchi esa boshqacharoq bo'ladi. Uning ijtimoiy faoliyati ko'pincha maktab doirasidan tashqariga chiqadi, yukorida aytib o'tilganidek, u odatda maktabda tashkilotchilik, raxbarlik va tarbiyaviy funktsiyalarini bajaradi. Uning jamiyatdagi mavqei keskin ravishda o'zgaradi va shaxsning shakllanishiga ta`sir etadi. SHu ta`sirlar ostida shaxsning g'oyaviy shakllanishidan iborat chuqur jarayon, uning o'z taqdirini o'zi belgilaydi. Bu davrda shaxsning taraqqiyotiga kattalarning raxbarlik qilishi kerak,bular uchun raxbarlik juda zarur bo'ladi. Lekin raxbarlik moxirona, juda ustalik bilan olib borilishi kerak.

Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishiga oid jarayonning asosiy xususiyatlari yigit va qizlarda o'z-o'zini anglash sezilarli o'sadi.

Katta maktab yoshdagi o'quvchi o'zini psixik xayotiga, o'z shaxsining sifatlariga, o'z qobiliyatlariga chuqur qiziqish uyg'otadi, shuning uchun ham bu xatti-harakatlarga nazar tashlash, o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji paydo bo'ladi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchining o'smirdan farqi shundaki, u o'zidagi oddiy, sezilarli ravishda namoyon bo'ladigan shaxsiy sifatlarinigina emas, balki shaxsning ko'p kirrali munosabatlarini xarakterlovchi ancha murakkab sifatlarni ham anglashga qodirdir.

O'smir o'zining hozirgi ahvoliga muvofik ravishda o'ziga baxo beradi, katta maktab yoshidagi o'quvchi o'zining klajagiga muvofik ravishda o'ziga baxo beradi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zini anglash asosida o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyoji o'sadi, o'z-o'zini tarbiyalash odatda xatti-harakatlardagi ayrim kamchiliklarga barham berishga yoki ba`zi bir ijobiy sifatlarni rivojlantirishiga qaratilibgina qolmasdan, shu bilan birga shaxsni umuman, yigit va kizlarda vujudga keladigan umumlashtirilgan ideallarga muvofiq ravishda tarkib toptirishga ham qaratilgan bo'ladi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. A.V.Petrovskiy tasnifiga ko'ra o'spirinlik yosh nechaga to'g'ri keladi?
2. O'spirin psixologiyasida faoliyatning qaysi turi etakchilik qiladi?
3. O'spirinlik yoshida shaxsni harakatga keltiruvchi kuchlar nimadan iborat?
4. O'spirinlik yoshida o'z-o'zini anglash nimada namoyon bo'ladi?

**3-asosiy savol:**

**O'quv faoliyati va aqliy rivojlanish, mehnat faoliyati va kasb tanlash masalalari.**

**Dars maqsadi:**

Savolga oid eng asosiy tushuncha va qonuniyatlarni talabalar ongiga singdirish, katta maktab yoshi o'quvchilarining o'quv faoliyati mohiyatini tushuntirish, ularning o'qishga bo'lgan munosabatini sharxlash.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Katta maktab yoshida o'quvchilarning o'quv faoliyati xususiyatlarini ochib beradi.
2. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga munosabatini bayon etadi
3. O'spirinlik yoshidagi qiziqishlarni ta`riflab beradi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati o'z xarakteri va mazmuni jihatidan o'smirlarning o'quv faoliyatidan birmuncha farq qiladi. Gap faqat ta`limning mazmuni chuqurlashuvida va o'quvga oid yangi bilimlar kiritilishida emas. Asosiy farq shundaki, yukori sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati ularning aktivligi va mustaqilligiga ancha yukori talablar qo'yadi. Dasturni etarli ravishda chuqur o'zlashtirish uchun nazariy tafakkur rivojlangan bo'lishi zarur. YUkori sinf o'quvchilarining ta`lim jarayonida ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelishi avvalo mana shu yangi sharoitda o'qishning uddasidan chiqa olmayotganliklari bilan bog'liqdir.

O'quvchilarda maktabning o'rta sinflaridagi ta`lim jarayonida qaror topgan va mustaxkamlangan o'quv faoliyati darajasi bilan yukori sinflardagi o'quv faoliyati qo'yadigan talablar o'rtasidagi ana shu qarama-qarshilik katta yoshdagi o'quvchilarning aqliy taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlardir. Bu qarama-qarshilik o'quvchilarda nazariy tafakkurning, mustaqil ta`lim olish ko'nikmalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'quv faoliyatining yangi, ancha yuqori darajasiga o'tishlariga qarab hal etib boriladi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi. O'quvchilar voyaga etib boradilar, ularning tajribasi ortadi, ular mustaqil hayot bo'sag'asida turganliklarini seza boshlaydilar. O'quvchilarning o'qishga ongli qarashi kuchayadi, bu qarash bevosita xayotiy ma`no kasb etadi. YUkori sinf o'quvchilari jamiyatning kelajakdagi mehnat xayotida to'laqonli ishtirok etishning zarur sharti bilim, ko'nikma va malakalarining mavjud fondi ekanligini, maktabda xosil qilgan mustaqil bilim egallash ko'nikmalari ekanligini aniq-ravshan his qiladilar. Bilimlarga ehtiyoj sezish-hozirgi vaktdagi yukori sinf o'quvchisining eng xarakterli xususiyatlaridan biridir.

**Muhokama uchun savollar:**

1. YUkori sinf o'quvchilaridan biri bilan suxbatda o'quvchi shunday faktni tan oldi: Men ximiya juda muxim fan ekanini yaxshi tushunaman va yaxshi o'qishga harakat qilaman, lekin negadir shu fanni yoqtirmayman, u bilan shug'ullanish menga unchalik qiziqarli emas, hamma formulalarni yod olish

kerak, reaktsiyalar qanday bo'lishini, davriy sistemadagi behisob elementlarni bilish kerak. Bu darsni tayyorlashga juda ko'p vaqtim ketadi. Bir temani bir necha marta o'qiyman, lekin baribir ijobiy natijaga erishganim yo'q".

O'ziga sira yoqmasa ham zo'r berib ximiya fanini o'qigan bu o'smirda uning shaxsiga xos qanday xususiyatlar namoyon bo'ladi?

2. Pedagog ko'rgan qanday chora-tadbirlar o'quvchining mazkur fanga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkin?

**Mustaqil ish topshiriklar:**

1. O'zini maktabda ishlash uchun yaxshiroq tayyorlash maqsadida pedagogik o'quv yurtida ta`lim olayotgan student qanday shaxs sifatlariga ega bo'lmog'i kerak?

2. Nima sababdan bo'lg'usi o'qituvchilar - studentlar pedagogik maxoratini shakllantirish ularning shaxsini tarbiyalash ishi bilan tarkibiy bog'liq ekanligini tushuntirib bering.

**Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1.Kasb tanlash motivlarini aniqlash.

2.Dunyoqarashni shakillantirishning psixologik asosini o'rganish

3.Oilaga psixologik tayyorlash usullarini aniqlash.

**Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:**

1. Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishi aloxida kasb etadi. Turmush va faoliyatning yangi sharoitlari, katta maktab yoshidagi kishilarning maktabda tutgan mavqei, jiddiy ijtimoiy faoliyat soxasida tajribalarini orttirish, katta yoshidagigi o'quvchiga mutloq yangi va nixoyatda katta talablarni qo'yadi. SHaxs shu talablar asosida tarkib topadi.

2. Katta maktab yoshidagi shaxsning ma`naviy qiyofasi xarakter hislatlari , dunyoviy qarashlari ancha shakllanadi. SHaxsning rivojlanishiga uning maktabda,oilada,ijtimoiy munosabatlar tizimida tutayotgan mavqeining o'zgarishi xal qiluvchi ta`sir ko'rsatadi.

3. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati o'z xarakteri va mazmuni jihatidan o'smirlarning o'quv faoliyatidan birmuncha farq qiladi.

## BO`LIM BO'YICHA YAKUNIY MASHG'ULOT.

1.Inson pixikasi ma`lum qonuniyatlar asoida rivojlanadi.

2.SHaxsning xususiyatlarini psixologik usullar yordamida o'rganiladi.

3.Maktabga psixologik tayyorlash usullari mavjud.

4.O'smirlik davri balog'atga etish davridir.

5.Maktab davrida ihtiyoriy diqqat shakllanadi.

6.O'smirlik davrida biologik o'sish tezlashadi.

7. O'spirinlik davrida aqliy qobiliyatlar rivojlanadi.

8.Talabaning o'ziga xos individual psixologik xususiyatlari mavjud.

**Seminar.**

**Sotsial-psixologik kategoriya sifatida muloqot haqida tushuncha**

**Dars maqsadi**:Talabalarda ijtimoiy – psixologik kategoriya sifatida muloqot haqida tushuncha hosil qilish,muloqot va uning turlarini tasniflashni,muloqot- shaxslararo ta`sir ko'rsatishini amalda ko'rsatishni o'rgatish,axborot vositalari ,ularning mohiyati va samaradorligi haqida tushuncha berish.

**-Identiv o'quv maqsad:**

-Muloqot va uning turlarini tasniflaydi.

-Shaxslararo ta`sir ko'rsatishda muloqotning o'rnini ko'rsatadi.

-Axborot uzatish va ommaviy axborot jarayonlarini ta`riflaydi.

**Kerakli jihozlar**:«Umumiy psixologiya»,»Psixologiya» faniga oid darsliklar ,ko'rgazmali qurollar,talabalarning o'zlashtirish darajalarini aniqlash uchun anketa savollari ,testlar,tarqatma materiallar va h.k..

**Ishni bajarish tartibi:**

1.Muloqotga ta`rif beriladi. Muloqotni rejali ekanligi,muloqot va faoliyatning birligi; muloqot turlari haqida tushuncha beriladi.

2.Muloqot axborot almashish jarayoni, til esa asosiy muloqot vositasi sifatida tushuntiriladi. Nutqning til yordamida amalga oshiriladigan muloqot vositasi ekanligi ta`riflanadi, nutq turlari haqida tushuncha beriladi,nutq mexanizmi tushuntiriladi.

3.Muloqot shaxslarning o'zaro ta`sir ko'rsatishi sifatida ta`riflanadi.Ijtimoiy nazorat va ijtimoiy me`yorlar,muloqot jarayonidagi rollar,pedagogik jarayonidagi muloqotlar shaxslararo nizolar;kelishmovchiliklar; do'stona muloqat haqida tushuncha beriladi.

4.Muloqot odamlarni bir- birlarini idrok qilish vositasi sifatida sharhlanadi.Axborotda teskari aloqa; pedagoglarning bolalarni boshqalar bilan muloqotga kirishishga o'rgatish bo'yicha mashq qildirishlari haqida tushuncha berilishi kerak .

5.Axborot uzatish – shaxsning yiroqdagi kishilar bilan bevosita muloqotda bo'lish yo'li ekanligi aytiladi.Xat yozishuv ,telegramma,telefonogramma yozuvlari:telefon va ratsiya suhbatlari orqali muloqotning o'ziga xos xususiyatlari hamda mavjud imkoniyatlari aytib o'tiladi.Ommaviy axborot vositalari: gazeta,jurnal,radio, televizor orqali amalga oshiriladigan muloqotlarning xususiyatlari tushuntirilib, ularning mohiyati , qulay va samaradorlik jihatlari aytib o'tiladi.

6.Dars yakuni. Muomala munosabatlar inson hayotidagi o'rni

**Asosiy adabiyotlar**:

1. Q.Daminov, O'.Otavaliyeva, X.Ibrohimov. «Seminar va labaratoriya mashg'ulotlari»-Toshkent - 1994 y.

2. Rogov E.I. «Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa». -1-2-chast-Moskva-1999g.

3. V.M.Karimova. «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot».-Toshkent-1999y.

**Qo'shimcha adabiyotlar**:

1. R.S.Nemov. «Prakticheskaya psixologiya»-Moskva-1998g.

2. B.TS.Badmayev. «Psixologiya:kak eyo izuchit i usvoit».- 1997g.

**1- Amaliy mashg'ulot:**

**Muomala xususiyatlarini o'rganish.**

**Dars maqsadi**: talabalarning muomala jixatlarini aniqlash. Muomala madaniyatiga o'rgatish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1.Mavzuga oid usullarni aniqlaydi.

2.Psixologik treninglarni o'rganadi.

3.Muomala jixatlarini o'rganuvchi testlarni amalda sinab ko'radi.

4. Olingan natijalarni tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** muomala jixatlarini aniqlash testlari, so'rovnomalar, treninglar, sekundamer.

**Ishni bajarish tartibi:**

1.Tanishuv treningini o'tkaziladi. Bunda har bir talaba ismini, bitta salbiy va bitta ijobiy sifatini aytadi. Eksperimentator-o'qituvchi eng oxirida o'z ismi va sifatlarini aytadi.

